

**O'ZBEKISTON RESRUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

**Mahfuza Mirzayevna Qo'ziboyeva,
Muyassar Rasulovna Axunova**

**"PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA"
fanidan**

PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA nomli

O'QUV QO'LLANMA

Oliy hamshiralik ishi - 5510700
yo'nalishi I kurs uchun

Andijon - 2020

Mualliflar:

M.Qo'ziboyeva

o'zbek tili va adabiyoti kafedrasи mudiri

M.Axunova

o'zbek tili va adabiyoti kafedrasи katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

M.R. Qodirova

TTA Farg'она filiali Tillar va ta'lim texnologiyalari
kafedrasи mudiri,p.f.n. (Ph.D) dotsent

L.S.Xudayberdiyeva

ADTI "Xorijiy tillar" kafedrasи mudiri, dotsent

K I R I S H

Ilm-fan, texnika ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritilayotgan ta’lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklari va o’quv qo’llanmalarini yaratishni taqozo etmoqda. Bu kabi o’quv manbalarining yaratilishiga qo’yilayotgan talablardan eng muhimi – ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o’z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O’zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyati ham ochib berish sanaladi.

Tibbiyot oily o’quv yurti 5510700 - Oliy hamshiralik ishi yo’nalishi I kurs uchun mo’ljallangan “Pedagogika. Psixologiya” o’quv qo’llanmasi amaldagi o’quv dasturida surilgan talablarga muvofiq yaratildi. O’quv qo’llanmaning maqsadi – pedagogika va psixologiya fanlarining nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, bo’lajak tibbiyot xodimlari tomonidan ularning chuqr o’zlashtirilishiga erishish, talabalarda pedagogik-psixologik vaziyatlarni to’g’ri talqin eta olish ko’nikma va malakalarini shakllantirishda iborat.

O’quv qo’llanmani yaratishda mualliflar O’zbekiston Recpublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” kabi me’yoriy hujjatlarda ilgari surilgan fikrlarga tayandilar. Pedagogika va psixologiya fanining umumiy asoslari bayon etilishi bilan birga mazkur mavzularni mustahkamlash maqsadida interfaol usullarda topshiriqlar va masalalar taqdim etilgan.

1-MAVZU. PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA.
TIBBIYOT XODIMLARINI TAYYORLASHDA REDAGOGIK
BILIMLARNING O'RNI

T A Y A N C H I B O R A L A R:

Pedagogika, didaktika, maxsus ta'lim, tarbiya nazariyasi, tarbiya, shaxs, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish

Pedagogika predmeti. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos "bola" va "yetaklayman") ijtimoiy tarbiyaning umumiylar qonuniyatlar, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rghanadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvshi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rghanadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihat – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni haratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunonsha didaktikos "o'rgatuvchi", didasko "o'rjanuvchi") ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlar, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlar, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra umumiylar va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiylar ta'lim har bir shaxsning kamol torishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishga yo'naltiriladi. Umumiylar ta'lim asosida o'zlashtirilgan ma'lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga imkon beruvchi maxsus ta'lim olishi uchun asos bo'ladi.

Maxsus ta’lim – o’zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko’nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim, shuningdek, turli darajadagi ta’lim dasturlarini amalga oshirishiga ko’ra ta’lim muassasasigasha ta’lim, umumiyl o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasbhunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda ta’lim muassasasidan tashqari ta’lim kabi turlarga bo’linadi.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o’rganadi.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o’stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib tortirish jarayonidir.

Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo’nalishlarda tashkil etiladi.

Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari. Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalanish yo’lida olib borgan harakatlari tarbiya g’oyalarining shakllanishiga asos bo’lib xizmat qilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo’lib hayot kechirishi sababli bolalarga tirikchilik o’tkazish yo’lidagi faoliyat (o’simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o’rgatish guruh a’zolari tomonidan birdek amalga oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o’yin jarayonlarida o’zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy xarakterga ega bo’lganligi bois o’g’il va qiz bolalarni tarbiyalashda o’ziga xos jihatlar ko’zga tashlangan.

Oila, xususiy mulk va davlatning raydo bo’lishi ijtimoiy tarbiya mazmunida ham tub o’zgarishlarning sodir etilishi, quzdorlarning raydo bo’lishi olib keldi. Aynan mana shu davrdan tarbiya jamiyatning ijtimoiy talab va ehtiyojlari asosida yo’lga qo’yila boshladи. Erkin fuharolarni tarbiyaning maqsadi,

vazifalari, mazmuni va vositalari borasidagi fikrlar Demokratik, Platon va Aristotellarning asarlarida muhim o'rinni egallagan. Mutafakkirlarning asarlarida ushbu fikrlar mustaqil pedagogik nazariya sifatida emas, balki falsafiy harashlar yoki jamiyatni tashkil etish loyihasining muhim komponenti tarzida bayon etilgan. Ushbu davrda tabiiy-ijtimoiy fanlar tizimi shakllanishi uchun boshlang'ish asoslar qo'yildi.

Quldorlik tuzumida erkin bo'limgan kishilar (qullar)ning haq-huquqlari sheklanganligi bois tarbiya tizimi faqatgina quldorlar, ularning farzandlari uchun xizmat qilgan.

Quldorlik tuzumi o'mnida shakllangan feodal tuzumda pedagogik g'oyalar feodallar manfaatini ifoda eta boshladи. Mazkur davr pedagogik jarayonni tashkil etishda diniy g'oyalar etakshi o'rinni egallashi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hayotda diniy muassasalar (G'arbda cherkov, Sharqda esa masjidlar)ning roli osha borib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishlari asosan shu maskanlarda tashkil etildi. Garchi dunyoviy g'oyalarni ilgari surish, ilmiy nazariyalarni yaratish va targ'ib etishning din peshvolari tomonidan qoralanishi kabi holatlar ham ko'zga tashlangan bo'lsa-da, ammo savdo-iqtisodiy aloqalar ko'lamining kengayishi, tabiiy ofatlarga qarshi keskin chora ko'rish ehtiyoji ilmiy bilimlarning rivojlantirish hayotiy zaruriyat ekanligini isbotladi. Insoniyat tarixidan mustahkam o'rinni olgan Sharq Uyg'onishi deb nom olgan tarixiy jarayon aynan feodal tuzumi – o'rta asrlar davrida sodir bo'ldi. Sharqda buyuk allomalar - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oni, G'arbda esa T.Mor, T.Kampanella, E.Rotterdamski, F.Rable, M.Monten va boshqalar tomonidan har tomonlama rivojlangan, ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom, antik dunyo va burjaziya davri yutuqlari asosida ilmiy bilimlarni o'zlashtira olgan shaxsni tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va ruxta asoslab berildi.

Savdo, hunarmandshilik va manufaktura negizida rivojlanib borayotgan ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish yo'lidagi amaliy harakatlar bu boradagi muvaffaqiyat murakkab texnikani boshqara oladigan shaxsni shakllantirish evaziga hal etilishi tasdiqladi. Mazkur davrda ilg'or, progressiv pedagogik g'oyalar ilgari

surildi. Aksariyat g'oyalar mazmunida bilim olishga nisbatan ijtimoiy tenglikni qaror tortirish borasidagi harash o'z ifodasini tordi.

Aynan shu davrda pedagogika fani asoslari muayyan tizimga solindi va ilmiy jihatdan asoslandi. Bu o'rinda pedagogika fani rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan mutafakkirlar: G'arbda - YA.A.Komenskiy, D.Didro, J.J.Russo, F.Gerbart, V.V.Disterveg, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Sharqda I.Ibrat, S.Siddiqiy, A.Shakuriy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy, M.Abdurashidov, M.Behbudiylar shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi harashlarni yanda boyitdilar hamda ta'lim tizimiga ilm-fan, texnika yangiliklarini tadbiq etish, o'qitishni yangi tizim (izchil, uzlucksiz, asoslangan) asosida tashkil etish kabi g'oyalarni ilgari surdilar.

Sobiq Sho'ro davrida pedagogika fani mazmunan ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida boyidi, ta'lim muassasalari tizimi shakllantirildi, shuningdek, har tomonlama (garmonik) rivojlangan shaxsni shakllantirish nazariyasi asoslandi. Biroq, mazkur nazariya g'oyalarini amaliyotga tadbiq etishning ruxta asoslangan mexanizmi yaratilmadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo'li demokratik, insonrarvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e'tirof etilib, «ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmishtan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish» davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e'tibor yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvshi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi.

Respublikada ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» kabi me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan.

Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy hrakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganadi.

Pedagogika fanning vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shamdi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida etakshi o'rinn tutuvshi g'oyalar mohiyatini muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonrarvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvshi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab shiqish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvshi yuqori malakali kadrni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan quollantirish.
7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab shiqish.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayansh tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha **kategoriya** deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiyligi mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xattiharakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim – talabalarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvshi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib torgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiyligi mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqati nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. **Falsafa** – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.
2. **Iqtisod** – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.
3. **Sotsiologiya** – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.
4. **Etika**- shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rinni tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rinni tutadi.
5. **Estetika** – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'naliishlarni aniqlashga xizmat qiladi.
6. **Fiziologiya**- o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ish asoslarni beradi.
7. **Gigiyena** – talabalarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.
8. **Psixologiya** – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib tortirish uchun zamin yaratadi.

9. **Tarix** – pedagogika fani taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g’oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo’naltiriladi.

10. **Madaniyatshunoslik** – talabalarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib tortirish uchun xizmat qiladi.

11. **Tibbiy fanlar** – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to’g’ri rivojlanishini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo’layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o’qitish hamda tarbiyalash muammolarini o’rganishda ko’maklashadi.

Pedagogika fanlari tizimi. Shaxs kamolotini ta’minlash, uning intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o’ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, Psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvshi pedagogik fanlar tomonidan o’rganiladi. Ular quyidagilardir:

1. **Umumiy pedagogika** – ta’lim muassasasi yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalarini o’rganadi.

2. **Ta’lim muassasasigasha ta’lim pedagogikasi** – ta’lim muassasasigasha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o’rganadi.

3. **Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi** – boshlang’ish sinflar talabalarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o’ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o’rganadi.

4. **Korreksion (maxsus) pedagogika** – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo’lgan bolalarni tarbiyalash va o’qitish bilan bog’liq muammolarni o’rganadi.

O'z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohalari kiradi. Ular quyidagilardir:

Surdopedagogika va surdopsixologiya – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Tiflopedagogika va tiflopsixologiya – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Logorediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi – nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlar bo'lgan bolalar (ko'r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

5. **Metodika** – xususiy fanlarni o'qitish xususiyatlarini o'rganadi.

6. **Pedagogika tarixi** – ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda etakshi o'rinnegallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.

7. **Pedagogik texnologiya** – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

8. **Pedagogik mahorat** – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

9. **Ta'limni boshqarish** – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o'rganadi.

10. **Ijtimoiy pedagogika** – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab

shiharish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol tortirish imkonini beruvshi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvshi, maqbul. Ayni vaqtida samarali bo'lган metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda shuqur, ruxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'ekti va sub'ektiv omillarini aniqlovshi pedagogik jarayonning ishki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtida O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayondlarning umumiy aloqasi, ularning izshil, uzlusiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologiik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriylarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvshi, izchillik, uzlusizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lган jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbliji va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob'ektiv yondashuv;

5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalg etiluvshi resrondentlarning yosh, psixologiyik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;

6) tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini bashoratlash;

7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lif muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rghanish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida ta'lif muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rghanish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkishlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzliksiz, izshil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lif-tarbya sifatini oshirish, talaba shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinshiklab o'rganish;
- 5) xulosa shiharishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning eshimini torishga imkon beruvshi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo eshimiga jalg etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida resrondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvoiq:

- 1) maqsaddan kelib shiqqan holda suhbat uchun belgilanuvshi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokshilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lisch;
- 5) suhbatdosh bilan samimiyl munosabatda bo'lisch;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingen ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'r ganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagisha bo'ladi:

1) ochiq turdag'i savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdag'i savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;

3) anketa savollari talabalarning dunyoharshi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovshi vaqt ni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa talabalarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvshi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvshi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rGANISH, bu boradagi faollilik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta’lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvshi hujjatlar quyidagilardan iborat: o’quv mashg’ulotlarining jadvali, o’quv dasturi, guruh jurnallari, talabalarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig’ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta’lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o’quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta’lim muassasasi jihozlari (o’quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo’nalishlarda o’quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, talabalarda hosil bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar hajmi, ilg’or pedagogik tajribalar mazmunini o’rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yisha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:


- 2) ochiq turdag'i savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdag'i savollar (resrondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).
- 3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqli. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yisha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonshi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'naliishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotinsha “sinab ko'rish”, “tajriba qilib ko'rish”) metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:



Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

- 1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- 2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
- 3) tadqiqot obyektlari vv usullarining to'g'ri tanlanishi;
- 4) tajriba o'tkazilish vaqt hamda davomiyligini aniqlanishi;

5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;

6) tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishslash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiyl xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab shiqiladi.

Matematik-statistik metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiyl holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovshi ko'rsatkishlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. YAkuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovshi asosiy ko'rsatkish hisoblanadi. Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlar olib borishda Styudent, Ko'virlyag, Rokish, V.R.Besralko hamda V.V.Greshixin metodlaridan keng foydalanimoqda.

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN KO'RSATMALAR

Mustahkamlovchi savollar :

1. Jamiyat va olam rivojida pedagogika fanining mohiyati nimalardan iborat?
2. Inson komilligiga erishishda tarbiyaning o'rni qanday?
3. Barkamol shaxsning yetishtiruvchi asosiy omillar haqida nimalar bilasiz?
4. Yoshlarning insoniy sifatlari nimalardan iborat bo'lishi kerak?

1-topshiriq.FSMU texnologiyasi asosida “Tarbiya tuchunchasining ahamiyati” mavzusi tahlil qilinadi.

Mashg'ulot jihizi: varaqlar, vatman qog'ozlar, marker ruchkalar, skotch.

O'tkazish tartibi:

F - fikr

S - sabab

M - misol

U - umumlashtirish

1- bosqich.Talabalar avval yakka tartibda FSMU texnologiyasi talablarini mavzu bo'yicha o'z fikr mulohozalarini yozma bayon qiladilar.

2-bosqich. Talabalar kichik guruhchalarga bo'linadilar.

3-bosqich. Kichik guruhlarda ishtirok etayotgan har bir talaba o'zi avval yozgan fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtiradi. Guruh a'zolarining fikrlar o'r ganilgach, fikrlar umumlashtiriladi. Guruh a'zolari FSMUning 4 bosqichining har biri bo'yicha fikrlarni umumlashtirib, katta vatman qog'ozga yozadilar va uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar.

4-bosqich. Kichik guruhdagi vakillardan biri vatman qog'ozni doskaga skotch bilan yopishtiradi.

5-bosqich. Har bir guruho'zları kelgan xulosalarni umumlashtirib, taqdimot o'tkazadi.

6-bosqich. O'qituvchi mashg'ulotga yakun yasab, quyidagi savollar bilan murojaat qiladi

- a) ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz?
- b) ushbu texnologiya o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?
- v) trening o'tkazilish jarayonida qanday yutuq va kamchiliklarga yo'l qo'yildi?
- g) bu treningni yana qanday tartibda o'tkazish mumkin?

7-bosqich. O'qituvchi mashg'ulotda faol ishtirok etgan talabalarga minnatdorchilik bildiradi.

2-topshiriq. "Tarbiya mening nazarimda" mavzusida referat yozishga tayyorlanish uchun manbalar to'plash. Referat himoyasiga ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

Tanishuv

Talabalar haqida birlamchi ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida anketalashtirish o'tkaziladi:

Ism – sharifingiz

Tug'ilgan yil, oy, kun

Eng sevimli fanlaringiz?

Eng yoqtirgan mashg'ulotlaringiz?

Hayotda asosiy maqsadingiz nimadan iborat?
Ko'nglingizga eng yaqin inson kim? Nima uchun?
Qiynalgan vaziyatlaringizda nima bilan yoki qanday ovunasiz?
Iroda kuchini qanday ta'riflaysiz va u inson hayotida qay darajada muhim?
Ziyoli, o'qimishli odamni qanday fazilatlarga ko'ra ajrata olasiz?
Insonning kuchi va go'zalligi nimada deb o'ylaysiz?
Mukammal insonni qanday tasavvur qilasiz? Sizningcha u qanday sifatlarga
ega bo'lishi kerak?
Inson o'zini baxtliman deb his qilishi uchun nimalar asos bo'lishi mumkin?
Hayotda qaysi shiorga amal qilasiz?
O'qish samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va
talabalarning o'quv motivlarini kuchaytirish maqsadida qanday ishlar, yangiliklar
amalga oshirilishi kerak deb o'ylaysiz?

“Nazariya va amaliyot” didaktik o'yini

Talabalarning savollar bera olish mahoratini aniqlash va rivojlantirish
maqsadida “Nazariya va amaliyot” didaktik o'yini o'tkaziladi.

Maqsad: Talabalar o'z qiziqishlarini, fikrlarini aniq, to'la bayon etishga
erishish va shu asosida mazmundor, turg'un qiziqishni shakllantirishni
rejalashtirish

Reja:

1. Eng yaxshi savol
2. Eng yaxshi javob

Kutiladigan natija: Talabalarning o'quv faoliyatidagi ichki motivlari
mantiqiyligini, aniq savollar bera olish va xuddi shunday tarzda javoblar qaytarish
malakasini rivojlantirish.

Mashg'ulotning borishi.

Talabalar ikki guruhga bo'linadi. 1-guruh – nazariyotchilar - fanning nazariy asosini ishlab chiquvchi olimlar. 2-guruh – amaliyotchilar – fanning amaliy qismini ishlab chiquvchi olimlar.

O'qituvchi ishtirokchilarni yo'llanma bilan tanishtiradi: "Tasavvur qiling, sizlarni fanning har xil yo'naliishlari bo'yicha tadqiqot olib boruvchi o'qituvchilar ishtirok etadigan o'yinda ishtirok etishga taklif etishdi. Bir tomonda fanning nazariy asosini ishlab chiquvchi o'qituvchilar chiqadilar, ikkinchi tomonda amaliyotchilar, ya'ni nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etuvchilar turadi".

Guruhrar navbat bilan o'zлari tanlagan fan sohasi bo'yicha savol-javob o'tkazadilar. Nazariyachilar amaliyotchilarga fanning amalda qo'llanilishi haqida, amaliyotchilar esa nazariyachilarga fanning nazariy asosi bo'yicha savollar beradilar. Bu jarayonda o'yinni olib boruvchi (o'qituvchi) hakamlar hay'ati sifatida ishtirok etadi. Talabalar tomonidan berilgan eng yaxshi savol va eng yaxshi javob munosib taqdirlanadi. Eng yaxshi javobni baholash mezoni: aniq, to'g'ri, shaxsiy fikr, asoslanganlik.

Toiflash jadvali

Toiflash jadvalini tuzish qoidasi:

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini - guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo'la qolsin.

Topshiriq: Pedagogika fanining tuchunchalarini "Toiflash jadvali" bo'yicha ishlab chiqing.

Tuchunchalar

Anketa-test	Shaxs
Tarbiya	Ilmiy adabiyotlar bilan ishslash
Maxsus pedagogika	Eksperiment-tajriba
Pedagogika tarixi	Kasbiy pedagogika

Kuzatish Umumiy pedagogika	Bilim, malaka, ko'nikma Yoshga oid pedagogika
----------------------------------	--

Topshiriq blankasi

Asosiy kategoriyalar	Ilmiy-tadqiqot metodlari	Tarmoqlari

Bajarilishi:

Asosiy kategoriyalar	Ilmiy-tadqiqot metodlari	Tarmoqlari
Tarbiya	Kuzatish	Umumiy
Ta'lim	Anketa-test	pedagogika
Shaxs	So'rov	Maxsus pedagogika
Ma'lumot	Matematik-statistik	Pedagogika tarixi
Bilim, malaka, ko'nikma	Ilmiy adabiyotlar bilan ishlash	Kasbiy pedagogika
Rivojlanish	Eksperiment-tajriba Faoliyatni o'rganish	Yoshga oid pedagogika

2-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMI

T A Y A N C H I B O R A L A R:

“Ta'lim to'g'risidagi Qonun”, ta'lim tizimi, boshqaruv, “Kadrlar tayyorlash milliy dastiri”, milliy model, Harakatlar strategiyasi, kadrlar raqobatbardoshligi, yuksak ma'naviyat egasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo'li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barro etishdan iboratligi e'tirof etilib, "ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish" davlat siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e'tibor yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvshi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi.

Respublikada ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo'naliшlari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" kabi me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan.

Demak, mavjud sharoitda Pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 1997 yil 29 avgustda 461-1 raqam bilan qabul qilingan. Qonun 5 bo'lim, 34 moddadan iborat :

- I. Umumiy qoidalar (1- 8 moddalar)**
- II. Ta'lim tizimi va turlari (9 19 moddalar)**
- III. Ta'lim jarayoni qatnashshilarini ijtimoiy himoya qilish (20-24 moddalar)**
- IV. Ta'lim tizimini boshqarish (25- 29 moddalar)**
- V. Yakunlovshi xulosalar (30 - 34 moddalar)**

Shu qonunning 5-moddasida quyidagi fikrlar bayon etilgan:

"5-modda. Redagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi
Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar redagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Redagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq, tanlov asosida amalga oshiriladi.

Redagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lif muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi."

Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldag'i 20-sod qaroriga ilova qilingan "Oliy ta'lif muassasalariga redagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom"ning II bo'lim "Lavozimlari tanlov bo'yisha egallanadigan redagog xodimlar va tanlov qatnashshilariga qo'yiladigan malaka talablari"ning 8-bandiga muvofiq "*O'qituvchi (assistant) lavozimini egallah uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo'yisha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, dirjomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.*"

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'ziga xos, takrorlanmas, tarixiy an'analarga asoslangan hamda bugungi kun talablariga to'la javob bera oladigan kadrlar tayyorlash milliy modeli va ta'lif islohotini to'la amalgam oshirish uchun bir qator qaror va farmoyishlar yaratildi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalarini amaliyotga tadbiq etish Respublika ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lif muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyashi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning asosiy tarkibiy qismlari. O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgash, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Totalitar boshqaruvi usuli asosida ish yuritilayotgan xalq ta'limi

tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'i - harakatlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun mazmunida Respublika ta'limi tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqishlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini tordi. Biroq, 1997 yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiqi tahlil etilganda bu borada muayyan kamshiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rnlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'limganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Xo'sh, "**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**" qanday hujjat? Uning mazmunida qanday g'oyalar ifoda etilgan?

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvshi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.


“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ilgari surilgan maqsadning to’laqonli ro’yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiylari hal qilinishiini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko’rsatiladi:

- “Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o’quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izshil rivojlantirishni ta’minlash;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, redagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko’tarish;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- ta’lim oluvchilarni ma’naviy axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o’tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;
- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko’rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovshi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- ta’lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;


- uzluksiz ta'lif va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” tarkibiy tuzilmasi quyidagicha aks etadi.



Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lif, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtaсидagi o'zaro aloqadorlik asosida “yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi” mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi



Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik va bog`liqlik

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o’ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to’qqiz yillik umumiyligini o’rta hamda ush yillik o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o’z navbatida umumiyligini ta’lim dasturlaridan o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga o’tilishiga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

I. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molshisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta’lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o’zlashtiradi, fan asoslarini ruxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o’zida ijtimoiy ta’sirlar yordamida ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o’zlashtirilgan bilim, faoliyat ko’nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo’lish uchun shaxs o’z oldiga muayyan maqsadni

qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgash, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va uz bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

II.Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvshi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvshi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

- fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarning ro'yobga chiqarilishiga;
- majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga;
- davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga;
- davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;
- ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatshilik boshqaruvini rivojlantirishga;
- ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga;
- sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lган shaxslarning ta'lim olishiga.

III. Uzluksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barsha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim va uning faoliyat ko'rsatish printsiplari, ta'limning ustuvorligi. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovshi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror torishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan:

- ta'limning ustuvorligi;
- ta'limning demokratlashuvi;
- ta'limning insonparvarlashuvi;
- ta'limning ijtimoiylashuvi;
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari ham aniq ko'ratib berilgan. Mazkur yo'nalishlar sirasiga quyidagilar kiradi: kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash; pedagoglarning kasbiy nufuzini oshirish; davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining turlarini rivojlantirish; ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish; ta'lim dasturlarini tubdan o'zgartirish; yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yisha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; ta'limning barcha daraja va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish; shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kushaytirish; ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish; ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish; uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish; chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish; tub yerli millatga mansub bo'limgan shaxslar zich yashaydigan joylarda ularning o'z ona

tillarida ta’lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzluksiz ta’lim quyidagi ta’lim turlarini o’z ichiga oladi:

- ***maktabgacha ta’lim;***
- ***umumiyl o’rta ta’lim;***
- ***o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;***
- ***oliy ta’lim;***
- ***oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim;***
- ***kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;***
- ***maktabdan tashqari ta’lim.***


Oliy ta’lim o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo’nalishlari bo’yicha xalq xo’jaligining turli sohalariga oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta’lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo’nalishi bo’yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim olish muddati kamida to’rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’lim.

Bakalavr darajasiga ega bo’lgan shaxs oliy ta’lim tizimi yo’nalishidagi o’zi tanlagan soha bo’yisha oliy ma’lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo’ladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo’yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta’lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’lim bo’lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma’lum ixtisoslik bo’yisha ta’lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas’uliyatli lavozimlarida faoliyat ko’rsatadi. O’zbekiston Respublikasida quyidagi turdagи oliy ta’lim muassasalari faoliyat ko’rsatadi:



Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiytadqiqot muassasalarida aspirantura, adyunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan olib borilgan yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomga ega bo'lish huquqini beradi.

Har ikki darajada ham maqsad muayyan mutaxassisliklar bo'yisha oliy toifali ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nkmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yurituvshi ta'lim muassasalarida amalga

oshiriladi. Bu muassasa tinglovshilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.

IV. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovshi va ulardan foydalanuvshi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasini yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangisha qarashlar zamirida yosh olimlarning, ilmiy-redagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeい va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi .

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi.

V. Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lган ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'naliishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish rirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarini tayyorlashni, guruhlarni va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi.

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste'molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab etishtirish yo'lida uzlusiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

Milliy model Konsepsiyasining mazmuni o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy an'analarini bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan "ma'rifatli inson" tushunchasi qo'llanilib kelingan bo'lib, u o'zida keng ma'noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma'rifatli bo'lish o'zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o'rinni tutuvshi omil sanaladi. Ma'rifatlilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni vaqtda chuqur ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

Harakatalar strategiyasining 4-bo'limi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" masalalariga qaratilgan.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy

rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning mактабгача та’лим билан qамраб оlinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o’rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo’lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o’rganish;

bolalarni sрort bilan ommaviy tarzda shug’ullanishga, ularni musiqa hamda san’at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sрorti ob’ektlarini, bolalar musiqa va san’at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o’quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo’yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta’lim va o’qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko’paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag’batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o’quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institatlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

AMALIY MASHG’ULOT UCHUN KO’RSATMALAR


Boshlang’ich bilimni nazorat qilish : Talabalarning boshlang’ich bilimlarini nazorat qilish yangi texnologiyalardan biri «Blits-so’rov orqali o’tkaziladi.

BLITS-SO”ROV savollari

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qachon qabul qilingan?
2. “Ta’lim to’g’risidagi Qonun” qachon qabul qilingan?
3. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun necha moddadan iborat?
4. 1- 8 moddalarda nima haqida fikr yuritiladi?
5. Ta’lim tizimi va turlari haqida qaysi moddada fikrlar berilgan?
6. Ta’lim jarayoni qatnashshilarini ijtimoiy himoya qilish haqida nimakar deyilgan?
7. Qoninnig 5-moddasida qanday fikrlar bayon etilgan?
8. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsadi nima?
9. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari qaysilar?
10. 2017-2021 yillarga mo’ljallangan Harakatlar strategiyasining mazmuni nimalardan iborat?
11. Harakatalar strategiyasining 4-bo’limida qanday fikrlar yuritilgan?
12. “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari” masalalari haqida nimalar bilasiz?

“Nima uchun?” texnologiyasi

“Nima uchun?” texnikasining sxemadagi ko’rinishi



1-Topshiriq O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonunini o’rganish

- 1.O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonunining asosiy maqsadi.


- 2.“Ta'lim to'g'risida”gi qonun qachon qabul qilingan?
- 3.Ta'lim sohasidagi Davlat siyosatining asosiy prinsiplari va ta'limning ustivorligini tuchuntiring.
- 4.O'zbekiston Respublikasida bilim olish huquqi qanday?
- 5.Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi bo'limini bilasizmi?
- 6.Ta'lim muassasasining huquqiy maqomini asoslab bering.
- 7.Davlat ta'lim standartlari qanday talablarni belgilaydi?
- 8.Ta'lim berish tili O'zbekistonda nimaga asosan tartibga solinadi?

“Klaster” metodi


Klaster tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalar sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

Topshiriq: O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimini klaster ko'rinishida ishlab chiqish.



Bajarilishi:



3-MAVZU. TARBIYA JARAYONING MAZMUN VA MOHIYATI.TARBIYAVIY TA'SIR ETISH USULLARI, VOSITALARI VA UNI AMALDA QO'LLASH SHAKLLARI

T A Y A N C H I B O R A L A R :

Tarbiya, tarbiya mazmuni, tarbiya jarayoni, tarbiya tamoyillari, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, xulq-atvor

Tarbiya maqsadi va vazifalari. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi,

xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlisha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko'lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvshi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Maqsadsiz, ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvshi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzARB masalalaridan biri sanaladi.

Tarbiya maqsadi umumiylari va individual xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogika umumiylari va individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi.

Maqsad tarbiyaning umumiylari ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo'naltiriladi hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan **vazifalar** tizimidir. Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko'lamiga ko'ra umumiylari va aniq vazifalar sifatida guruhanladi.

Tarbiya maqsadi qanday shakllanadi? Uning shakllanishida ko'rlab obyektiv sabablar yetakshi rol o'ynaydi. Organizmning fiziologik yetilish qonuniyatlari, insonning ruhiy rivojlanishi, falsafiy va pedagogik fikrlar yutug'i, ijtimoiy madaniyat darajasi maqsadga umumiylari yo'nalish beradi. Biroq asosiy omil doimo davlat mafkura va siyosati bo'lib qolaveradi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamонавиј fan-texnika asoslarini puxta o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, ko'rgina yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonunini hayotga joriy etish, ta'lif-tarbiya, sog'liqni saqlash hamda umumiyligi tibbiyot muammolarini zamon talablari darajasida olib borish, ta'lif muassasasilarni milliylashtirish, o'rta maxsus hamda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o'tkazish borasida amalga oshirilayotgan ijobjiy ishlar o'z samarasini bermoqda.

Jamiyat ma'naviyati va shaxs kamolotida muhim o'rinni tutuvshi ma'naviy va axlohiy roklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh avlodga oila, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan ta'lif-tarbiya mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va samarasini yotadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangisha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab shiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

Tarbiya mazmuni. *Aqliy tarbiya* – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda etakshi o'rinni tutadi.

Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o'zlashtirilishiga erishish;

- bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan faollikni kushaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o'rta ta'lif va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Muhammad alayhissalom o'z hadislarida; "Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoya borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayansh, yolg'iz damlarda yo'ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir" deydi.

Shuningdek, hadisi Sharifda "Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir" deydilar.

Alisher Navoiy o'zining "Farhod va Shirin" dostonidan Farhodning aqlidrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonrarvar, irodali va e'tiqodli bo'lganligini tasvirlaydi.

Jismoniy tarbiya talabalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularni to'g'ri jismoniy rivojlantirish;
- talabalarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammalashtirish;

- talabalarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- ularning irodaviy sifatlari (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlantirish;
- talabalarining gigiyenik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ularda ma'naviy-axloqiy sifatlar (dadillik, qat'iyatlik, intizomlilik, mas'uliyatlik, jamoa bilan bo'lism)ni tarbiyalash;
- talabalarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- talabalarining sog'lom va baquvvat bo'lishlariga erishish.

Jismoniy tarbiyani bolalarning ta'lim muassasasigacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqli. Jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlardan biri sanaladi. Sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari sharoitlarda tashkil etiluvchi jismoniy mashg'ulotlar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini ta'minlovchi qo'shimcha tadbir hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog'langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish vazifalarini hal etadi.

Demak, yuqorida ta'kidlaganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga da'vat etishdir.

Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini talabalar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir. Axloqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya asosini shaxsni ijtimoiy axloqiy me'yorlardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloq (lot. "moralis" - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllarida biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib torgan milliy urf-odatlar, an’ana va qadriyatlar mazmunida o’z ifodasiga ega bo’lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg’oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag’ay Ulug’bek, Abdurahmon Jomiy, Sa’diy Sherziy Alisher Navoy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o’z ifodasini torgan.

Amir Temur axloqi husniya – yaxshi xulqlar egasi bo’lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik vaadolatsizlikka yo’l qo’ymagan, balki yetti o’lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy “Axloqning yaxshi bo’lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to’rt xislatni Olloh Taolo senga bergen bo’lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo’lsang ham, zarari yo’qdir”, degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo’g’in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvshi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiliği, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg’on kitobdir.

Xuddi shu ma’noda axloq kishining xulq-atvori, e’tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo’ladi. Axloqli inson o’zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo’ladi. Suhbatdoshning ko’ngliga qarab gapiradi, kishining dilini og’ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiysi sanaladi. **Mehnat tarbiyasi** shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat

yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, talabalarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqr anglatishdan iboratdir.

Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shaxsda ma'naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat – kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Xalqimizning “Mehnat – mehnatning tagi rohat”, “Bugungi ishni ertaga qoldirma”, “Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar”, “Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi”, “Mehnatdan qo'rqlama, minnatdan qo'rqlama”, “Odamning husni mehnat” kabi maqollar beziz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahouddin Naqshbandning “Dil ba yoru, dast ba kor” degan hikmati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Allomaning fikricha, “Agar kishi hunarli bo'lса, u bilimini haqiqatga bag'ishlaydi, o'z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo'lmasa, bilimini kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi”.

Ta'kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik inson ruhiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda do'stlik, birodarlik, jamoa bo'lib ishslash kabi barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Eng muhim, mehnat muhtojlik, bekorchilik, axloqiy jihatdan buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o'zining va o'zgalarning qadrini biladi.

Ajdodlarmiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga o'rgatish, kasbhunarga qiziqtirishga alohida e'tibor berishgan. O'zlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna bo'lganlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidalaganidek: “Har bir insonning, ayniqla, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni, bu narsa ularning sobitqadam, g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorliliga va cheksiz

mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab etishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimizning ravnaq torishining asosiy shartidir”.

Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-onas, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik o'z mehnatini ayamasliklari, ayniqsa, ta'lismuassasasi talabalarida mehnatga va mehnat ahliga to'g'ri munosabatni shakllantirishdagi mas'uliyatni chuqur his qilishlir kerak.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya: lot. “estezio” – “go'zallikni his etaman” ma'nosini bildiradi) shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishni o'rgantish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go'zalliklari va ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish;
- shaxsda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go'zalliklarini anglash va idrok qilish qobiliyatini tarbiyalash,
- unda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish;
- go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror tortirish, bu boradagi qobiliyat va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lismuassasalarida musiqa va tasviriy san'at darslari, adabiyot kabi fanlarning o'qitilishi estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish vositasi hisoblanadi.

Estetik tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigasha amalga oshiriladi. Shu sababli, u nafaqat ta'lismuassasasida, balki ta'lismuassasasidan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvsci tadbirlarda, turli anjumalarda yosh avlodni go'zallik va nafosatni his etishga undovchi vositadir.

Xalqimizda, “Oq bo’lmasin, pok bo’lsin”, “Pokliging – sog’lig’ing”, “Sog’ yuray desang, ozoda bo’l”, “Yaxshi libos tanga oroyish” kabi maqollari bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyatdagi go’zalliklarini ko’ra bishiga, ularni qadrlashga o’rgatib kelishgan.

Estetik tarbiya faqat narsa va hodisalarining mohiyatini anglash, go’zal jihatlarini ko’ra bishnigina emas, balki ishki go’zallikni his qilish xislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go’zallikni qadriga etishga undaydi.

Alisher Navoiy o’zining “Farhod va Shirin” dostonida Shirinni zohiriylarini va botiniy go’zallik sohibasi sifatida tasvirlaydi. Bilamizki, uning bu darajaga yetishishda xolasi Mehribonuning tarbiyaviy ta’siri katta bo’lgan. Shirin mamlakat obodonshiligi, kanal qizish, suv chiqarish kabi ishlarda ishtirok etadi va usha xayrli ishlarga rahbarlik qiladi.

Shirin eng og’ir damlarda ham Farhodga vafodor, sadoqatli, irodali yor bo’lishi bilan birga tadbirli murabbiya, odil va donishmand davlat arbobi, komila, oqila va fazilatli, latofatli qiz edi. Shirinning bu fazilatlari minglab qizlarga o’rnak bo’lib keldi va bundan keyin ham shunday bo’lib qoladi. Estetik tarbiya tomonidan amalga oshiriluvshi vazifalarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) talabalarga nazariy estetik bilimlarni berish;
- 2) ularda amaliy estetik ko’nikmalarni shakllantirish.

Nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash asosida talabalarda quyidagi holatlar ko’zga tashlanadi:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo’lish;
- estetik tuyg’uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go’zalliklarini his etishi;
- go’zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;

- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat hamda tashqi ko'rnishda go'zal bo'lishga intilish.

Estetik faoliyatga kirishish vazifasi har bir tarbiyalanuvchining tasviriy san'at, musiqa, xoreografiya to'garaklarida faol ishtirok etishi, ijodiy birlashmalar, guruhlar, studiyalar va hokazolarda qatnashishini nazarda tutadi.

Biroq, hozirgi zamon ta'lif muassasalarida tashkil etilayotgan estetik tarbiya shaxsni estetik jihatdan shakllanishini ta'minlash borasidagi mavjud talablarga javob bermayarti.

Ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining mohiyati. Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni_o'qituvchi va talaba (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvshi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va talabalarning faoliyalari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiya jarayoni ko'r qirrali jarayon_bo'lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvshi ishki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, obyektiv omillar esa shaxsning hayot keshirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo'nalishi, shakli hamda obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki talabaning yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Ta'lif muassasasi tarbiyasi shaxs ongi,

dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirshan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni talabalik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni talabalar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. Talabalarda ijobjiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim muassasasi yoshidagi bolani tarbiyalashda ta'lim muassasasi yetakchi o'rinni egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma'lum muddatgina ta'lim muassasasi, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy qismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'til davrlarida talabalar ta'lim muassasasi, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, ta'lim muassasasida bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta'siri va nazoratidan uzoqlashadilar.

Talabalarga nisbatan ta'lim muassasasi (ta'lim muassasasi)ning ta'sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari hamda ta'til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor beriladi.

Ayni vaqtda, respublikada talabalarning ta'lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'shimsha ta'lim muassasalarida talabalar xususiy fanlar va xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari, texnika va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimsha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko'rgazma, ko'rik va suhbatlar talabalarning tafakkur

dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o’rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g’oyasi amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o’zlashtiriladi. Shu bois pedagogik ta’sir ham yaxlidir, tizimlilik xarakteriga ega bo’lishi mumkin.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi o’qituvchi bilan talabalar o’rtasidagi hamkorlikni ehtiyojkorlik bilan qaror tortirishi talab qiladi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo’nalishda, ya’ni, o’qituvchining talabaga nisbatan ko’rsatadigan ta’siri (to’g’ri aloqa) hamda talabaning o’qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tishkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g’oyasiga muvofiq endilikda talaba tarbiya jarayonining obyektigina bo’lib qolmasdan, subyektiv sifatida ham faoliyat ko’rsatadi. Shuning uchun o’qituvchi talabaning ishki imkoniyatlari, unga nisbatan bo’layotgan tashqi ta’sirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi.

Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati – tarbiyada **qarama-qarshiliklarning mavjudligi** kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar talabalarda o’z tushunchalariga muvofiq raydo bo’lgan dastlabki sifatlar o’rtasida yoki talabalarga qo’yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o’rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko’rinsha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo’lmasligidan, o’qituvchi va tarbiyachilarining talabalar yosh va shaxsiy Psixologik xususiyatlari (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog’lomligi)ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etidi:

- 1) aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon;
- 2) ko'r qirrali jarayon;
- 3) uzoq muddatli jarayon;
- 4) yaxlit tizimlilik jarayon;
- 5) ikki tomonlama aloqa jarayoni;
- 6) qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib tortirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib tortirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlichcha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib shiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlichcha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda obyektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidur". Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi hussiyish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgash, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlarning asosiyligi respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib,

tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va talaba (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtaida tashkil etiluvshi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lган ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarни olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Tarbiya jarayonida talabaning ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulhiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun talabaning ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U talabalar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali talabalarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat talabalar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Bola o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiyl ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvshi kushi,

tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat.


Tarbiyada talabalarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni engillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri – talabalik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish muhimdir. Aks holda xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin.

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo'ladi.

Umumiy pedagogika jarayonida tarbiya muhim o'rinni tutadi. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rinni tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagisha aks etadi:



Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Tarbiya jarayonining natijasi. Tarbiyaning natijasi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyuştirish va rahbarlik, shuningdek, talaba shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatilishini taqozo etadi. Bu jarayonda pedagogi yetakchi rol o'ynaydi. Chunki u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari mohiyatini tuchunadi, maqsad yo'lida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakl, metod va vositalarini asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiya jarayoniga tatbiq etadi.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda, ilmity tahlil qilish mumkin.

Shaxs tarbiyaning natijasi sifatida shakllanadigan ijtimoiy mavjudotdir.

Shaxsnинг ko'pdan-ko'p xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya jarayonida bolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit ravishda rivojlanadi.

Bola o'sib va rivojlanib borgani sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqlashib boradi.

Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izshil ravishda aqliy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya berish, talabalarning ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruqli va ommaviy shakllarini qo'shib olib borilishini ta'minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim g'oyalariga amal qilishni talab etadi.

Ijtimoiy tarbiya jarayoni shaxsnинг ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, uning atrof-tevarak, jamiyat, odamlar hamda o'ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va uni kengaytirishga qaratilgan. Shaxs ishtirok

etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi.

O'z tabiatiga ko'ra tarbiya jarayoni ko'r omilli xarakterga ega. Ya'ni, bola shaxsining qaror topishi oila, ta'lim muassasasi, jamoatshilik, ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi, bevosita va bilvosita ta'sirlar ostida ro'y beradi.

Tarbiya jarayonining natijalari odatda bir xil xarakterda bo'lmaydi. Bu narsa talabalarning psixologik (individual, tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlari, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasi, shaxsiy pozitsiyasiga bog'liq.

Tarbiya jarayoni, odatda, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi.

O'zini o'zi tarbiyalash shaxsni o'zida ijtimoiy qadrga ega bo'lgan fazilatlarni hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan ishki faoliyat sifatida ta'riflanadi.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ishki faoliyati jarayonidir. Bola xulqidagi "og'ish"lar oiladagi nosog'lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo'l qo'ygan xatolari, o'qituvchi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulqni hosil qilgan sabab, sharoit o'zgartiriladi, qayta tarbiyalashda ta'lim muassasasi va shaxsning shaxsiy ta'sirini oila, shu jumladan, ota-onha ham ma'qullashi lozim.

Demak, qayta tarbiyalash talabaning o'zigagina emas, balki uning otaonasiga ham qaratilishi lozim.

Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtida yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

- a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib tortirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish;
- b) talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;
- v) umuminsoniy axloq me'yordari (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat,adolatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, talabalarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;
- g) talabalarda huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg'usi, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror tortirish;
- d) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib tortirish;
- j) vatanrarvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burshlarini kansitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;
- z) mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rganish;
- i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burshlarini hurmat qilishga o'rgatish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiyligi vazifalari ana shulardan iborat.

Shu bilan birga ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari – axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning xususiy maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar amalga oshiriladi. Chunonchi,

1) axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – talabalarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qilolar)ga nisbatan hurmat hissini qaror tortirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish;

2) aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish shog'ida - talabalarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashini rivojlantirish;

3) jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida – talabalarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularda yangi harakat to'rlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, talabalarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda va xarakterni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigienani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash;

4) estetik tarbiyani olib borish jarayonida – talabalarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatları, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish;

5) ekologik tarbiyani olib borish shog'ida – talabalarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini talabalarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish;

6) iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – talabalarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamalakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod qilingan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirish borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish,

iqtisodiy madaniyatni shakllantirish;

7) huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarga davlat Konstitusiyasi, davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish, ular ogiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni singdirish, huquqiy munosabatlar mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarini hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish;

8) g'oyaviy-siyosiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – talabalarga siyosiy bilimlarni berish, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, fuqarolik jamiyatni asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida talabalarda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish va hokazolar.

Tarbiya tamoyillari. Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lган bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvshi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. ***Tarbiya maqsadining aniqligi.*** O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'qrisida"gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" g'oyalariiga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lган komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa - bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlari, ya'ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy,

estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

2. **Bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati.** O'qituvchilarning bolalar bilan ma'naviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunasini izlash, shu asosida tarbiyachi ishining hayotiy me'yor va qadriyatlarini aniqlash talabaning tarbiya jarayonidagi faolligini ta'minlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

3. **O'z-o'zini anglash.** Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy rozisiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri – bu insonning hayotiy o'z-o'zini anglashi, uning o'z shaxsiy hayoti va faoliyatining subyekti sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

4. **Tarbiyaning shaxsga yo'naltirilganligi.** Mazkur g'oya ta'lim muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, ularning shakl, metod va vositalari emas. Balki talaba turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos xarakteri, o'z qadr-qimmatini anglash tuyg'ulari rivojlantirilib borilishi zarur.


5. **Ixtiyoriylik.** Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror tortirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham talaba, ham o'qituvchi ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi talabaning qiziqishi, faoliyati, o'rtoqlik va fuqarolik burchini anglash, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'ra va anglay olsagina uning irodali ekanligi ayon bo'ladi. Tarbiyalanuvchining irodali bo'lishi ta'minlangan sharoitda uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida samaraga erishiladi.

6. **Jamoa yo'nalishi.** Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobjiy munosabatni qaror tortirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsni har tomonlama kamoloti, uning dunyoni anglash, uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va

o'zaro hamkorlik tuyg'ularini yuzaga kelishi va rivojlanib borishi kabi holat amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchiga: inson aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy, siyosiy-g'oyaviy, iqtisodiy, ekologik hamda diniy tarbiya olishi lozimligini uqtirishining o'zigina kam samara beradi. Talaba uchun yuqorida qayd etilgan tarbiya yo'naliшlarining nima uchun kerakligi, ularning insonga nima bera olishi kabi masalalar qiziqarlidir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tarbiya tizimida muammoning mana shu jihatni birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Yuqorida qayd etilgan g'oyalar to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayonda – yetuk fuqaro, malakali mutaxassis hamda barkamol oila sohibini tarbiyalab voyaga yetkazish uchun xizmat qilishi lozim.

Zamonaviy tarbiya mazmuni va ularda ilgari surilgan g'oyalar yaxlit tarzda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



Tarbiya qonuniyatları. Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning eng muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero,

tarbiya jarayonida o'qituvchi va talabalarning bиргаликдаги faoliyatлари tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Yagona maqsadga erishish yo'li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini tavsiflaydi.

Tarbiya jarayoni ko'r qirrali jarayon bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvshi ishki va tashkil (subyektiv va obyektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunday muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki talabaning yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yoki yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turli-tuman qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiya shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta'sirshan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni talabalik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini talab etadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Ta'lim muassasasida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu – o'qituvchi va talabalarning bиргаликдаги uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. Talabalarda ijobiy sifatlarni qaror tortirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvshi, boyitib boruvshi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatshilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga

muvofiqdir.

Bolani tarbiyalashda ta'lim muassasasi yetakchi o'ren egallasa ham, bolalarga uzlusiz tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olmaydi, chunki, bolalar ma'lum muddatgina ta'lim muassasasida, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtining asosiy qismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Talabalarga nisbatan ta'lim muassasasining ta'sirini susaytirmaslik maqsadida sinfdan, ta'lim muassasasidan tashqarida va ta'til davrida ham tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor beriladi. Ana shu maqsadda bir qator tarbiyaviy ishlar olib boriladi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – bu uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlarini birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki. Shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarni navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtira boradi, shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilish, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni qaror tortirishni talab etadi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati shundan iboratki, bu jarayon ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi.


Ikki tomonlama aloqa ikki yo'naliishda, ya'ni, o'qituvchining talabaga ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda talabaning o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyasiga muvofiq, endilikda talaba tarbiya jarayonining obyektigina bo'lib qolmasdan, subyekti sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi talabaning ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar va axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlr samarasiz yakun toradi. Mana shundan tarbiya

jarayonining yana bir xususiyati – tarbiyada qarama-qarshilikning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qaram-qarshiliklar talabalarga o’z tushunchalariga muvofiq raydo bo’lgan dastlabki sifatlar o’rtasida yoki talabalarga qo’yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o’rtasidagi ziddiyatlarning kelib shiqishi uchun zamin yaratadi.

Undan tashqari bu qarama-qarshiliklar ko’pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo’lmaslididan, o’qituvchi va tarbiyachilarning talabalar yosh, Psixologiik, fiziologik xususiyatlari (fe’l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog’lomligi)ni yaxshi bilmasliklari oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o’zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:



Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda mavzuga quyidgisha xulosa qilish mumkin:

1. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o’stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo’lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo’lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo’lga qo’yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darjasи, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini shuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN KO'RSATMALAR

Boshlang'ich bilimni nazorat qilish : Talabalarning boshlang'ich bilimlarini nazorat qilish yangi texnologiyalardan biri “**Aqliyhujum**” orqali o'tkaziladi.

O'tkazilish tartibi:


Quyidagi savollar tartib bilan talabalar muhokamasiga qo'yiladi:


1. Tarbiya Siz uchun qanday ahamiyatga ega?
2. Tarbiyalni inson deganda kimlarni tushunasiz?
3. Tarbiyaning qanday turlari mavjud deb hisoblaysiz?
4. Yomon xulqli insonlarni qayta tarbiyalash mumkinmi?

Savollarga olingan javoblar o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

“Nima uchun?” texnologiyasi

“Nima uchun?” texnikasining sxemadagi ko'rinishi





1-topshiriq. Quyidagi pedagogik masalalarni noan'anaviy usul “**Bahs-munozara**” asosida tahlil qiling.

O'tkazilish tartibi

1-bosqich. Talabalar kichik guruhchalarga bo'linadi. Har bir guruh o'z sardorlarini tanlashadi.

2-bosqich. Guruh sardorlari pedagogik masalalar yozilgan kartochkalarni tanlab oladi.

3-bosqich. Guruh a'zolari belgilangan vaqt mobaynida masalalarni birga tahlil qiladilar.

4-bosqich. Har bir guruh o'zlari umumlashtirib, xulosaga kelgan fikrlarini himoya qilishga kirishadilar.

1- pedagogik masala

Besh og'a-inining uchinchisi biznes qilaman deb katta qarzga botib qoldi. Nihoyatda ahvoli tang bo'lgan uka akalaridan qarz so'radi. O'ziga to'q akalari qarzni qaytarib bera oladimi, yo'qmi deb unga qarz berishmadi. Uka nima qilarini bilmay, o'zini har tomonga urdi. Oxiri noiloj qaltis bir ishga qo'l urib, qamalib ketdi. Mahallada “Ukamning bolalarini biz boqyapmiz, hech narsaga muhtojlik joyi yo'q”, - deb akalari ko'kragiga urib yurishibdi.

Siz bunday vaziyatni qanday baholagan bo'lar edingiz?

2-pedagogik masala

Aka dars qilayotganda ukasi oyoq tagida “g’ing-g’ing”lab mashinasini o’ynayverdi. Akasi bir-ikki bor ukasiga boshqa uyga chiqib o’ynashini iltimos qildi. Ammo ukasi qulog solmadi. Jahli chiqqan aka ukasining mashinasini olib, eshikdan uloqtirdi. Bundan xafa bo’lgan uka “akam urdi”, - deb onasiga yig’lab bordi. Ona kichik o’g’lining gapiga ishonib “kap-katta yigit kichik bolani urdingmi?”- deb koyidi va bir shapaloq urdi. Bu holatni ko’rgan kichik o’g’il xursand. Ona ham kichik o’g’lining yo’zidagi tabassumidan boshi osmonga yetgan holda uydan chiqib ketdi. Masala ona tomonidan adolatli hal qilindimi?

3-pedagogik masala

O’ziga to’q otaxonning uch qiz, bir o’g’li bor edi. U kishi qariganida mehrni shu yagona o’g’lidan kutgan edi. Ammo kelini noboproq chiqib, ular otaxonga qarashmadi. Ikki katta qizi ham o’z oilalari bilan bo’lib, otadan xabar olmas edilar. Otaning kuniga kenja qizi yaradi. Oq yuvib, oq taradi, ko’nglini ko’tarishga harakat qildi. Otaxon olamdan o’tganlaridan keyin kenja qizdan tashqari hamma meros talashib, otaning yettisi o’tmasdan janjallashishdi.

Qo’yilgan muammoga Sizning munosabatingiz?

5-bosqich. Guruh a’zolarining fikrlari boshqa guruh a’zolari tomonidan to’ldirishi mumkin.

6-bosqich. Bahs-munozaradan olingan taassurotlardan olingan tarbiyaviy xulosalar umumlashtiriladi.

2-topshiriq.

1. Tarbiya turlari bo’yicha ko’rgazmali quollar tayyorlashni rejalashtirish.
2. Tarbiyaviy mavzular bo’yicha pedagogik masalalar to’plash.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

- 1.Qanday jarayonga tarbiya jarayoni deb aytildi, uning mohiyatini tuchuntirib bering.
- 2.Tarbiya qoidalarini izohlab bering.
- 3.Tarbiyaning pedagogik qonuniyatlarini aytib bering.
- 4.Tarbiya usullari necha guruhgaga bo'linadi, ularni sanab bering.
5. Tarbiyada o'z-o'zini tarbiyalash mexanizmlarini sanab bering.
6. Tarbiyaning qanday tarkibiy qismlari mavjud?
7. Qanday insonlarni komil inson deyish mumkin?
8. Sharq mutaffakkirlarining qanday tarbiyaviy fikr va qarashlarini bilasiz?

4-MAVZU: DIDAKTIKA TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA. O'QITISH TAMOYILLARI, METODLARI VA UNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

T A Y A N C H I B O R A L A R :

Didaktika ta'limga jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlarini, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlarini, ta'limga maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'limga jarayonini takomillashtirish yo'llari

Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va vazifalari.
Didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishi. *Didaktika* ((ta'limga nazariyasi, yunonsha didaktikos “o'rgatuvshi”, didasko “o'rganuvchi”) ta'limga nazariy jihatlari, ta'limga jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlarini, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlarini, ta'limga maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'limga jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Insonning faoliyatida o'qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'limga tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo'lganda ham va asosan

tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo’lganda ham shunday bo’lgan; keyinshalik ham, ta’lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, ta’lim muassasasi paydo bo’lganida ham shunday bo’lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta’limni nazariy tahlil qilish va o’rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o’z nazariyasiga ega bo’lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o’zgarishlar olib keldi: aynan o’sha raytda ta’lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika (ta’lim nazariyasi: yunonsha “*didaktikos*” “*o’rgatuvchi*”, “*didasko*” esa – “*o’rganuvchi*” ma’nosini bildiradi) ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatları, o’qituvchi va talaba faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari va hokazo muammolar)ni o’rganuvchi fan.

Bu so’z 1613 yili Germaniyada nemis pedagogii Wolfgang Ratke (1571-1635 yillar) tomonidan kiritildi.

Bu tushunchani shunga o’xshash usulda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) “Buyuk didaktika” nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy “didaktika bu faqat ta’limgina emas, balki tarbiyalash ham”, deb ta’kidlaydi. Mazkur asarda olim ta’lim nazariyasining muhim masalalari: ta’lim mazmuni, ta’limning ko’rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so’z yuritadi.

Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifikasi. Pedagogika fani ta’lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o’rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib ko’rsatadilar.

Hozirgi davrda didaktika o’qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi.

Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo’yicha ta’lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud.

Ularning mazmuni ta’limning ma’lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o’rganish va ta’lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o’qituvchi

didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur.

Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan. qarashlarning turlicha bo'lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq.

Ko'pchilik olimlar ta'lim obyekt deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatları, metodları va tamoyillarini ko'rsatadilar.

Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi - talaba, talaba – o'quv materiali, talaba - boshqa talabalar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Darhaqiqat, o'qish, o'rganishi ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta'limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat – ikki shaxs (talaba va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rganish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari talabaning bilimni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish obyekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyekti sifatida qaraydi.

Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (talabaning o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta’lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta’riflash va tushuntirish;
- ta’lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya’ni, ta’lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- ta’lim jarayoni uchun xos bo’lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta’riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o’zida me’yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta’limning mavjud jarayonlarini o’rganish, uning turli jihatlari o’rtasidagi bog’liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O’zlashtirilgan nazariy bilimlar ta’lim amaliyotini yo’naltirish, ta’limini jamiyat tomonidan qo’yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta’lim mazmunini anglab olish, ta’lim tamoyillari, ta’lim metod va vositalarini qo’llash me’yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me’yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tuchunchalar tizimi.

Muayyan fanga xos bo’lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to’plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

- 1) falsafiy tushunchalar;
- 2) xususiy ilmiy, ya’ni, muayyan fangagina xos bo’lgan tushunchalar.

Didaktika uchun “umumiy va alohida”, “mohiyati va hodisa”, “qaramaqarshilik”, “bog’liqlik” kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo’llaniladigan umumiy-ilmiy tushunchalar orasida “tizim”, “tuzilma”, “vazifa”, “element” kabilar alohida o’rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushuchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) **ta’lim** - talabalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo’naltirilgan jarayon;

- 2) **dars** – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan talabalar guruhi bilan olib boriladigan ta'lif jarayonining asosiy shakli;
- 3) **bilim olish** – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;
- 4) **ta'lif jarayoni** – o'qituvchi va talabalar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.
- 5) **o'quv fani** – ta'lif muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiyligi yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.
- 6) **ta'lif mazmuni** – davlat ta'lif standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yisha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada “*idrok etish*”, “*o'zlashtirishi*”, “*mahorat*”, “*rivojlanish*” va *boshqalar (psixologiya) hamda “boshqarish”, “qayta aloqa” (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo'lgan tushunchalar* ham qo'llaniladi.

Didaktikaning tushuchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to'ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta'lif, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lif maqsadi, ta'lif mazmuni, ta'lif jarayoni, ta'lif jarayonini tashkil etish, ta'lif turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lif natijasi.

So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriylar sirasiga ta'lifning didaktik tizimi va ta'lif texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

- 1) **bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui;

- 2) **bilim olish** – idrok etish, o’rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko’nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;
- 3) **ko’nikma** – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati;
- 4) **malaka** – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli;
- 5) **ta’lim** – talabalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo’naltirilgan jarayon;
- 6) **ta’lim metodlari** – ta’lim jarayonida qo’llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmui;
- 7) **ta’lim mazmuni** – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;
- 8) **ta’lim vositalari** – ta’lim samaradorligini ta’minlovchi obyektiv (darslik, o’quv qo’llanmalari, o’quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproyektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o’qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;
- 9) **ta’lim jarayoni** – o’qituvchi va talabalar o’rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon;
- 10) **ta’lim mazmuni** – davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo’yisha o’zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;
- 11) **ta’lim maqsadi (o’qish, bilim olish maqsadi)** – ta’limning aniq yo’nalishini belgilab beruvchi yetakchi g’oya;
- 12) **ta’lim natijasi (ta’lim mahsuli)** – ta’lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o’quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darjasи;

13) **ta’limni boshqarish** – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo’lga qo’yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash;

14) **ta’lim tizimi** – yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo’lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o’quv-tarbiya muassasalari majmui.

Ta’lim funksiyalari. “Funksiya” tushunchasi “ta’lim vazifalari” tushunchasiga yaqindir. Ta’lim funksiyasi ta’lim jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa ta’limning komponentlaridan biri hisoblanadi.

Didaktika ta’lim jarayonining quyidagi **uchta funksiyasini** ajratib ko’rsatadi: **ta’lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.**

Ta’lim berish funksiyasi ta’lim jarayonining talabalarda bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Ta’lim natijasi sifatida *bilimlarining to’laligi, chuqurligi, tizimliligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi* muhimdir. Bu kabi holatlar ta’lim jarayonining metodik jihatdan to’g’ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta’lim jarayonida talabalarda ular tomonidan o’zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko’nikma va malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

Ko’nikma – shaxsning muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka deganda muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashgan shakli tushuniladi. Umumiy ko’nikma va malakalarga og’zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalana olish, o’qish, manbalar bilan ishslash, referat yozish, mustaqil ishini tashkil etish kabilari kiradi.

Ta’limning *rivojlantiruvchi funksiyasi* ta’lim jarayonida bilimlarni o’zlashtirish jarayonida talabaning rivojlanishi sodir bo’lishini ko’rsatadi. Rivojlanish quyidagi yo’nalishlarda sodir bo’ladi: nutqi rivojlanishi, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy va ehtiyojsababli sohalari rivojlanadi. To’g’ri tashkil etilgan ta’lim shaxsni har doim rivojlantiradi, lekin o’qituvchi va talabaning shaxsiy har tomonlama rivojlanishiga

qaratilgan maxsus o'zaro munosabatlarida rivojlantirish funksiyasi yanada samaraliroqdir.

Ta'limning talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi "rivojlantiruvchi ta'lim" tushunchasi bilan ifoladanali. XX asr 60-yillaridan boshlab rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishga nisbatan turli yondoshuvlar yuzaga keldi.

Bularning hammasi ta'limni tashkil etish faqat bilimlarni shakllantirishga emas, talabani har tomonlama rivojlantirish (birinchi navbatda, aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, turlarga ajratish va boshqalarni kuzatish, xulosa chiqarish, obyektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirishni bilish malakasini rivojlantirish)ga xizmat qilishini anglatadi.

Ta'lim jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta'lim o'rtaсидаги bog'liqlik obyektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq shaxsni ta'lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oila, mikromuhit va boshqalar)ning ta'siri tufayli qiyin kechadi.

Tarbiyalash funksiyasi. Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyati turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Tarbiyalash funksiyasi ta'lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o'qituvchi hamda talabalar o'rtaсидаги munosabatlarni tashkil etish jarayonida yetakchi o'rin tutadi.

Ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi.

Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. Biroq, shuni ham e'tiborda tutish kerakki, barcha o'quv fanlari ham birdek tarbiyalovchilik imkoniyatiga ega emas. Gumanitar va estetik fanlarning bu boradagi imkoniyatlari yuqori.

Ta'lim jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va talabalarning munosabatlari, auditoriyadagi psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, talabalarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining

rahbarligi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika o'qituvchi va talabalar o'rtaсидаги муносабатning eng qulay usuli sifatida demokratik usulini e'tirof etadi. Bu usul ta'lism jarayonida talabalar shaxsini hurmat qilish, ularning xohish-istiklari, qiziqishlarini inobatga olinishini anglatadi.

O'qituvchi va talabalarining ta'lism jarayonidagi faoliyatları.

O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta'lism muassasasi (umumi o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lism muassasalari)da tashkil etiluvchi ta'lism jarayonida talabaning faoliyati o'qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi talabalarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Ta'lism jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) rejalarshirish;
- 2) tashkil etish;
- 3) boshqarish (rag'batlantirish);
- 4) nazorat;
- 5) natijalarini baholash va tahlil qilish.

O'qituvchi faoliyatini rejalarshirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konsrektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo'ladi. O'qituvchi talabalarning tayyorliklari darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materiali mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini o'ylab chiqishi kerak bo'ladi.

Talabalar faoliyatini tashkil etish talabalar oldiga o'quv masalalarini qo'yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'ladi.

Bilimlarni egallash bosqichlari

bilimlarini qo'llash

mustahkamlash

anglab yetish

idrok etish

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi. Talabalar o'quv idrok etish faoliyatlarini boshqarishga o'rganib olish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tuzilishini yaxshi tasavvur etish, talabalar tomonidan bilimlarning egallash bosqichlarini bilishi zarur: *idrok etish, o'quv materialini anglab yetish, mustahkamlash, amaliy faoliyatida bilimlarini qo'llash.*

Birinchi bosqich **idrok etish** hisoblanadi. Psixologiyadan ma'lumki, idrok etish aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shuning uchun birinchi navbatda talabalarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari (masalani qo'yish)ni tushuntirib berish kerak. Shu asosida o'quv materiali bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. U haqiqiy mavjud yoki hayoliy predmet, hodisa, vaziyatlarni kuzatish, mumkin bo'lgan tajribalarni o'tkazishdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich talaba qaysi hodisa va voqealarni, predmetlarni o'rganish haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lganida va o'quv masalasini tushunib yetganda yakunlanadi.

Ikkinshi bosqich – **o'quv materialini anglab yetish.** U ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni torish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialini xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib chiqish kerak. Bu vaziyatda bilimlar o'rtasidagi tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Unda talaba eng asosiy, ikkinchi darajali hamda qo'shimcha, tushuntiruvchi elementlarni ajratib ko'rsatsin. Talaba o'quv masalasini yechish usulini tushunsa, bilimlar o'rtasidagi tizimni anglab yetsa ushbu bosqich yakunlangan sanaladi.

Uchinshi bosqich – **eslab qolish va mustahkamlash.** Bu bosqich o’zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko’proq mashqlar, mustaqil reproduktiv va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo’ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlarda takrorlanadi. O’qituvchi talabalar topshiriqlarni tushunib bajarishlarini kuzatib borishi kerak. Ular matnlarni mexanik ko’chirib olishlari, torshiriqlarni bajarishlari, qoida va tushunchalarni chuqur anglab yetmay bajarishlari mumkin. Bosqich yakunida talabalar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani yechish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar. Ularda o’quv malakalari va ko’nikmalari shakllantirilgan bo’ladi.

To’rtinchi bosqich **bilim, ko’nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo’llashdan** iborat bo’ladi. Bilimlarini qo’llash o’rganilayotgan materialning mazmuni xususiyatiga qarab faoliyat turli shakllari va ko’rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bu o’quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot torshiriqlari, ta’lim muassasasi yer maydonidagi ishlar bo’lishi mumkin.

Ta’lim qonuniyatları va tamoyillari. O’quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiy va xususiy tarziga ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko’ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy, amal qilinishiga ko’ra faqat alohida tarkibiy qismlariga taalluqli bo’lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb ataladi.

I.P.Podlsiy ta’lim jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatlarini ajratib ko’rsatadi:

1. **Ta’lim maqsadi** quyidagilarga bog’liq: jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi.

2. **Ta’lim mazmuni** quyidagilarga bog’liq: ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati, talabalarning yoshi imkoniyatlari, ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o’quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari.

3. **Ta’lim sifati (samaradorligi)** quyidagilarga bog’liq: avvalgi bosqich mahsuldarligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o’rganilayotgan material xususiyati va hajmi, talabalarga tashkiliy-pedagogik ta’sir ko’rsatish hamda talabalarning bilim olishga qobiliyatlari va ta’lim vaqtini.

4. **Ta’lim metodlari** samaradorligi quyidagilarga bog’liq: metodlarni qo’llashda bilimlari va ko’nikmalari, ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, talabalarning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta’minot hamda o’quv jarayonini tashkil etish.

5. **Ta’limni boshqarish** mahsuldarligi quyidagilarga bog’liq: ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta’sir ko’rsatishlarning asoslanganligi.

6. **Ta’limni rag’batlantirish** samaradorligi quyidagilarga bog’liq: ta’limning ichki rag’batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag’batlari.

Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlar ko’rlab soni ma’lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik qonuniyatlar.

2. Gnoseologik qonuniyatlar. (*Gnoseologiya* (yunonsha – “gnosis” (“gnoseos”)- bilim, ong, o’rganish, logiya –fan, ta’limot) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatları)

3. Psixologik qonuniyatlar.

4. Kibernetik qonuniyatlar. (“qayta aloqa”)

5. Sotsiologik qonuniyatlar.

6. Tashkiliy qonuniyatlar.

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o’quv jarayonining umumiyligi maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang’ish qoidalardir.

Tamoyil (*yunonsha “principium”*) – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang’ish qoidasi; boshqaruvshi g’oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Ta’lim qonuniyatlari va tamoyillarining shakllanish tarixi. Ibtidoiy jamiyatda insoniyat o’sib kelayotgan avlodga mayjud bilimlarni uzatish asosida amaliy bilimlari asta-sekin shakllangan. O’sha davrdayoq ta’lim amaliy qoidalari ishlab chiqilgan va avloddan-avlodga uzatib kelingan.

Antik davrda asosan ajdodlar tajribasi an’analar tarzida umumlashtirilib, amaliy ta’lim masalalari hal etilgan. Platon va Aristotellar tavsiya hamda qoidalari to’rlami ko’rinishida amaliyotiy ta’lim mohiyatini umumlashtirishga uringanlar.

Sharqdagi Uyg’onish davrida (IX-XI asrlar) arab, musulmon madaniyatining Yaqin va Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyati bilan birlashishi asosida alohida *sinkretik (yunonsha synkretismos – birlashish, yaxlitlik, qo’shilish)* *madaniyat*_birlashgan turi yuzaga kelgan. Allomalar Muhammad al-Xorazmiy (787-850 yillar), Abu Nasr Forobiy (870-950 yillar), Al-Kindiy (800-870 yillar), Abu Rayhon Beruniy (973-1050 yillar), Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) va boshqalar uning asosshilari sifatida mashhur bo’ldilar. Bu madaniyatning asosiy markazlari Suriya, Eron, Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan. Sharq mutafakkirlari o’z asarlarida ta’lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta’lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar. Biroq ta’lim masalalari bilan ular maxsus va izchil shug’ullanmaganliklari bois maxsus didaktik nazariya yaratilmadi. Ta’limni ular fan sifatida emas, boshqa fanlarga o’rgatish san’ati, hunarmandchilik sifatida tushundilar. Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan qoida, usul va tamoyillarning aksariyati zamonaviy ta’lim muassasasilarda ham qo’llanilmoqda.

Quyidagi jadvaldan Sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslihiddin Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham *ta’limning ilmiyligi, ongliligi, ko’rgazmaliligi, tuchunararliligi, ketma-ketligi, muntazamligi, moslashuvshanligi va mustaqilligi, shuningdek, bolaning individual xususiyatlari, layoqati va*

qobiliyatlarini hisobga olish, ta'limni insonrarvarlashtirish kabi qoida va tamoyillarini ifoda etib bergenlari anglanadi.

XVII asrda pedagogika amaliy tabiatshunoslik sifatida biologiya qonuniyatlariga bo'ysunishi e'tirof etilgan. Pedagogikani tubdan to'la qayta qurishni chex olimi Ya.A.Komenskiy va ingliz pedagogii Djon Lokk amalga oshirdilar.

Ular pedagogik qonunlarining quyidagi ush jihatiga ko'ra guruhlaganlar:

1. Ijtimoiy-tarixiy.
2. Tabiiy-tarixiy.
3. Psixologiik.

Keyinchalik bir guruh ilg'or pedagogilar umumiyl tamoyillar bilan qanoatlanmay, didaktik qonuniyatlarini ifoda etishga uringanlar. Xususan, Ya.A.Komenskiy didaktikaning tematik belgilariga ko'ra guruhlangan quyidagi qoidalar tizimini ilgari surdi:

1. "Ta'lim va oson o'qishning asosiy qoidalari" ("Buyuk didaktika" - XVII bob);
2. "Tabiiy o'qish va ta'limning asosiy qoidalari";
3. "Fanlarga o'qitish san'atining to'qqiz qoidasi" (XX bob) va boshqalar.

Disterveg tomonidan asoslangan qoidalar soni 33 ta bo'lib, ular muayyan loyihalarga taalluqli ekanligiga ko'ra guruhlarga ajratadi (birinchi guruh – o'qituvchiga nisbatan, ikkinchisi – dars tashkil etilayotgan fanga nisbatan, ushinchisi – talabaga nisbatan va hokazolar tarzida). Shu bilan birga Disterveg mazkur qoidalarning ayrimlarini qonunlar ham deb ataydi.

Ta'lim tamoyillari. Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o'quv jarayonining umumiyl maqsadlari va qonuniyatlariga ko'ra tashkil etiluvchi ta'lim jarayonining tashkiliy shakl va metodlari, asosiy qoidalari mohiyatini belgilovchi mazmundir. Ta'lim tamoyillarida ta'limning aniq, tarixiy tajribaga asoslanuvchi me'yoriy asoslari (qidalari) o'z ifodasini torgan. Ta'lim tamoyillarini bilish o'quv jarayonini uning qonuniyatlarasi asosida tashkil etish, uning maqsadlarini asosli ravishda belgilash va o'quv materialini mazmunini tanlab olish, maqsadga muvofiq

ta’lim shakli va metodlarini tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga bu tamoyillar o’qituvchilar va talabalarga yaxlit jarayonning bosqichlariga amal qilish, o’zaro aloqalar va hamkorlikni amalgalashga imkon beradi.

Ta’lim tamoyillari o’zida tarixiylik xususiyatini namoyon etadi. Ta’lim nazariyasi va amaliyoti rivojlanib borgani, ta’lim jarayonining yangi qonuniyatlarini kashf etilishi bilan ta’limning yangi tamoyillari ham shakllanadi, eski ko’rinishlari o’zgardi. Bu ishlar bugungi kunda ham davom etadi. O’qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini aks ettiradigan yaxlit pedagogik jarayonning umumiyligi tamoyillarini keltirib chiqarishga urinishlar ko’zga tashlanmoqda.

Tamoyillar ta’lim jarayonining mohiyati, qoidalar esa uning alohida tomonlarini aks ettiradi.

Ta’limni **mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillaridan** tashkil torgan tizim sifatida e’tirof etish mumkin:

I. **Ta’limning mazmunli tamoyillari.** Ular ta’lim mazmunini tanlash bilan bog’liq bo’lgan qonuniyatlarni aks ettiradi va quyidagi g’oyalarni ifodalaydi:

- fuqarolik;
- ilmiyligi;
- tarbiyalovshi ta’lim;
- fundamentalligi va amaliy yo’nalganligi (ta’limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog’liqligi);
- tabiat bilan uyg’unligi;
- madaniyat bilan uyg’unligi;
- insonrarvarligi.

Fuqarolik tamoyili. Unga ko’ra ta’lim mazmunini shaxsning subyektivligini rivojlantirish, uning ma’naviyligi va ijtimoiy yetukligiga yo’naltirishda namoyon bo’lishi kerak. U ta’lim mazmunini insonrarvarlashtirishni nazarda tutadi va fuqarolikni anglash, O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi haqidagi tasavvurlar tizimi, o’zbek xalqi madaniyati psixologik xususiyatlari, uning mentalitet xususiyatlari, milliy siyosati va madaniyati kabi dolzarb masalalar haqidagi tasavvurlarining shakllanishi bilan bog’liq.

Ta’limning ilmiyligi tamoyili ta’lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to’plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta’lim vaqtida va o’qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta’lim mazmuni talabalarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo’naltirilgan bo’lishini talab etadi.

Ta’limning tarbiyalovchilik tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko’zda tutadi. Ta’lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, talabalarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog’liq.

Ta’limning fundamentalligi va amaliy yo’nalganligi tamoyili umuiy o’rta ta’lim ta’lim muassasasilaridayoq talabalar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o’tadilar. Mazkur holat an’anaviy didaktikada **ta’limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog’liqligi** kabi ifoda etiladi.

O’qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to’la va chuqur bo’lishini ko’zda tutadi. U odamdan yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko’rinishda bo’lishi, bilimlarini doimiy ravishda to’ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvshi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko’proq uning fikrlash layoqatiga bog’liq bo’ladi. Ta’limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o’zaro nisbatda bo’lishni talab etadi.

Ta’limning tabiat bilan uyg’unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy o’zining tabiatga uyg’un bo’lishi g’oyasini ifoda etib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta’lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligini ta’kidlaydi. Ertalabki soatlar mashg’ulotlarni bajarish uchun juda qulay hisoblanadi. Talabalarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi

ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Demak, tabiat bilan uyg'unlik g'oyasi asta-sekinlik, ketma-ketlik va mustaqil faoliyat kabi ta'lim tamoyilining asosi hisoblanadi.

O'zbek pedagogii Abdulla Avloniy ham (1878-1934 yillar) ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yishda tabiatga uyg'un bo'lishi g'oyasining davomchisi bo'lgan. O'zining "Turkiy guliston yohud axloq" nomli asarida bola shaxsining tabiiy mukammalligiga ishonch bildiradi. A.Avloniy bola tabiatan go'zallik va mehribonlik bilan uyg'unlikda tug'iladi deb yozadi. Allomaning fikricha, ta'lim va tarbiyaning vazifasi bola shaxsining rivojlanishi uchun yordam beruvchi sharoitlarni yaratishdan iborat.

Abdulla Avloniy bolani milliy madaniyat, vatanga muhabbat asosida tarbiyalash g'oyasining tarafdori bo'lgan, bu xususida allomaning asarlarida quyidagi fikrlar o'z ifodasini topgan: "... odam tug'ilgan va o'sib ulg'aygan shaharni va shu shahar joylashgan mamlakatni bu odamning Vatani deb aytadilar. Biz turkistonliklar o'zimizning quyoshli diyorimizni jonimizdan ham ortiq yaxshi ko'rshimiz kabi arablar o'z Arabistonini, ... eskimoslar esa o'zlarining Shimolini yaxshi ko'radilar" deb yozadi. A.Avloniyning fikricha, xalqparvarlikka asoslangan ta'lim va tarbiya yoshlarga vatanparvarlik namunalarini ko'rsatishga undashi kerak.

Ta'limda insonparvarlik tamoyilini bolaning shaxs sifatidagi qadr-qimmati, uning erkinligi hamda baxtli hayot kechirishini ta'minlash, uni rivojlantirishi, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, unga hayotda o'z o'rnini torishda yordam ko'rsatishi va hokazolarni nazarda tutadi.

"Insonparvarlik" va "odamiylik" so'zları yunoncha humanus "odamiylik" bir so'zdan kelib shiqqan. Insonparvarlik, odamiylik ma'naviy-axloqiy tushunchalardir. Insonparvarlik g'oyasi antik davr faylasuflari (Suqrot, Aflatun, Arastu va boshqalar) qarashlarida ilk bor ko'zga tashlanadi. Markaziy Osiyoda insonparvarlik g'oyalari Sharq Uyg'onish davrida keng rivojlandi. Abu Nasr Forobiyning fikricha, bolani eng avval o'qimishli, saxovatlari inson qilib tarbiyalash

kerak, zero, salbiy nuqsonlar bolalikdan paydo bo'ladi. Shu bois oilada tarbiyani yo'lga qo'yishda xato qilmaslik zarur.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy, demokratik jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda uzlucksiz ta'lim tizimi oldida barkamol, har tomonlama rivojlangan, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Mazkur vazifa ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish orqali ijobjiy hal etiladi. Bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish ularning taqdiri haqida qayg'urish, uning qobiliyatini ko'ra olish, unga ishonish, shuningdek, bolaning xatoga yo'l qo'yish, shaxsiy nuqtai nazarga ega bo'lish huquqini qadrlashni nazarda tutadi.

Ta'limning tashkiliy–metodik tamoyillari. Ta'limni tashkil etish metodikasi ta'lim mazmunini shakllantirish kabi erkin tanlanishi mumkin emas. Bu borada muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablarni inobatga olish zarur. Bunday talablar ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari deb yuritiluvchi tamoyillar mazmunida o'z ifodasini topgan:

- ta'limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi;
- ta'limda onglilik va ijodiy faollik;
- ta'limda ko'rgazmalilik;
- ta'limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
- ta'limning tushunarligi;
- guruhli va individual ta'lim birligi;
- ta'limning talabalar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi;
- pedagogik hamkorlik.

Ta'limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi tamoyili bilish bosqichlarining obyektivligini anglatadi.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunonsha partialis - qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va

hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lismi jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Muntazamlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'larning muntazamliligi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ishidagi bog'liqlikniga ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Onglilik va ijodiy faollik tamoyili. Uning asosini fanni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'luvshi qoidalar majmuini shakllantirish tashkil etadi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: ta'lism motivlari, talabalarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lism metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. Talabalarning faolliklari rerpoduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil talabalarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili ta'lismi jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limga inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. "Agarda biz talabalarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir nesha sezgilarini bilan o'rganilsin".

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi.

Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15 foiz, ko'rib qabul qilish esa – 25 foizni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida ularni bir vaqtida ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 foizgasha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda talabalarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning samaradorligi va ishonchliligi tamoyili. An'anaviy didaktikada u mustahkamlik tamoyili kabi ifoda etiladi. Agarda o'qitish jarayoni ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlamasa, u holda ushbu jarayonni tashkil etish zaruriyati yuzaga kelmaydi. Shu bois ta'lim samarali, shuningdek, rivojlantiruvshi va tarbiyalovshi xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Ta'limning ishonchliligi va mustahkamlilagini ta'minlash uchun talabalar o'qish jarayonida o'quv-o'rganish harakatlarining quyidagi to'la siklini o'zlashtira olishlari zarur: o'rganilayotgan materialarni dastlabki qabul qilish, uni shuqurroq anglab etish, eslab qolish, o'zlashtirilgan bilimlarini qo'llash bo'yisha ma'lum faoliyatni amalga oshirish, ularni takrorlash va tizimlashtirish.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarligi tamoyili talabalarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomon ta'sir etuvshi intellektual va emosional qiyinchiliklardan voz keshishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi talabalarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha talabalar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv jarayonini talabalarda qiyinchiliklarni yengish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish

tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko'zga tashlanuvshi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o'quv masalalarini eshishdagi ishonshsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

Guruhi va individual ta'limning birligi tamoyili shaxsning, bir tomondan atrofdagilar bilan munosabatda bo'lish, ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yishga intilishi, ikkinchi tomondan esa, yakka holda ta'lim olishga bo'lgan xohishini aks ettirishga xizmat qiladi. Muomala faoliyatning alohida turi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida boshqalar haqidagi tasavvur va tushuncha yuzaga keladi. Atrofdagilar bilan munosabatni yo'lga qo'yish o'zaro aloqalarning hosil bo'lishi va rivojlanishini, alohida bo'lish esa shaxsning ijtimoiylashuvi hamda rivojlanishini ta'minlaydi.

An'anaviy ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra guruhli hisoblanadi, zero, u 30-40 nafar talabalardan iborat o'quv guruh (yoki sinflarida tashkil etiladi. 100-200 nafar talabalardan iborat kurslarda esa ta'limga sarflanadigan harakatlarni kamaytirish maqsadida ma'ruzalar o'qish tashkil etiladi. Guruhli ta'lim munozara, muzokara tashkil etish uchun qulay sharoitga ega bo'lib, o'quv masalalarini eshishning eng samarali yo'llarini birgalikda izlashni ta'minlaydi, o'zaro yordam ko'rsatish uchun sharoit yaratadi, talabalarning mas'uliyat hissini oshiradi. O'quv muvssasalarida guruhli ta'limni tashkil etish jamoani shakllanirishning asosiy shakli sanaladi.

Ta'limning talabalarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili talabalarning yoshiga ko'ra va individual yondashuvni anglatadi.

Yoshiga muvofiq yondashish talabalarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darjasи, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi talabalarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o'quv faoliyatining samarasи rasayadi. Individual yondoshish talabalarning murakkab ishki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'r turdagи sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning birgaligi tamoyili pedagogi tarbiyalanuvshini shaxs sifatida hurmat qilishi zarur. Oqilona talabchanlik maqsadga muvofiq bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayoni, shaxsning to'liq va barkamol rivojlanishini ta'minlay olsa samarasi ansha yuqori bo'ladi. Talabalarga nisbatan talabchanlik ularni tartibli, intizomli bo'lish, burshlarni o'z vaqtida bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashi lozim. Shaxsga hurmat insondagi ijobiy xislatlariga tayanishni ko'zda tutadi.

Hamkorlik tamoyili ta'lim jarayonida shaxsning ustuvor mavqeini ta'minlash, uning o'z-o'zini anglashini anglatadi. Bu tamoyil o'zaro munosabatlar jarayonida subyektlar o'rtasidagi aloqalarning dialog shakli, shaxslararo munosabatlar mazmunida esa empatiya (yunoncha "empathlia" – birgalikda tashvishlanish, ya'ni, boshqa odamning tashvishlarini tushunish)ning ustunligiga erishishni talab etadi.

Ta'lim metodlari: tushuncha, funksiya, tasnif. "Metod" so'zining yunoncha tarjimasi "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni anglatadi. Filofosiya lug'atida ushbu tushuncha umumiylar tarzda "maqsadga erishish usullari"deya sharhlangan.

Ayni vaqtda pedagogik manbalarda "ta'lim metodi" tushunchasiga berilgan ta'riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Mazkur o'rinda ularning ayrimlarini keltiramiz:

Ta'lim metodi – zamonaviy darajada o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog va talabalarning o'zaro bog'liq faoliyat usullaridir (V.I.Zagvyazinskiy)

Ta'lim metodlari – o'quv jarayonining murakkab tarkibiy unsuri (komponenti) bo'lib, o'qituvchi va talaba faoliyatining barcha yo'nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o'rtasida ko'p sonli aloqa va bog'lanishlarni yuzaga keltiradi (G.I.Hukina)

Ta'lim metodlari deganda o'qituvchining o'rgatuvchanligi va talabalarning o'quv materialini egallashga yo'naltirilgan turli didaktik masalalar yechimini torishga oid o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etish usullari tushuniladi (I.F.Xarlamov)

Ta'lim metodi – belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi algoritmlashtirilgan, muayyan mazmunga ega harakatlar tizimidir (I.P.Podlsiy)

Shuningdek, ta’lim metodlarining o’qituvchi va talabalarning o’zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlari usullari ekanligi to’g’risidagi fikrlar ham mavjud.

Ta’lim metodlari dastlab pedagogi ongida muayyan yo’nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo’ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o’qituvchi va talabalar faoliyatining o’zaro tutashuvi, o’qitish va o’qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo’lmaydi, buning boisi ta’lim metodi o’zida umumiyl holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi.


1. Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to’laqonli yorituvshi ta’rifni aniqlashga bo’lgan urinish bugun ham davom etyarti, yangi-yangi ta’riflar ilgari surilmoqda. Biroq, “ta’lim metodi” tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlisha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o’zaro yaqinlashtiruvshi umumiylik mavjud. Aksariyat mualliflar “ta’lim metodlari talabalarning o’quv bilish faoliyatini tashkil etish usullari” degan qarashga yon bosadilar. Demak, **ta’lim metodlari ta’lim jarayonida qo’llanilib, uning samarasini ta’minlovshи usullar majmuidir.**

Ta’lim metodlari ta’lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta’lim mazmunini o’zlashtirish yo’llari ifoda etiladi, o’qituvchi va talabalarning o’zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Metod, bir tomondan, ta’lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo’lsa, boshqa tomondan, boshqariluvshan o’qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta’lim metodlari doimo u yoki bu o’qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o’zaro shartlanganligini ta’kidlash joiz.


Ta’lim metodi tuzilmasi shizmada quyidagisha namoyon bo’ladi (M.N.Skatkin qarashlariga ko’ra):



Ta'lim metodi tuzilmasi

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va talabalar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi.


Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:



Tarbiya metodlarining asosiy funksiyalari

Bu funksiyalar ta’lim metodini qo’llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o’zaro singib ketadi. Misol uchun, tashhisli funksiya o’qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

“Ta’lim metodi” atamasi bilan birga ko’r hollarda **“metodik usul”** (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo’llaniladi. U ta’lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta’riflanadi. Har bir ta’lim metodi muayyan ta’lim usullarini chog’ishtirish orqali joriy etiladi. Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o’qituvchi faoliyatida tez-tez qo’llaniladigan usullarni ajratib ko’rsatish mumkin:



Metodik usullarning turlari

Har bir metod ma’lum ta’limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo’lishi mumkin. Universal ta’lim metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta’lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin.

Ta’lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlari asosida aniqlanadi:

- didaktik maqsad asosida;
- ta’lim mazmuni asosida;


- talabalarning o'quv ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida;
- o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.

Didaktikada munozaralarga sabab bo'layotgan yana bir muhim obyekt ta'lif metodlarining tasnifidir. "Ta'lif metodlari tasnifi ularning ma'lum belgilari bo'yisha tartibini ifodalovshi tizimdir. Hozirgi vaqtida o'nlab ta'lif metodlari ma'lum", - ekanligini ta'kidlagan holda I.P.Podlasiy fikrini quyidagisha davom ettiradi, - "Biroq bugungi kunda etakshi sanaluvshi didaktik g'oya yagona va o'zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini tuchunishga yordam beradi. O'qitish – favqulodda harakatshan, dialektik jarayon. Metodlar tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo'shqin bo'lishi, metodlarni qo'llash amaliyotidagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olishi kerak".

Ta'lif metodlarini tanlash muammosi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko'r bo'lsada, bu borada yagona to'xtamgan kelinmagan. Ushbu o'rinda ta'lif amaliyotida qo'llanilib kelayotgan metodlar tizimi (tasnifi)ga to'xtalib o'tamiz.

Ta'lif metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo'yisha tizimlashtiriladi.

Ta'lif metodlari tizimida **og'zaki bayon qilish metodlari** muhim o'rin tutadi.



Og'zaki bayon qilish metodlarining turlari

Og'zaki mashqlardan ta'lif jarayonida keng foydalilanadi. Ular talabalarning umumiyl madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini

rivojlantirish bilan bog'liqdir. Shuningdek, og'zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixsham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasini ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'mnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, talabalarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni talabalarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi. Hikoya qisqa (5-10 daqiqa), shu bilan birga talabalarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg'otishi kerak. Bu holat hikoyani boshqa ta'lim metodlari (xususan, namoyish yoki muammoli bayon etish va hokazolar) bilan birga solishtirganda ro'y berishi mumkin.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'r funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi talabada faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat – faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha talabalarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, talabalarga ular yuzasidan bat afsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, talabalarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rnlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat talabalarga

oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, talabalar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiyligida xulosaga kelinadi.

Suhbat ko'rroq talabalarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashhislashda ijobiy natijalarini beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, *kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat* tarzida tashkil etiladi.

Kirish suhbat o'quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad hal etilishi zarur bo'lgan ishlar mohiyatining talabalar tomonidan anglab etilganligini tekshirib ko'rishdan iborat. Bunday suhbatlar talabalarning o'quv salohiyatini aniqlash, loyihalashtirish ishlarini tashkil etish hamda yangi bilimlarni o'zlashtirishga kirishish oldidan uyushtiriladi.

Yakuniy suhbat talabalar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Katexizism (qisqa bayonli) suhbat – talabalarning boshlang'ish bilim darajasi hamda ularning yangi o'quv metodikasini o'zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun tajribali o'qituvchilar tomonidan dars avvalida yohud o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun dars so'nggida qo'llaniladi.

Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallahsga yo'naltiriladi. Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga «ha» yoki «yo'q» tarzidagi javoblarni olish emas, aksincha, talabalarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta'minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilsin.

Demak, evristik suhbat jarayonida talabalar bilimlarni o'zlarining tirishqoqliklari va mustaqil fikr yuritish layoqatiga egaliklari bois o'zlashtira olsinlar.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmunsha keng qo'llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni

o'rganishda foydalaniladi. Tuchuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati oshib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'r hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.


Ma'ruza – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'rligi, bilimlar bayonining tizimliligi. Ta'lim muassasasi ma'ruzasi mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma'ruza ta'lim muassasasi sharoitida yuqori sinflardagina qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida talabalarni qisqasha yozib olish (konsrektlash)ga o'rgata boradi.

Ta'lim muassasasi ma'ruzasining samaradorligini ta'minlash shartlari quyidagilardan iborat:

- o'qituvchi tomonidan eng maqbul ma'ruza rejasingning tuzilishi;
- rejadan talabalarni xabardor etish, ularni ma'ruza mavzusining maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;
- rejada aks etgan barcha bandlarning mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etilishi;
- rejaning har bir bandi yoritilgash, ular yuzasidan qisqasha umumlashma asosida xulosalanishi;
- ma'ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o'tishda ular o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning o'rnatilishini ta'minlash;
- bayon qilishning muammoli va emotsional xususiyat kasb etishi;
- jonli til, o'z vaqtida misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish;
- auditoriya, muloqot jarayoni, shuningdek, talabalarning aqliy faoliyatlarini mohirlik bilan boshqarish;
- ma'ruzaning muhim jihatlarini turli tomondan ochib berilishi;

- ma'ruzaning asosiy qismlarini talabalar tomonidan qayd etib (yozib) borilishiga imkon beradigan holatda bayon qilinish tezligi;
- zarur (yozib olinadigan) o'rnlarni oldindan ajratib qo'yish;
- o'rganilayotgan holatlarni yozib olish asosida qabul qilish va ularning mohiyatini aniqlashtirish maqsadida ko'rgazmalar (namoyish, illyustrasiya, videofil'm va boshqalar)dan foydalanish;
- alohida holatlarni shuqur muhokama qilishda ma'ruzani seminar, amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish.

Ta'lif sifati va samaradorligini ta'minlashda *ko'rgazmali metodlar* ham alohida ahamiyatga ega.



Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rindi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko'rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta'minlovshi nevronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko'rish reseptorlari yordamida o'zlashtiriladi. Demak, o'zbek xalqi tomonidan ko'p bora qo'llaniladigan "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi" maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Namoyish metodi o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini oshib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. *Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki*

tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki shizmasi yordamida kuzatiladi

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu bois o'qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Bu metod yordamida o'qituvchi talabalarni mustaqil ravishda obyektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining bilish jarayoni mohiyatan talabalarning yoshiga mos holda to'g'ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo'naltirishiga bog'liqdir.

Tasvir (illyustrasiya) metodi namoyish metodiga shambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Illyustrasiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – *chizma, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar* yordamida ko'rsatishni taqozo etadi.

Namoyish va tasvir metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni talaba yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa illyustrasiyaga murojaat qilinadi.


Tasvirning samarasi ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuva texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan obyekt mohiyatini to'laqonli yorita olishi bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rnlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi talabalarni hodisa mohiyatini anglashda

shalg’itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy obyektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to’g’ri keladi.

Ko’rgazmali metodlardan foydalanishda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqliqdir:

- ko’rgazmalilikning talabalar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- namoyish etilayotgan obyektlar barcha talabalarga yaxshi ko’rinib turishi;
- namoyishda uning boshlang’ish bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi;
- tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko’rsatish asosida tashkil etilishi;
- namoyish va illyustrasiya o’quv materialining mazmuni bilan uyg’un bo’la olishi lozim.

Amaliy ishlari metodlari talabalar tomonidan o’zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko’nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.



Amaliy metodlarning turlari

Amaliy ishlari metodi – o’zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar ychshimini topishga yo’naltirilgan jarayonda qo’llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyatda qo’llash ko’nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlari sinfda yoki tabiiy sharoitlar – ta’lim muassasasi yer maydoni, issiqxonasi, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o’qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo’riqnomasi yoki maxsus ko’rsatmani talabalar e’tiboriga havola etadi.

Qayd etilganidek, ushbu metodlar talabalarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo'ladi.

Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, grafikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi.

Yozma mashqlar – ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.

Grafikaviy ishlar ham yozma ishlar bilan o'xshash jihatlarga ega bo'lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (jumladan, geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta'lim)da keng ko'lamda foydalilanildi.

Mashqlarning bajarilish samarasi quyidagi shartlar hisobga olinganda birmunsha yuqori bo'ladi:

- mashqlarni bajarishga nisbatan ongli yondashish;
- bajarish qoidasini bilish;
- vaqt bo'yicha takrorlanishning to'g'ri taqsimlanishi.

Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat:

- o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi;
- o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;
- zarur ko'nikma va malakalar shakllangunicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

Laboratoriya ishlari talabalarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metod

talabalarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqt ni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar talabalarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o'lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida talabaning bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi.

Hozirgi vaqtda o'qituvchilar qo'lida barcha o'quv fanlari bo'yisha didaktik o'yinlarning ishlanmalari mavjud, ayniqsa, boshlang'ish ta'lim bo'yisha yaratilgan o'quv dasturlarda turli didaktik o'yinlarning ro'yxati yetarli darajada ko'rsatilgan.

Ta'limning globallashuvi ta'limiy va rivojlantiruvshi xarakteriga ega va yo'nalishi jihatidan xilma-xil bo'lgan kompyuter o'yinlarining ta'lim muassasasi amaliyotiga jadal kirib kelishini ta'minlamoqda. Didaktik o'yinlar talabalarga ijtimoiy-foyDALI mehnat hamda o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning keshishi bilan belgilanadi. O'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli Psixologiik zo'riqishlarini kamaytiradi. Didaktik o'yinlardan foydalanilganda talabalarning manfaatdor bo'lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan taqdirdagina ularni taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunshaki tashkil etilgan o'yin ijobiy natija bermaydi.

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN KO'RSATMALAR

Boshlang'ich bilimni nazorat qilish :

Talabalarning boshlang'ich bilimlarini nazorat qilish “**Aqliy hujum**” orqali o'tkaziladi.

1. Hozirgi ta'lim tizimidagi yangiliklardan xabardormisiz?
2. Ta'lim berishning qanday turlarini bilasiz?
3. O'qitishning qanday usullaridan ko'nglingiz to'lmayapti, nima uchun?
4. Talabalarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlari qanday?
5. O'qituvchi bilan talaba munosabati qanday bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?

1-topshiriq.

Talabalar bilan “Nuqtai nazaring bo'lsin” deb nomlangan noan'anaviy usul asosida olingen bilimlar mustahkamlanadi. Bu usuldan foydalangan holda quyidagi masalalar hal etiladi:

1. Siz nima uchun oliy ta'limda bilim olishni davom ettirmoqdasiz?
2. Oliy ta'limda qanday noan'anaviy darslar sizni qoniktirdi?
3. Ta'limda qanday yangiliklar qilish mumkin, sizning takliflaringiz?

2-topshiriq.

Talabalar bilan “Menga so'z bering” mavzusida pedagogik o'yin o'tkaziladi.

O'tkazilish tartibi

1-bosqich. Guruh talabalari 3 ta kichik guruhchalarga bo'linadi.

2-bosqich. Har bir guruh o'z guruhini o'zi yoqtirgan nom bilan nomlaydi.

3-bosqich. Guruh a'zolaridan bir vakil o'qituvchi tomonidan tayyorlangan konvertlardagi pedagogik masalalarni olib, hamkorlikda uni muxokama qilishga kirishadilar.

1-pedagogik masala

Kishining hayotida tish o'tmas muammolar ko'p. Shulardan biri aynan do'st topish, do'st tanlash muammosidir. Kishi umri davomida adash yo'llarida ko'p qoqiladi. Eng ko'p qoqilish do'st ko'chasida bo'ladi. Kishi umrining oxiriga qadar ko'p do'st topmaydi. Ammo ko'p do'st yo'kotadi.

Nega shunday? Bunga kim aybdor? Kishining o'zimi yoki do'stimi? Siz qanday fikrdasiz?

2-pedagogik masala

Ota o'z farzandining kamoloti uchun 3 xil narsadan birini, ya'ni:
a) bilim; b) boylik; s) mansabdan birini tanlashni taklif qilibdi. Siz shu farzand o'rnida bo'lsangiz, qay birini tanlagan bo'lar edingiz, nima uchun?

3-pedagogik masala

Ey inson, mardlikni davo qilsang, birovga qilgan yaxshililingni darxol unut, yomonliging esa hamisha, har soniyada yodingda tursin. Avvalombor, yomonlikni ravo ko'rmagaysan.

Mutaffakkir bu fikrlar bilan nima demoqchi, o'z munosabatingizni bildiring.

4-bosqich. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi, ularning mustaqil fikrashlaridagi onglilik va faollik baholanadi.

3-topshiriq.

1. Ta'lim qonuniyatlarga mos holda pedagogik mashqlar tayyorlash.
2. Talabalarning mustaqilligi va faolligia xos bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida "Suhbat" metodi buyicha 5-10 minutlik dars o'tish tehnikasiga tayyorgarlik ko'rish.

B/B X/ BO jadvali

Topshiriq: Didaktik konsepsiylar va ta'lim mazmuni mavzusi bo'yicha "Nimalarni bilasiz?", "Nimalarni bilishni xohlaysiz?", "Nimalarni bilib oldingiz?" savollariga BBB jadvali asosida javob bering.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Bajarilishi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Ta'lif shakllari, bosqichlari, nazorat va baholash tizimini	Rivojlangan davlatlarning ta'lif tizimini	Didaktik tizim, konseptsiyalarni, ta'lif mazmunini ifodalovchi hujjatlarni

“Nilufar gul” sxemasi bo'yicha guruh ishi

O'zida nilufar gul obrazini namoyon qiladi. Uning asosini har biri 9 ta kvadratdan iborat yana 9 ta katta kvadrat tashkil etadi. Tizimli, ijodiy va analitik tafakkurni rivojlantiradi va faollashtiradi.

Ish tartibi: Talabalar sxemani tuzish qoidalari bilan tanishtiriladilar. Individual yoki kichik guruh bilan sxema tuzadilar. Asosi y muammo (vazifa)ni markaziy kvadratga yozadilar. Uning hal qilinish choralari markaziy kvadratning atrofidagi 8 ta kvadratga yoziladi.

Ana shu 8 ta fikrning har birini katta 8 ta kvadratning markaziga olib o'tiladi, ya'ni fikrlarni nilufar gulidan uning yaproqlariga o'tkaziladi. Shunday qilib, ularning har biri o'z navbatida yana bir muammo sifatida ko'rib chiqiladi.







“Nilufar” guli chizmasini tuzish qoidalari

Buning uchun katta qog'oz varag'i zarur bo'ladi. Mushohadalar natijasini bir varaq qog'ozda ko'rish foydali hisoblanadi. Aks holda esa bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutilishiga olib keladi.

B		

Z		

C		



Guruhga o'qitish samaradorligi omillarini “Nilufar guli” sxemasi bo'yicha ishlab chiqish topshiriladi.

Bajarilishi:

Nutqqob iliyatlari	Yuqori salohiyat , umumiy eruditsiya	Pedagogik texnika	Auditoriya	Laboratoriya	Kompyuter	Rag'bat	O'z-o'zini o'qitishiga bo'lgan ehtiyoj	Individual yondo shuv
Kommunikativ	1	Tashkilotchilik	Mulyaj, eksponat	2	O'quv qurolla	Demokratiya	3	Kasbi

qobiliyat lar		qobiliyat lari	lar		ri	munosaba t lar		ixtiyo riy tanlas h
Didaktik qobiliyat lar	O'z- o'zini rivojlanti rishga ehtiyoj	Akadem ik qobiliyat lar	Internet	Proekt or,	Audio- video texnik a	Amaliyot	Emotsio nal- irodaviy qobiliyat lar	Bilish ga bo'lga n qiziqi sh
Darslikl ar	Tar?atma material	Metodik qo'llanm alar	1. O'qituv hining pedagog ik va professi onal mahorati	2. Moddi y- texnik baza	3. Talaba ning o'quv motiva tsiyasi	Prezentats iya	Interakti v usullar	Ochiq va ko'rga zmali mashg 'ulot
Ma'ruzal ar banki	4	Internet materiall ari	4. Axborot resurslar i ning etarliligi	o'qitish samara dorligi omillar i	5. O'qitis hning turli xil zamon aviy usul va shaklla ridan foydal	hamkorlik da ishlash	5	O'quv konku rslari va viktor inalar ni tashki l qilish

					anish			
Xrestom atiyalar	Talabalar ning mustaqil ishi uchun vazifa va materiall ar	Amaliy topshiriq lar to'plami	6. Talabala r ning bilim darajasi	7. O'qitu vchilar ni moddiy - ma'nav iy rag'bat lantiris h	8. Talaba larni moddi y- ma'na viy rag'bat lantiris h	Qo'shimc ha mashg'ulo tlar (fakultativ , konsultati v, ekskursiya)		O'qiti shnin g ko'rغا zmali va amali y usulla rini qo'lla sh
Internet da ishlash imkoniy ati	Kirish imtihonla rining adolatli o'tishi	Kirish testlari - og'zaki imtihon	Katta maosh	Reytin gni ko'taris h	Moddi y rag'bat , sovg'a lar	Yuqori stipendiya	Sovg'ala r	Hurm at taxtasi
Oila va institutni ng hamkorl igi	6	Moddiy ahvoli	Ilmiy faoliyat uchun imkoniy atlarni kengayti rish	7	Xурма т тахтас и	Бахо	8	Faxriy ва мақто в yorliq лари

Psixik, jismoniy va intellekt ual salomatli ik	Tayanch ma'lumot i	Ijtimoiy holati	Xodimlar kasaba uyushm asi imkoniy atlarini kengayti rish	“Eng yaxshi o'qituv chi”, ... konkur slarini o'tkazi sh	Faxriy va maqto v yorliql ari	Jamoada maqtab qo'yish	Imtihonl arni ekstern topshiris h imkoniya ti	Talab alar kasab a uyush masi imkon iyatlar ini kenga ytirish
--	--------------------------	--------------------	--	---	--	------------------------------	---	---

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Didaktika tuchunchasini izohlab bering.
2. Ta'limda qanday didaktik tamoyillar belgilangan?
3. Ta'lim mazmunini nimalar tashkil qiladi?
4. Ta'lim usullari va tashkiliy bosqichlari nimadan iborat?
5. Qanday ta'lim shakllari va vositalari mavjud?
6. O'quv mashg'ulotlarining ko'rinishini tuchuntirib bering.
7. Ma'ruza mashg'ulotlarining uslubiy ishlanmasi qanday bo'ladi?
8. Seminar mashg'ulotlarining uslubiy ishlanmasi qanday bo'ladi?
9. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining maqsad va vazifalarini izohlab bering.
10. Mustaqil ish turlari nimadan iborat?
11. Ta'limning texnik vositalarini sanab bering.
12. Ta'lim tizimining asosiy funksional-strukturaviy komponentlarini nimalar tashkil qiladi?

5-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANIGA KIRISH. TIBBIYOT XODIMLARINI TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK

BILIMLARNING O'RNI

TAYANCH IBORALAR :

Yangi davr, taraqqiyot, ruhiy kechinmalar, psixika, shaxs, fanlar tizimi, psixologiyaning tarmoqlari, umumiy psixologiya, yosh davr psixologiyasi, pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, mehnat psixologiyasi

Psixologiya fani ijtimoiy-siyosiy, tabiiy va pedagogik fanlar bilan hamkorlikda inson tabiatiga xos bo'lgan bir qancha muammolarni o'rganadi. Psixologiyani o'rganish insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni, jamiyatdagi ilg'or g'oyalar va ta'limotlarni ta'lim- tarbiya, falsafa, huquq, nafosat, adabiyot, shuningdek, talaba- yoshlarning kasbiy, ruhiy kechinmalar, aqliy qobiliyati, idroki, xullas, insonparvar psixologiyaning barcha qonuniyatlarini o'z ichiga oladi. Mustabid tuzum rahbarlari uzoq yillar davomida insonning haq-huquqlarini cheklashga, eski andozalarga asoslangan ijtimoiy tarbiya - milliy psixologiyamizni so'zsiz itoatkorlikka moyillik ruhida totalitar mafkuraning ta'siri bilan yashashga odatlantirib keldi. Shuning uchun ham ular milliy psixologiya va umumpsixologik qonuniyatlarni jamiyat a`zolaridan muttasil sir tutishga harakat qildilar. Shunga qaramasdan istiqlol sharofati bilan respublikamizning yetakchi psixolog olimlari E.G'oziyev, R.Shoumarov, V.Karimova, B.Qodirov, M.Davletshin, A.Jabborovlar psixologiyani keng ko'lamda rivojlantirishga munosib hissa qo'shdilar.

Bugun psixologiya fani oldida butunlay boshqa mas`uliyatli vazifa - o'sayotgan barkamol avlodni o'zining mustaqillik mafkurasi orqali shakllantirish, tarbiyalashdek buyuk ustuvor vazifa turibdi. Inson psixologiyasidagi umidsizlik, o'z erki va ijtimoiyadolat uchun kurashish ruhining zaiflashuvi nazariya bilan turmush nomutanosibligining mas`ulidir. Odamlarda e'tiqod, dunyoqarash, eng yuksak maqsad, muomala, muloqot, milliy va mustaqil xulq-atvorni dadil shakllantirish ko'proq psixologik omillarga bog'liqdir. Shaxsning yetuk ruhiy amaliy tafakkur erkinligi, jamiyat taraqqiyoti salohiyatini ko'rsatuvchi bosh

vositadir. Chunki unda ijtimoiy ong, ruhiyat o'z ifodasini topgan.

Psixologiya fani inson shaxsi, uning ichki dunyosi haqidagi bilimlarning murakkab sohasidir. Psixologiya har kimga o'z tajribasidan ma'lum bo'lgan sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, his-tuyg'u va insonning qobiliyati, iste'dodi, temperamenti, xarakteriga xos ruhiy hodisalar haqidagi bilimlarni o'z ichiga olgan sohadir.

Psixologiya juda qadimgi fanlardan bo'lib, bundan taxminan, ikki yarim ming yillar muqaddam maydonga kelgan. "Psixologiya" yunoncha "psyuxē" – "jon", umumiyl holatda ruh va "logos"- ilm, ta`limot degan ikki so'zdan iborat bo'lib, "jon yoki ruh haqidagi ta`limot" degan ma`noni anglatadi. Qadim zamonlarda odamlarning tashqi olamdan ta`sir qilayotgan narsalarning nerv tizimi yordamida miyada aks ettirilishini tushunishi qiyin bo'lgan. Shuning uchun ular murakkab aks ettirish hodisalarini jon bilan bog'lab tushuntirganlar. Shu tufayli psixologiya fani qadim zamonlarda jon haqidagi ta`limot sifatida maydonga kelgan. Hozirgi kunda psixologiya fani o'zining qadimgi nomini saqlab qolgan bo'lsa ham mazmunan batamom o'zgarib ketgan. Agar biz psixologiyaning mazmunini hozirgi davr talabidan kelib tushuntiradigan bo'lsak, shunday ta`rif berishimiz mumkin: "Psixologiya fani psixik jarayonlar va inson shaxsining psixologik xususiyatlari haqidagi fandir".

Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilganlar va inson jonini koinotning ashyoviy bo'lagi sifatida talqin qilganlar. Ularning g'oyalari Platonning jon abadiyligi to'g'risidagi ta`limotiga qarama-qarshi qo'yilgan. Aristotel "Jon to'g'risida"gi asarida psixologik tushunchalar tizimini ishlab chiqqan.

Yevropa Uyg'onish davrida Leonardo da Vinchi, X. Vives kabilar psixologiya rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar. XVIII asrga kelib M. V. Lomonosov, A.N. Radishchev, G. S. Skovoroda, T. Gobbs, B. Spinoza, G. Leybnits. J. Lokk, K. A. Gelvetsiy, A. Golbax, D. Didro psixologiyada bir talay kashfiyot qildilar, uni amaliy ma'lumotlar bilan boyitdilar. Psixologiya XIX

asrning ikkinchi yarmiga kelib mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Nemis olimi V. Vundt Leypsigda 1879-yil dastlabki eksperimental laboratoriyanı jihozlashga erishdi. Psixologiya taraqqiyotida umuman XIX asrdagi eksperimentlar alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda psixologik real voqelikni o‘rganish uchun metodlar majmuasi qo‘llana boshlandi: kuzatish, laboratoriya eksperimenti, tabiiy eksperiment, faoliyat natijasini tahlil qilish, ruhiy jarayonlarni modellashtirish genetik metodi, test, ekspert baholash, intervyu, anketa, so‘rovnoma, tarjimayi hol va h.k. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida qator psixologik ilmiy maktablar, yo‘nalishlar vujudga keldi: bixevoirizm, geshtaltpsixologiya, personalizm, freydizm va h.k.

Psixologiyaning rivojiga I. M. Sechenov (psixikaning reflektor tabiat), I. Pavlov (oliy nerv faoliyati) ta’limotlari muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Rossiyada V. M. Bexterev eksperimental laboratoriysi (Qozon, 1885), Harkov universiteti va N. N. Langening Odessadagi laboratoriysi, G.Chelpanovning Kiyevdagi, S. Korsakovning Moskvadagi, keyinchalik V. M. Bexterev, A. Lazurskiy, A. Nechayevlarning Peterburgdagi, V. Chijning Yuryev (Tartu, Estoniya)dagi eksperimental laboratoriyalari psixologiya taraqqiyotiga alohida ta’sir o’tkazdi. 1912 yil Moskva universitetida psixologiya instituti ochildi. Shu yilda I. A. Sikorskiy tomonidan Kiyevda jahonda birinchi marta Bolalar psixologiyasi instituti tashkil qilindi. XX asrning birinchi yarmida Rossiyada K. N. Kornilov, P. Blonskiy va boshqa dialektikaga asoslangan ilmiy psixologiyani yaratishga kirishdilar.

Psixologiya sohasida mukammal darsliklar yozila boshlangan davrga salkam 160 yil bo’ldi. Shu davr ichida juda ko’plab ilmiy tadqiqot natijalarini o’z ichiga olgan monografiyalar, darsliklar, qo’llanmalar yozildi. Lekin bu bilan fan o’zining jamiyat oldidagi vazifalarini to’laqonli bajara oldi, degan xulosa chiqarib bo’lmaydi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko’rsatgan barcha olimlar ko’proq diqqatlarini mavhum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar. Vaholanki, inson, uning barkamolligi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta`siri masalasi o’tgan asr oxiriga kelib o’ta dolzarb va muhim muammolar qatoridan joy oldi .

XX asrda erishilgan yutuqlardan eng muhimi shu bo’ldiki, inson o’z aql-

idroki, tafakkuri va ijobjiy salohiyati bilan murakkab texnika, elektronika va boshqa shunga o'xshash global texnologiyalarni kashf etdi. XXI asr bo'sag'asida barcha fanlar qatori milliy psixologiyamiz yangicha mazmun kashf etdi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, xalqimiz psixologiyasining zamon va makondagi o'rnini, nasl-nasabini, o'zligini, kelib chiqishini, insoniyat tarixida tutgan o'rnini, uning rivojiga qo'shgan hissasini, milliy iftixorini, g'ururini mustaqil va xolisona anglab olishidir. Agar xalqimiz o'zining milliy psixologiyasiga, boy tarixiga ega bo'lsa, u o'zi kechirgan ijtimoiy- psixologik jarayonlarni chuqurroq tushunadi. Psixologiya sohasidagi bu izlanishlar yetakchi psixolog olimlarimiz ilmiy faoliyatida mujassamlangan va ular tomonidan jamiyat, inson psixologiyasi va ma`naviyati ilmiy-nazariy tahlil qilinadi.

Shuni hisobga olish kerakki, odamdag'i barcha psixik jarayonlar va shaxsiy xususiyatlar o'z-o'zicha yuzaga kelmaydi. Psixik jarayonlar (ya`ni sezish, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq va shu kabilalar) ham, shaxsning psixik xususiyatlari (ya`ni ehtiyojlari, qiziqishlari, malaka va odatlari, xarakteri, qobiliyatlar) ham odamning mavjud faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi. Shuning uchun psixologiya fani insonni turli faoliyatlarda o'rghanadi. Shu sababli inson shaxsining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan iboratdir. Shunday qilib, psixologiya fani qandaydir jon, ruh haqidagi fan bo'lib qolmay, balki aniq psixologik jarayonlar, ya`ni aks ettirish jarayonlari va inson shaxsining psixologik xususiyatlari haqidagi fan hamdir. Kengroq ma`noda oladigan bo'lsak, psixologiya fani psixik jarayonlarning va shaxs psixologik xususiyatlarining namoyon bo'lishi va taraqqiyot qonunlarini o'rghanadigan fandir. Psixologiyani o'rghanishda shuni alohida hisobga olish kerakki, insonning butun ongli hayoti ikkita fiziologik - organik hayat va psixik hayatdan iboratdir.

Psicho-fiziologik o'zaro ta`sir nazariyasi asoschilarining fikricha, psixik hodisalar bilan fiziologik hodisalar o'z mohiyatlari jihatdan har xil hodisalar bo'lsa-da, bir-birlariga o'zaro ta`sir etib turadilar. Natijada fiziologik hodisalar psixik hodisalarni yuzaga keltiradi. Odamning kundalik hayat faoliyati ana shu

tarzda davom etaveradi.

Shunday qilib, biz hayot qonunlariga asoslangan psixologiyani, uning mohiyati va taraqqiy etish tizimlarini o'rganar ekanmiz, psixikani inson miyasining mavjud voqelikni aks ettirish xossasi deb bilishimiz zarur.

M.Vohidovning ta`kidicha, buning uchun psixikaning nerv fiziologik asoslardan ham ozmi-ko'pmi xabardor bo'lishimiz lozim.

Atoqli rus fiziologi I.M. Sechenov o'zining "Bosh miya reflekslari" nomli asarida psixik hodisalar inson organizmidagi boshqa hamma funksiyalar kabi tabiiy hodisa ekanligini, psixik hodisalar nerv tuzilishi reflekslari, ya`ni aks ettirish faoliyatining natijasi ekanligini ko'rsatib berdi.

I.M. Sechenovning ilg'or g'oyalari I.P.Pavlovning ilmiy - eksperimental ishlari uchun asos bo'ldi. I. P. Pavlov o'zining ko'p yillik ilmiy faoliyati o'laroq shartli reflekslar haqidagi mashhur ta`limotni yaratdi. I. P. Pavlovning oliy nerv faoliyati va xususan shartli reflekslar haqidagi ta`limoti haqli ravishda psixologiyaning tabiiy-ilmiy asosini tashkil etdi. I. P. Pavlovning shartli reflekslar haqidagi ta`limoti organizmning tashqi muhitga muvofiqlashuvini va juda ko'p murakkab psixik jarayonlarning fiziologik mexanizmlarini tushunish imkonini beradi.

Psixikaning eng yuksak bosqichi bo'l mish ong masalasiga kelsak, ong uzoq evolyutsion taraqqiyot natijasi sifatida faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoy-tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishi hamda til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatda bo'lishi natijasidir. Ongning yashash usuli va ong uchun nimaningdir borligi bilimdir. Demak, *ongning birinchi ta`rifi* uning turli bilimlar yig'indisidan iborat ekanlidir. *Ongning ikkinchi ta`rifi* odamning o'z-o'zini anglash jarayonida namoyon bo'ladi. Odam tirik mavjudotlar tarixida birinchi bo'lib obyektiv olamdan ajralib chiqdi va o'zini tevarak- atrofdagi muhitga qarama-qarshi qilib qo'ydi. Odam "Men" degan tushunchani "Men emas" degan tushunchadan ajratadigan bo'ldi. Shu tariqa odam ongli mavjudot sifatida o'zini-o'zi anglay boshladi. Shunday qilib, psixologiya fani inson shaxsiga xos bo'lgan ana shu xususiyatlarning yuzaga kelishi va namoyon bo'lish

qonuniyatlarini o'rganishni maqsad qiladi.

Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilmal-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odamning aqliy faoliyatini ham o'stirishga yordam beradi, yangi bilimlar, ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Albatta, fan bilan shug'ullanish, ilm olish, izlanish insonni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o'rinni tutadi. Inson psixologiyani o'rganar ekan, avvalo o'z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat - e'tibor beradi. Aql faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o'z aql-idrokining ko'proq o'sishiga zamin hozirlaydi. Bundan ko'rindaniki, o'quv muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog, maorif ishining rahbari, boshqaruvchisi psixologiyani bilishi muhim ahamiyatga ega.

Vaqti kelganda shunday faktga to'g'ri kelamizki, murakkab elektron texnikani yaratgan o'ta aqli inson o'zi va atrofidagilarning ruhiy kechinmalarini to'g'ri baholay olmasligi sababli, o'zini nochor va kuchsiz sezishi mumkinligini hayot isbotladi.

XXI asrda juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rinni olgan mustaqil O'zbekistonda barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida qayg`urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Inson psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarning obyektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o'z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zaxirasi bilan yaqinlari va hamkasbleri psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda.

Buyuk Suqrot o'z davrida “*O'z o'zingni bil!*” degan shiorni o'rta ga tashlagan edi. Yangi davr bu bilimlar yoniga “*o'z yoningdagilarini va ularning qilayotgan ishlarini ham bil!*” degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

An'anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o'rganadigan hodisalarini faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug'ullanadigan kimsalar o'rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo'lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o'zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

“Psixologiya” so'zi ikkita grek so'zlaridan “*psyhe*” *jon, ruh* va “*logos*” *ta'limot, ilm* so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimizni asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi.

Psixologiya (psixo... va ...logiya) — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, xislatlar to'g'risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriylar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomonidan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomonidan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq

hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo psixikaning insonga xos shakli bo‘lmish ong va o‘zini o‘zi anglashni tadqiq etadi.

Psixologiya bo`yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib psixikadir ,deb ta'rif berishadi. **Psixika** - bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi. Lekin bu qisqa ta'riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto'g'ri bo'ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba'zan o'z-o'zimizni ham tushunmay qolamiz.

Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro`y berayotgan obyektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuyiga ega bo`lish bilan, balki hayotda munosib o`rin egallash, o`z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda faoliyatini oqilona tashkil etishning barsha sirlaridan boxabar bo`lish, o`ziga va o`zgalarga ta'sir ko`rsatishning usullarini bilish va ulardan o`z o`rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi. Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixik hayotga aloqador bo`lgan jarayonlarni o'zimizda, miyamiz, ongimizda ro`y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, o`rtoqlarimizdan biri bizga yoqadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu xatti-harakatlarini bevosita ko'rib, baholab, tahlil qilolsakda, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko'rishmay qolganimizda uni sog`inayotganligimiz bilan bog'liq hisni bevosita ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o'xshash holatlar psixologiya o'rganadigan hodisalar va holatlarning o`ziga xos tabiatи va murakkabligidan darak beradi va ularni boshqa turli hodisalardan farq qiladi.

Shunday qilib, psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o'rganishning ikki jihatni bor: bir tomondan ularni o'rganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham. Oxirgi jihatni xususida shuni aytish

mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning o'zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o'zaro bir-birlari bilan bog'liq va umumiylar qonuniyatlar hamda unsurlarga bo`ysunadi.

Demak, qisqa qilib, psixologiyaning predmeti **konkret shaxs**, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatlarning o'ziga xos tomonlaridir, deb ta'riflash mumkin. Psixologiya konkret fan sifatida psixik faoliyat qonuniyatlarini, uning ro'y berishi mexanizmlari va omillarini o'rganuvshi fandir.

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarini ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeyi o'ziga xos va yetakchidir.

1. Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to`la anglash va uning rivojlanish tendentsiyalarini belgilashdagi o'mni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiylar qonuniyatlar va sirlarni psixologiya falsafasining bazasidan olinadi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlar sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiylar qonuniyatlarini izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan - falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko`ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

2. Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlardan sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanishi, ham ularning ko`lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning

sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladi. Qolaversa, huquqiy demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar dunyoqarashidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbiqiy ahamiyat kasb etadi.

3. Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi"ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldag'i SHAXSni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongingin ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendentsiyalaridan tortib toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog`lik ta'sir ko`rsatayotganligini o'rganish asosida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg`unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyllarini maktabda va yangi turdag'i ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg`or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutadi.

4. Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechish qonuniyatlarini obyektiv

o'rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik rolini e'tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardag'i tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug`ma layoqatlari hamda ortirilgan sifatlarini bir vaqtida bilishni taqozo etgani sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixikfiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik hodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o'lchash metodlari) o'z o'rnida foydalilanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalilanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

5. Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo`lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan va alohida ma'lumotning qadr - qimmati oshayotgan XXI asrda informatsion texnologiyalar va modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan unumli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'mi va rolini oshiradi. Maxsus kompyuter dasturlarini keng qo'llanishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

6. Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa asr oxiriga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik

hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati -bu ikki yo`nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo`lsa, texnika progressiga intilayotgan bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan "muloqot" qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish, uning imkoniyatlariga moslash masalasi ham ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo`lgan masaladir. Ayniqsa mustaqil O`zbekiston uchun murakkab bo`lgan zamonaviy texnika sir-asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo`lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fuqaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va "odam-mashina" dialogining eng samarali yo`llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bemalol "tillashadigan" malakali mutaxasislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

7. Iqtisodiyot bilan psixologyaning o`zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo`lib, ayniqsa bozor munosabatlariga bosqichma- bosqich o`tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o`ziga xos namoyon bo`lish qonuniyatlarini o`rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo`lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o`z navbatida iqtisodiy islohotlarning obyekti hamda subyekti bo`lmish inson omilidagi barcha psixologik o`zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechish kerak.

Yuqorida ta'kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o'sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi. Bu tibbiyat, qishloq xo`jaligi, kimyo va oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati, huquq va madaniyatshunoslik kabi o`nlab fan sohalaridir.

Yuqoridagi fikrlar va psixologiya bevosita aloqador bo'lgan fanlarning xarakteriga bog'liq tarzda bugungi kunda psixologiyadan nisbatan alohida bo'lib ajralib chiqqan tarmoqlar to'g'risida ham fikr yuritish mumkin.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishning hamma tarmoqlarida, mehnatni tashkil etishning har xil turlarida psixologiya yetakchi o'rinni tutadi. Psixologiyaning alohida tarmoqlarini differentsiatsiya qilish eng avvalo ishlab shiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib shiqadi. Hozirgi davrga kelib, psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin. Yoshlar tanlagan kasbning har bir turi odamdan tegishli bilim va mahorat talab qilishi bilan birga maxsus psixologik sifatlarga ega bo'lish kerakligini ham taqozo etadi. Shu sababli tanlangan ixtisosga qarab murakkab va mas'uliyatli kasb turlarini bajarishga to'g'ri keladigan kishilar maxsus psixologik tekshirishdan o'tkaziladi. Masalan, kosmonavtlarni, uchuvchilarni, mashina haydovchilarni, paxtaning qator oralariga ishlov beruvchi mexanizatorlarni tanlashda talabgorlar xotirasi juda o'tkir, diqqat faoliyati turg'un va murakkab harakatlarni tez bajara oladigan, tafakkur jarayonlari ancha shakllangan yoshlarni ajratib olish maqsadida tekshirib ko'rildi. Korxonalar va boshqa xo'jalik, madaniy va ma'muriy muassasalarning hamda tashkilotlarning rahbarlari kadrlarni tanlay bilishi, ularni joy-joyiga qo'ya bilishi, ularga odilona rahbarlik qila olishi kerak. Buning uchun esa ularning qobiliyati, xarakteri, muomala madaniyati, ma`naviy-axloqiy tuyg'ulari, mehnatga munosabati va boshqa shu kabi sifatlarning mohiyatini bilishi kerak. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi, chunki hamma sohada inson shaxsi faoliyat ko`rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko'ra ish olib borish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxasislari psixologik bilimlardan boxabar bo'lishlari lozimdir.

Psixologiyaning 300 dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi, masalan:

- * *umumiy psixologiya* - psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarini, ularning o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi.
- * *pedagogik psixologiya* - kishiga ta'lif va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi.
- * *yosh davrlari psixologiyasi* - turli yoshdag'i odamlarning tug'ilganidan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlarining qonuniyatlarini individning yoshiga mos tarzda o'zgarishi tamoyillarini o'rganadi.
- * *ijtimoiy psixologiya* - odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatları natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi.
- * *mehnat psixologiyasi* - kishi mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini, qonuniyatlarini o'rganadi.
- * *muhandislik psixologiyasi* - avtomatlashtirilgan boshqaruvi sistemalari operatorining faoliyatini, *odam-texnika* o'rtaida funksiyalarini taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi.
- * *yuridik psixologiya* - huquq sistemasining amal qilish bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi.
- * *harbiy psixologiya* - kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, zabitlar bilan oddiy askarlar o'rtaсидаги munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi.
- * *savdo psixologiyasi* - jamiyatda tijoratning psixologik shart sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga, jinsga oid xususiyatlarini aniqlaydi. Bu sohadan ajralib chiqqan, modalar psixologiyasi inson didi va uning xulqda aks etishi kabi qator masalalarini o'rganadi.

** tibbiyot psixologiyasi* - shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi. Shuningdek, psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, sport psixologiyasi, psixodiagnostika, siyosiy va tashkiliy psixologiya kabi boshqa ko'plab sohalari mavjudki, ularning har biri jamiyatdagi real ehtiyojlar va ularni qondirishda psixologiyaning fan sifatidagi o'rni va maqsadidan kelib chiqadi.

Psixologiya tibbiyot sohasi bilan ham qadimdan bog'lanib kelgan. Kasalliklar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi, bunday kasalliklarni ham, asosan, psixologik yondoshuv asosida davolash katta samara beradi. Shifokor kasalliklarni bir-biridan yaxshiroq ajrata olishi uchun odamning psixologik xususiyatlarini, holatini ham bilishi zarur. Vrach bemorga psixik ta'sir ko'rsatish vositalarini, ishontirish, maslahat berish va boshqa kabilarning ahamiyatini bilishi muhim.

Psixologiya fani sud-huquq tizimida, prokuratura, ichki ishlar faoliyatida, harbiy sohada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sud hay`ati yoki tergovchi ayblanuvchining ruhiy holatini, guvohlarning so'roqda aytgan gaplarini psixologik jihatdan tahlil qila bilishi zarur. Aybdorlarning individual emotsiyal xususiyatlarini ham bilib olishga to'g'ri keladi. Bularning hammasidan o'rinli foydalanim uchun inson psixikasini bilish, psixologiyani o'rganishning ahamiyati benihoya katta. Shuningdek, psixologiyani bilish kundalik turmush uchun ham ahamiyatlidir. Hamma doimo boshqa kishilar davrasida bo'ladi, muayyan munosabatlar tanish-bilishlik, oshna-og'aynigarchilik va boshqa shu kabilalar tufayli o'zgalar bilan muomalada bo'ladi. Albatta, shunday sharoitda insonlarning bir-birlari haqidagi tasavvurlari boyib boradi.

Metod - bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig`indisi.

ASOSIY METODLAR	Asosiy metodlarning variantlari
KUZATISH METODI	Tashqi (obyektiv kuzatish) Ichki (subyektiv, o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish

SO'ROQ METODLARI	Og'zaki so'roq Yozma so'roq Erkin so'roq (suhbat) Standartlashtirilgan so'roq
TESTLAR METODI	Test - so'rov Test - topshiriq Proyektiv test Sosiometrik test
EKSPERIMENT	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperimenti
MODELLASHTIRISH	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish

Psixologiya fani metodlari psixik xodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o'rGANISHNING asosiy yo'l-yo'riq va usullarini tahlil etadi.

Psixokorreksiya - shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini q`o'llash jarayoni. Psixologik xizmat esa psixologiyani amaliyotda qo'llash tizimi. U turli sohalarda (xususan tibbiyotda) diagnostika, konsultatsiya, ekspertiza vazifalarini bajaradi.

AMALIY MASHGÜLOT UCHUN KO`RSATMALAR:

Asosiy muammo "*XXI asr sharoitida psixologiya fanining ahamiyati*" yechimini topishga qaratilgan faoliyatni tashkillashtirishda baxs-munozara usulidan foydalaniladi.

1-topshiriq. Bilimni tekshirish uchun test savollari:

1. Psixologiyada qo'llaniladigan asosiy metodlar:

- A) kuzatish, so'roq, test, tajriba, o'rGANISH, so'zlashish;
- B) kuzatish, so'roq, test, tajriba, modellashtirish;
- C) kuzatish, anketa, test, tajriba, so'zlashish;
- D) kuzatish, so'roq, test, tajriba, intervyu, o'rGANISH.

2. Kuzatish metodining turlari:

- A) tashqi, ichki, erkin, standartlashtirilgan, guruh ichida, guruh tashqarisida;
- B) obyektiv, subyektiv, erkin, standartlashtirilgan, guruh ichida, guruh tashqarisida;
- C) tashqi, ichki, birgalikda, standartlashtirilgan, guruh ichida, guruh

tashqarisida;

D) tashqi, ichki, erkin, longityud, guruh ichida, guruh tashqarisida.

3. So'roq metodining turlari:

- A) og'zaki, yozma, erkin, standartlashtirilgan;
- B) og'zaki, yozma, suhbat, intervyu, standartlashtirilgan;
- C) og'zaki, yozma, erkin, anketa, standartlashtirilgan;
- D) og'zaki, suhbat, erkin, standartlashtirilgan.

4. Test metodining turlari:

- A) so'rov, topshiriq, proyektiv, og'zaki, yozma;
- B) so'rov, topshiriq, proyektiv, sotsiometrik;
- C) og'zaki, erkin, so'rov, topshiriq, proyektiv;
- D) so'rov, sotsiometrik, topshiriq, yozma.

5. Psixologiyaning asosiy yo'nalishlari:

- A) sanoat va ishlab chiqarish, siyosat, oila va nikoh, maorif sohasi;
- B) sanoat va ishlab chiqarish, siyosat, oila va nikoh, maorif sohasi, huquqbazarlikning oldini olish;
 - S) iqtisodiyot, kadrlar, sanoat va ishlab chiqarish, siyosat, oila va nikoh, maorif sohasi;
 - D) kadrlar bilan ishslash, sanoat va ishlab chiqarish, siyosat, oila va nikoh, huquqbazarlikning oldini olish.

2-topshiriq. “Kim ko’proq, kim tezroq” metodini qo’llash

Maqsad: Talabalar bilan teskari aloqa o’rnatish, ularning faolligini oshirish, barcha talabalar diqqatini va qiziqishini jalg etish, mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish, guruhni birlashtirish, tanglikni bartaraf etish, mavzuni takrorlab, mustahkamlash, ta’lim samaradorligini oshirish.


Bir qancha savollarga talaba yoki guruh bir minut ichida javob berishi lozim. Konsultant nechta savolga to’g’ri javob berilganini sanab boradi. Savol va topshiriqlar har qanday fanga moslashtirilgan bo’lishi mumkin. Bu metod nazariy fanlar uchun ham, fundamental va klinik fanlar uchun ham to’g’ri keladi.

Bu metod talabada tezkorlik, topqirlik, hozirjavoblik malakalarini rivojlantirishga yordam beradi va talabaning diqqat-e'tiborini kuchli jalg qilishi, guruhni jonlashtirishi bilan farqlanadi.

“Kim ko’proq, kim tezroq” metodi savollari:

1. Psixologiya fanining predmeti nima?
2. Psixologiya fani qanday hodisalarni o’rganadi?
3. Psixikaning namoyon bo’lish shakllari qanday ko’rinishga ega?
4. Psixologyaning prinsiplarini tushuntiring.
5. Shaxs faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati qanday?
6. Psixologyaning qanday tarmoqlari mavjud?
7. Psixologyaning asosiy metodlari qaysilar?
8. Kuzatish metodiga qo’yiladigan talablar qanday?
9. So’roq metodi qanday o’tkaziladi?
10. Test metodining boshqa metodlardan farqi nimada?
11. Eksperiment metodining o’tkazilish tartibi qanday?
12. Modellashtirish metodi qachon qo’llaniladi?
13. Psixologiya qanday fanlar tizimida rivojlanadi?
14. Psixologiya tarixiga oid qanday ma'lumotlarga egasiz?


3-topshiriq. “Klaster”usulidan foydalanish




Klaster tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalar sifatini muhokama qilmang, faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

Topshiriq: Psixika klassifikatsiyasini klaster ko'rinishida ishlab chiqish



Bajarilishi:



4 - topshiriq. “Zamonaviy tibbiyat xodimini tayyorlashda psixologiyaning ahamiyati” mavzusini yoritishda “Aqliy hujum” usulidan foydalanish qoidalari:

- Hech qanday o’zaro tanqid va baholash bo’lmashligi kerak;
- Taklif qilinayotgan g’oyaga baho berishdan saqlanish;
- Barcha keltirilgan g’oyalar qimmatli va teng kuchli, ularni tanqid qilmashlik kerak;
- Javob berayotganni to’xtatmaslik kerak;
- Kamchilik ko’rsatishdan saqlanish lozim;
- Qancha ko’p fikr bildirilsa, shuncha yaxshi, yangi va qimmatli g’oya tug’ilishiga ehtimol ko’p bo’ladi;
- Fikrlar takrorlansa, e’tibor bermaslik kerak;
- Ochiq tanqidiy fikrlarni aytishga ruxsat berish kerak;
- Paydo bo’lgan har qanday g’oyani ham tashlab yubormaslik kerak.

5 - topshiriq. “Blits-so’rov” savollariga javob bering, jadval so’rov vaqtida to’ldiriladi

№	Savollar	Javoblar
1	Psixologiya fani nimani o'rganadi ?	
2	Psixologiyaning rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz ?	
3	Psixika nima ?	
4	Bilish jarayonlari qaysilar?	
5	Psixologiya qaysi fanlar bilan aloqada ?	
6	Psixologiya tarmoqlarini sanang	
7	Psixologiyaning zamonaviy metodlarini sanang	
8	Psixologiya fani bo'yicha kimlar tadqiqotlar olib borgan?	
9	Psixologiya fanining qanday vazifalari bor?	
10	Psixologik xususiyatlarga nimalar kiradi?	

6-MAVZU. PSIXOLOGIYADA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOSI

TAYANCH IBORALAR :

Nativizm, emririzm, sanksiya, status, refleksiya, ijtimoiy normalar, sanksiyalar, shaxs, ijtimoiy ta'sirlar, "Men" - obrazi, o'z-o'zini baholash, shaxs dunyoqarashi, milliy va ma'naviy qadriyat

Shaxs bu ijtimoiy munosabatlarda tarkib topgan jamiyatning bir a'zosi hisoblanib, ong egasi bo'lgan individual odam: jamiyatda o'zligini anglovchi, layoqatli a'zosi sifatidagi insonning psixologik qiyofasidir. Mazkur tushuncha psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson

ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, “**homo sapiens**” - “**aqli zot**” tushunchasini ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 50 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishicha, 16 ming avlod almashgan emish. Darwin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy-sotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir.” Odamning haqiqiy ma'naviy boyligi uning mutloq haqiqiy munosabatlari boyligiga, ya'ni uning turmush va mehnat shart-sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Bu esa odam psixologiyasi va uning ma'naviy turmush boyligi, avvalo, uni o'rabi turgan mehnat jabhalari bilan aloqador bo'lgan turli-tuman va eng muhim ijtimoiy unumli mehnatda namoyon bo'ladi”. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarda namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyandalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanish va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Forobi, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiyl bo'lgan narsa shu bo'lganki, olamni, uning mohiyatini anglash uchun, avvalo, uning shu jamiyatdagi tutgan o'rni va mavqeyini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqeい, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak, lekin shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasiga birdaniga

bir xil yechimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazaridan kelib chiqadi.

Nativizm yo'naliشining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega deb e'tirof etadilar. (Lents, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki "top-toza paxta", unga hayot va undagi talablar uning qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yo'naliشning asosochilaridan biri **Dj. Lokk** (1623-1704) bo'lib, uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalar bo'lishi mumkin emas, ular xohish-tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Hayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assotsiatsiyasi ro'y beradi.

G.Leybnits (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, hattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi. Bu ikkala yirik yo'naliش o'rtasidagi tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida **F.Galton** qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differensial xususiyatlar mavjudligini "egizaklar metodi" yordamida asoslashga harakat qildi. Jadvalda Galton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidagi aniqlangan natijalardan keltirilgan.

Musiqiy qobiliyatlardagi irsiy xususiyatlar

Bolalar Ota – onalar	Musiqaga moyil	Musiqaga moyil emas
Musiqaga moyil	85 %	7%
Musiqaga moyil emas	25%	58%

Galton dan keyingi tadqiqotlarda musiqaga bo'lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta'sir qilishi aniqlandi: yumshoq, tonal yoki keskir G` qo'pol G` - tonal bo'limgan tillar. Masalan, keskinroq hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalarda

musiqani idrok qilish yumshoq, tonal tillarda so'zlashuvchi vietnamliklarning idrokidan past chiqqan.

Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning o'tishlariga javob berishga harakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Bulardan kelib chiqib, shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin.

SHAXS- ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo'lmish individdir. Shaxsga taalluqli bo'lган eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorligi, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishligidir.

Shaxsga taalluqli bo'lган fazilatlardan eng muhimi shuki, u tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib obyektiv, so'ngra shu ta'sirlarning subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq "mening hayotim", "bizning dunyo" degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorlar, an'analar, unumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilari qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'qiblanadi. Bulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, *shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib-qoidalarni qabul qiluvchi subyekt bo'lsa, jamiyat – ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.*

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli xil tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (*oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari*,

norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshqalar) bilan bog'liq bo'lishi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimida shakllanib, ular bevosa oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasiga ko'tarilsa, unda yana yangidan-yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, u o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yo vrach, yo olim bo'lib, el yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan mustaqil O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya, liberalizatsiya, ya'ni erkinlashtirish va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uninig iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriysi, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakat talablaridir.

Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar "Assalomu alaykum" deb kelishi - norma; talabaning o'qituvchi bergen topshiriqlarini bajarishi lozimligi – norma, xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma, avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rinn bo'shatishi - norma va h.k. Bu normalarni ayrim-ayrim odamlar ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilk tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi.

Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lismeni nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri obyektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, agar jamoat transportida katta mo'ysafid kishiga o'rinni bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib "ko'zini moshday qilib ochib qo'yish" ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarini u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi.

Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, u shaxsning konkret hayotiy vaziyatdagi huquq va burchlardan iborat harakatlari majmuyini bildiradi.

Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birga o'sha oliygoh ichki tartib-intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholash talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyatda bo'lish, dekanatning bergen jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan "farzandlik" roli talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra kimdir "tartibli, bama'ni, fozil, axloqli" deyilsa, kimdir "be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi" degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqeyi - statusi ham turlichcha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulayroq va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko'pchiligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda shaxs - ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshidan kechirishi mumkin. Masalan, sirtdan tahsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonaga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi: bir tomondan, talabalik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlari oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish. Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir-biriga zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota-onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon tadbirkor; tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z-o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo, uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlariga, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy xulq shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning

oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz – “MEN” obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

“Men” obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va sifatlari to'grisidagi tasavvurlarining shakllanish jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni inson tabiat shunday, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, noma'qul sifatlarni anglamaslikka, ularni "yashirishga" harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi. Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli hil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi, lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Men" obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odamning o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qilishi jarayoni psixologiyada *refleksiya* deb ataladi. Uning mohiyati - aynan o'ziga o'xshash odamlar orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish , jonlantirish. Refleksiya “Men” obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo'lib, uning qayergadir shoshayotgaligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, xayoli boshqa yerda

turganligidan bilib olasiz va shu orqali ayni shu paytda “mahmadona, laqmaroq” bo’lib qolganligingizni sezasiz. Keyingi safar shu o’rtogingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo’l qo’ymaslik uchun “O’rtoq, shoshmayapsanmi?” deb ham so’rab qo’yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya’ni suhbatdosh o’rniga turib, o’zingizga tashlangan nazar (“men unga qanday ko’rinyapman?”) - refleksiyadir.

Shaxsning o’zi haqidagi obrazi va o’z-o’zini anglashi yosh va jinsiy o’ziga xoslikka ega. Masalan, o’ziga nisbatan o’ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o’smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo’ladigan "kattalik" hissi qizlarda ham, o’smir yigitchalarda ham nafaqat o’ziga, balki o’zgalar bilan bo’ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi “Men” - obrazining yaxshi va ijobiy bo’lishi ko’proq bu obrazning ayollik sifatlarini o’zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlarining o’zida ayni paytda mavjudligiga bog’liq bo’lsa, yigitlardagi obraz ko’proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog’li uyg’un ekanligiga bog’liq bo’ladi.

Shuning uchun ham o’smirlikda o’g’il bolalardagi bo’yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan “men” obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdan go’zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor-yo’qligiga bog’liq holda “men” obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo’lgan ayrim toshmalar yoki shunga o’xshash fiziologik nuqsonlar ko’pi salbiy emotsiyalarga sabab bo’lsada, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlaring o’ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

“Men” obrazi asosida har bir shaxsda o’z-o’ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo’lishi mumkin.

O’z-o’ziga nisbatan baho - turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog’liq holda turlicha bo’lishi mumkin. Ya’ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta’sirida - aksincha pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga

bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, mакtabga bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni, bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin adekvat, to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doim tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilarni chetroqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchszilik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xattiharakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borliqdan "qochishga" intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'z-o'ziga baho o'ta yuqori berish ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paylo bo'ladigan psixologik holat "noadekvatlik effekti" deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, uquvsizklarni sezganda ham buning sababini o'zgalardan deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham, masalan, "xalaqit berdi-da", "falonchi bo'lmanida" kabi bahonalar ko'payadi. Ya'ni nimaiki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar "oyog'i yerdan uzilgan", "manmansiragan", "dimog'dor" kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho - shaxsni o'rab turganlar - ota-onas, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni, yaqinlarning o'rini va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'grilashga o'rgatilgan bo'ladi. *Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi* - **referent** guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga qulq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi, masalan, ota-onas, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar yoki noreal, xayoliy kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar ideal bo'lishi mumkin. Buning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho - o'z-o'zini baholashning yuksak darjasini hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik,adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash hislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o'sha yuksak o'z-o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir.

Demak, *o'z-o'zini baholash o'z-o'zini tarbiyalashning muhim mezonidir.* O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa quyidagilar kiradi:

- o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya obyekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);
- *o'z-o'zini ishontirish* (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);

- *o'z-o'ziga buyruq berish* (tig'iz va ekstremal holatlarda, maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati);
- *o'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya* (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul ustanovkalarni shakllantirish),
- *ichki intizom* - o'z-o'zini boshqarishiing muhim mezoni, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korrektsiya qilish va bajarish uchun zarur sifat. Yuqoridagi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtayi nazardan o'z-o'zi bilan amalga oshiriladigan *ichki dialog* alohida o'rinni tutadi. *O'z-o'zi bilan dialog* - oddiy til bilan aytganda, o'zi bilan o'zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalda oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim regulyativ rol o'yndaydi.

E. Klimov bunday dialogning uch bosqichini ko'rsatib o'tadi :

Shaxs autodialogining muhim belgilari

Ichki dialogning shakllanganlik darajasi	Bosqichlari	Ichki dialogning darajaviy belgilari (autokommunikatsiya)
Oliy daraja	6-bosqich	Shaxsiy mazmundagi dialog (o'zidagi shaxsiy sifatlarni muhokama qilish, shaxsiy mulohaza)
	5- bosqich	Hodisa va narsalarga bog'liq bo'lgan sifatlar xususidagi ichki dialog
O'rta daraja	4- bosqich	Shaxsiy sifatlar muhokamasiga qaratilgan savollar - o'ziga talablar
	3- bosqich	Boshqalarning baholari ta'siridagi ichki mulohazalar, shaxsiy ahamiyat kasb etgan o'zgalar fikrlari asosida ichki dialog
Quyi daraja	2- bosqich	Shaxsiy sifatlarga aloqador bo'limgan o'zgalar fikrlari asosidagi dialog, hodisalar va narsalarga aloqador fikrlar

	1- bosqich	Kimdir nima haqidadir gapirishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan tasavvurlar, aniq fikr yoki munosabat yo'q. Autokommunikatsiyaga hojat yo'q.
--	------------	--

Demak, shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning obyektivligiga bog'liq tarzda o'z-o'zi bilan muloqotga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o'zini nazorat qila oladi, shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham o'ziga xolis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki arzimagan xatolik uchun o'z "ich-etini eb tashlaydi". Bu o'sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

Shaxs, uning dunyoni bilish, o'zini va atrofidagi insoniy munsabatlarni bilish, tushunish va o'zaro munosabatlar jarayonida o'zidagi takrorlanmas individuallilikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog'liq ayrim jihatlarini tahlil qilish bizga umumiyl ravishda shaxs - jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi, ya'ni, u tug'ilgan ondan boshlab o'ziga o'xshash insonlar qurshovida bo'ladi va uning butun ruhiy potensiali ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo'ladi. Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, hali gapirmay turib, odam bolasi o'ziga o'xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko'rinishlarining faol obyekti va subyektiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani, jamiyatga qo'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi. Demak, sotsializatsiya yoki ijmtimoijylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot -faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, *ijtimoiylashuv* - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va

muomalasida uni ko'rsatishi kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olish jarayonidir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan sub'yektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan shart-sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog'cha, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliygochlari, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlar kiradi.

Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda oila va mahallaning roli katta. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bor. Oila bilan bir qatorda mahalla ham muhim tarbiyalovchi-ijtimoiylashtiruvchi rol o'ynaydi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan yana qiz qidiriladi. Shuningdek, yana bir muhim ijtimoiylashuv o'choqlaridan biri ta'lim maskanlaridir. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtiriladi.

Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli - bu uning hayotda o'z o'rmini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, shaxsning yo'nalganligi nisbatan turg'un, barqaror motivlar majmuyiga, masalasiga ham fanda katta e'tibor beriladi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan va real vaziyatlarga ega bo'lishlik shaxsning yo'nalganligi deb ataladi. Yo'nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1. Mas'uliyat.***
- 2. Maqsad va ideallar.***
- 3. Qiziqish va dunyoqarash.***

4. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli.

Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosi ularda xurfikrlilikni va yangicha dunyoqarashni shakllantirishdan tashkil topadi. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartirishda ma'naviyat va ma'rifat assosiy o'rinni egallaydi. Ma'rifat insonning tabiat, jamiyat va insonlar to'grisidagi ma'lumotlari majmuyidir. Ularning mazmuni shaxs dunyoqarashining mazmun va mohiyatini belgilaydi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirshida oilaning o'rni alohida ekanligi ta'kidlangan. Keyingisi mafkuradir. Har bir davlatning o'z mafkurasi bo'ladi va u shaxs ijtimoiylashuviga, uning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sanaladi.

AMALIY MASHGÜLOT UCHUN KO`RSATMALAR:

Asosiy muammo “*Shaxs tushunchasi, shaxsning ijtimoiylashuvi*”, “*Men*” obrazi va o'z-o'ziga baho berish, shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va uning turlari”ni aniqlashga qaratilgan faoliyatni tashkillashda jamoaviy ishlash usulidan foydalaniladi.

1-topshiriq. Bilimni tekshirish uchun testlarga javob bering.

1. Shaxs bilan jamiyat munosabatlarini ifodalovchi yo'nalishlar:

- A) nativism, empirism; B) negativism, empirism;
- V) empirism, conformism; G) negativism, conformism.

2. Shaxs bilan jamiyat munosabatlarining ifodalanmasligi:

- A) nativism, empirism; B) negativism, empirism;
- V) empirism, conformism; G) negativism, conformism.

3. Jamiyat o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablari nimadir?

- A) ijtimoiy sanksiya; B) ijtimoiy rol;
- V) ijtimoiy norma; G) ijtimoiy ustakovka.

4. Jamiyat o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlarini nazorat

qiluvchi jazo va rag'batlantirish tizimi nimadir?

- A) ijtimoiy sanksiya; B) ijtimoiy rol;
- V) ijtimoiy norma; G) ijtimoiy ustanovka.

5. Shaxsning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlar majmui:

- A) ijtimoiy sanksiya; B) ijtimoiy rol;
- V) ijtimoiy norma; G) ijtimoiy ustanovka.

6. Shaxsning aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirish nimadir ?:

- A) refleksiya; B) persepsiya; V) apatiya; G) emosiya.

7. Shaxs tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot-faoliyat jarayonida uni o'zlashtirish jarayoni:

- A) refleksiya; B) sosializasiya; V) apatiya; G) emosiya.

8. Shaxs ijtimoiylashuvi institutlari:

- A) oila, bog'cha, maktab, tashkilotlar, mahalla;
- B) oila, bog'cha, maktab, mehnat jamoalari, mahalla;
- V) oila, bog'cha, maktab, nodavlat tashkilotlar, mahalla;
- G) oliygoh, bog'cha, maktab, mahalla.

9. Shaxsning ijtimoiy xodisalarni idrok etish, qabul qilish va boshqalar bilan munasabatlar o'rnatishga qaratilgan ruhiy ichki hozirligi:

- A) ma'naviyat, ma'rifat; B) mafkura;
- V) dunyoqarash; G) ijtimoiy ustanovka.

10. Oddiy ehtiyojlar asosida ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar:

- A) ijtimoiy ustanovkalar; B) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar;
- V) elementar ustanovkalar; G) qadriyatlar tizimi.

11. Vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy ob'yektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar:

- A) ijtimoiy ustanovkalar; B) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar;

V) elementar ustanovkalar; G) qadriyatlar tizimi.

12. Shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydigan ustanovkalar:

A) ijtimoiy ustanovkalar; B) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar;

V) elementar ustanovkalar; G) qadriyatlar tizimi.

2-o'quv topshiriq. Klaster uchun vazifa: *ijtimoiy norma, ijtimoiy rollar, ijtimoiy sanksiyalar, ijtimoiy mavqe, ijtimoiylashuv, ijtimoiylashuv maskanlari.*

Klaster texnikasining qoidasi bilan tanishadi va berilgan vazifani bajaradi.

Klaster texnikasining qoidasi:

- Klaster - parchalanish, maydalanish ma'nosini anglatadi.
- Mavzudan chiqqan va chiqmagan holda so'z o'zagining ma'no mazmunini davom ettiramiz. So'zlar tarmoqlanadi.
- Klaster uslubi darsning bir qismida (boshida, o'rtasida, oxirida) qo'llaniladi.
- Guruhlarga bir xil savol berilsa, tarmoq bajarilgandan so'ng bir xil terminlar o'chiriladi, kimda o'chirilmagan terminlar ko'p qolsa, o'sha gruppa g'olib hisoblanadi.
- O'qituvchi o'z variantiga ega bo'lishi kerak.
- So'zlarning klassifikatsiyasi ro'y bermasligi kerak.

3-o'quv topshirig'i. Ushbu jadvalni to'ldiring. Ijtimoiylashuv maskanlari




4-o'quv topshiriq. "Blits-so'rov" asosida jadvalni to'ldiring

№	Savollar	Javoblar
1.	Shaxs va jamiyat muammosida qancha yo'nalishlar mavjud	
3.	Empirizm nazariyasi tarafdarlarining maqsadi nimadan iborat?	
2.	Nativizm tarafdorlari g'oyasining mohiyati nimadan iborat?	
4.	Ijtimoiy rol deb nimaga aytildi?	
5.	Ijtimoiy mavqe deb nimaga aytildi?	
6.	Ijtimoiy sanksiyaga ta'rif bering	
7.	Ijtimoiylashuv jarayonini tushuntirib bering.	
8.	Ijtimoiylashuv maskanlarini sanab bering.	
9.	Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini qanday omillar o'zgartiradi?	

5-o'quv topshiriq.

Shaxs ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillarni jadvalda ko'rsating.



Psixologik test o'tkazish

6-topshiriq. Psixologik test o'tkazish. (N.Raydasning o'ziga ishonch testi):

Yo'riqnomा: Sizga xulq-atvorning 30ta har xil namunalari taqdim etilgan. Iltimos, ushbu xulq-atvor sizga to'g'ri kelish yoki kelmasligini quyida keltirilgan mezon asosida belgilang.

“5”- ha, albatta, bu menga to'g'ri keladi;

“4”- bu menga to'g'ri kelsa kerak;

“3”- bilmadim, javob berishga qiyalyapman;

“2”- unchalik to'g'ri kelmasa kerak;

“1”- yo'q, bu menga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

1. Ko'pchilik odamlar menga qaraganda, tajovuzkorroq va o'zlariga ko'proq ishonadilar.
2. Men o'zimning tortinchoqligim tufayli uchrashuvga taklif qilishsa, qabul qilolmayman.
3. Kafeda tortilgan taom meni qoniqtirmasa, men ofitsiantga shikoyat

qilaman.

4. Meni haqorat qilishsa ham men odamlarni nafsoniyatiga tegib ketishdan o'zimni olib qochaman.
5. Sotuvchi ko'p aziyat chekib menga ko'rsatgan tovari yoqmasa, unga yo'q deyish menga og'ir.
6. Menden biror narsani qilish(bajarish)ni iltimos qilishsa, men albatta bu nima maqsadda ekanligini aniqlayman.
7. Men kuchli dalil va asoslardan foydanishni afzal ko'raman.
8. Men ko'pchilik odamlar kabi birinchilar qatorida bo'lishga harakat qilaman.
9. Rostini aytganda, odamlar menden ko'pincha o'z manfaatlari uchun foydalananadilar.
10. Men notanish odamlar bilan bo'lган muloqotdan zavq olaman.
11. Men ko'pincha xushro'y erkaklarga yaxshiroq nima deb gapirishni bilmayman.
12. Idoralarga telefon qilish kerak bo'lsa, men o'zimda jur'atsizlikni his qilaman.
13. Meni ishga yoki o'qishga qabul qilishlarini yuzma-yuz suhbat orqali so'ragandan ko'ra, yozma iltimos bilan murojaat qilishni afzal ko'raman.
14. Men sotib olingan narsani qaytarib berishdan uyalaman.
15. Agar meni yaqin va hurmatli qarindoshim jahlimni chiqarsa, jahlim chiqqanini namoyon qilishdan ko'ra, hissiyotimni yashiraman.
16. Men axmoq bo'lib ko'rinishdan qo'rqib, savol berishdan o'zimni olib qochaman.
17. Men bahslarda ba'zan hayojonlanib, titrab ketaman, deb qo'rqaman.
18. Agar mashhur va hurmatli ma'ruzachi bildirgan fikrning noto'g'rilingini bilsam, auditoriyani meni eshitishga majbur qilaman.
19. Men sotib olayotgan narsaning bahosi ustida bahslashish va savdolashishni yomon ko'raman.
20. Agar men kerakli va arzigelik biror ish qilsam, bu haqda boshqalar

bilishiga harakat qilaman.

21. Mening his-tuyg'ularim ochiq va samimiyyidir.
22. Agar kimdir men haqimda g'iybat qilayotgan bo'lsa, men u bilan shu haqida gaplashib olishga harakat qilaman.
23. Men ko'pincha yo'q deb javob qila olmayman.
24. Men hissiyotlarimni jilovlay olaman. Har xil janjallar qilmayman.
25. Men tartibsizlik va yomon xizmatlardan shikoyat qilaman.
26. Menga xushomad qilishganda, men nima deb javob qaytarishni bilmay qolaman.
27. Agar teatrda yoki ma'ruza paytida suhbatlashib halaqit berishsa, men ogohlantiraman.
28. Kimdir mendan oldin navbatda turishga harakat qilayotgan bo'lsa, u mening qarshiligimga uchraydi.
29. Men har doim fikrimni bildiraman.
30. Ba'zan men mutloq hech narsa deyolmayman.

Kalit:

- 1. 3, 5, 6, 7, 8, 10, 18, 20, 21, 22, 25, 27, 28, 29** savollar bo'yicha olingan ballar yig'indisi hisoblanib, natijasiga 72 soni qo'shiladi.
- 2. 1, 2, 4, 9, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 19, 23, 24, 26,** 30 savollar bo'yicha olingan natija birinchi natijadan ayiriladi.

Natijani tahlil qilish

0-24 ball – o'zlariga mutlaqo ishonmaydilar. Har bir xatti-harakatlarini o'ylab qiladilar. Faqat boshqa insonlarning buyurgan ishlarini bajaradilar. Bunday insonlar hatto o'z soyalaridan ham qo'rqedilar.

25-48 ball – o'ziga ishonchidan ko'ra ishonchsizlik kuchliroq. Bunday insonlar kimlarningdir maslahatlari bilan o'zlariga ishonishlari mumkin. Ular har doim o'zgalarning rag'batiga ehtiyoj sezadilar.

49-72 ball – o'ziga ishonch darajasi o'rtacha. Bunday insonlar o'zlariga ishonadilar va boshqalarning ularga to'g'ri ish qilayotganlarini uqtirish shart emas.

73-96 ball – o’ziga ishonadi. Ular har doim to’g’ri ish qilayapman, deb o’ylaydilar. Qaysi holatda xato qilayotganlarini juda yaxshi biladilar. Ularga boshqa odamlarning fikri mutlaqo kerak emas.

97-120 ball – o’ziga bino qo’yan. Odatda bunday kishilar xudbin va mag’rur bo’ladilar. Chunki ular o’zlarini har doim haq deb o’ylaydilar. Hech bir inson ularning nohaq ekanliklariga ishontira olmaydilar.

7-MAVZU. SHAXS FAOLIYATI VA UNING INDIVIDUAL- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: XARAKTER, TEMRERAMENT, QOBILIYATI.

TAYANCH IBORALAR :

Shaxs va uning faolligi, ijtimoiy xulq motivlari shaxs motivatsiyasi, aqliy harakatlar, pertseptiv, mnemik faoliyat, firklash faoliyati, imajitiv, tashqi faollik, ichki faollik, shaxs iqtidori va qobiliyatları, irodaviy sifatlar, emotsiya, iste'dod, psixologik struktura, juz'iy va umumiyl davrlar, o'smirlik davri, egotsentrizm, o'spirinlik davri, attraksiya, simpatiya

Shaxs va uning faolligi. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvshi, o’z-o’zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvshi shaxsga xos bo’lgan eng muhim va umumiyl xususiyat bu uning faolligidir. Faollik lotincha “astus” - harakat, “astivus” faol so’zlardan kelib shiqqan. Shaxsning hayotdagi barcha qattiharakatlarini namoyon etishini tuchuntiruvchi kategoriadir. Bu - o’sha oddiy qo’limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan boqliq elementar harkatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish paytlarimizda amalga oshiriladigan mavhum fikrlashimizgacha bo’lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarmizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o’z o’zini anglashi muammolari uning faolliga, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashiga aloqador sifatari orqali bayon etiladi.

Fanda inson faoligining asosan ikki turi farqlanadi:

1. Tashqi faollik - bu tashqaridan va o'z ichki istak-xohishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, u mashqlarimizning harakatlari orqali bayon etiladi.

2. Ichki faollik - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (modda almashinushi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda ikkinchi tomondan bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinxmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani olaylik:

Uzoq ayriliqdan so'ng ona o'z farzandi visoliga etadi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini silashi, ko'zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko'rsak, ichki faollik o'sha ko'z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog'inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar) ko'rib idrok qilgandagi o'zaro bir-birlariga intilishni ta'minlovshi ishki, bir qarashda ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan emotSIONAL holatlarda namoyon bo'ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo'lsak ham, uni ifodalangan rasmini ko'rsak ham, taxminan qanday jarayon keshayotganini tasavvur qilishimiz mumkin.

Demak, ikkala turli faollik ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashqil etadi. Bir qarashda bir aniq shaxsga va uning ehtiyojlariiga bog'liq bo'lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, shaxsning jamiyat bilan bo'ladigan murakkab va o'zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi.

Inson faolligi “*harakat*”, “*faoliyat*”, “*xulq*” tuchunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni *faoliyat* deb yuritiladi. Faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib shiqib hamda tashqi

olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu yosh bolalarning real predmetlar mohiyatini o'z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir, ya'ni *o'yin faoliyati*, bu moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, bu rekordlarni ko'paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o'xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lib turadi.

Faoliyat turlari har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha narsaga - predmetga qaratilgani uchun ham faoliyat predmet harakatlar majmuyi sifatida tasavvur qilinadi. **Predmetli harakatlar** tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o'zgarishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatiga o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo'ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvshi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi.

Tashqi faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtayi-nazaridan *ichki-aqliy*, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib shiqadi.

Dastlab predmetli tashqi faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o'zicha gapirishga urinib, o'ylaydigan, mulohaza ortiradigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi.

Aqliy harakatlar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiriladigan turli-tuman harakatlardir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarini ham o'z ishiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

Pertsertiv ya'ni bo'lar shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi.

Mnemik faoliyat - narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materiallarning eslab qolishi, esga tushirishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog'liq murakkab faoliyat turi.

Firklash faoliyati aql, fahm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Imajitiv - (obraz so'zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo'ladi. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish ro'y bergan bo'lsa, bunday jarayonni psixologiyada *interiorizatsiya* deb ataladi, aksincha aqlda shakllangan g'oyalarni bevosita tashqi harakatlarga yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishi *eksteorizatsiya* deb yuritiladi.

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, shunday bo'lishi mumkin, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo'nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o'tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy til bilan *malaka hosil bo'ldi* deyiladi. Agar malakalarimiz qat'iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlasa, biz buni **ko'nikmalar** deb ataymiz. **Ko'nikmalar - doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi.** Ko'nikma va malaka o'zaro bog'liq bo'ladi. Ikkalasi ham mashqlar va qaytarishlar vositasida mustahkamlanadi. Agar faqat malakani oladigan bo'lsa, uning shakllanish yo'llari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- oddiy namoyish etish yo'li bilan;
- tushuntirish yo'li bilan;

- ko'rsatish va tushuntirishni uyg'unlashtirish yo'li bilan.

Muloqot - shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insonda kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlardan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (*verbal*) va nutqsiz vositalar (*noverbal*) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

O'yin - u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutilmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat me'yorlari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. Bola toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab yetolmaydi.

O'qish - faoliyati ham shaxs kamolotida katta rol o'ynaydi va ma'no kasb etadi. Bu shunday faoliyatki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Mehnat qilish - eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga xissa qo'shishdir.

Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada «motiv» va “motivatsiya” tuchunchalari ishlataladi.

“**Motivatsiya**” tuchunchasi “motiv” tuchunchasidan kengroq ma'no va mazmunga ega. Motivatsiya - inson xulqi-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuyini bildiradi. Bu tuchuncha u yoki bu shaxs xulqni tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlataladi, ya'ni “nega? nima maqsadda?” degan savolarga javob qidirish demakdir. Demak, u xulqining motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqiy o'zini tutishi sabablarini o'rghanish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lган narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihatni farqlanadi:

a) **ichki sabablar** - ya'ni xatti-harakatlar egasining subyektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, masalalar va hokazo).

b) **tashqi sabablar** - ya'ni faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda **shaxsiy disrozitsiyalar** deb ham ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning haqiqiy sababini o'zi ham tuchunib yetmaydi. "Nega?" degan savolga "O'zim ham bilmay qoldim, bilmayman" deb javob beradi. Bu anglanmagan disrozitsiyalar yoki **ustanovkalar** deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunday vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni disrozitsiya anglangan, ongli deb hisoblanadi.

Shu nuqtayi-nazardan motiv aniqroq tuchuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan moyillikni, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo'ladi va aynan ularning tabiatini va zaruratiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi. Har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. **Biologik ehtiyojlar** - bu fiziologik (tashnalik, ochlik, uyqu) jinsiy moslashuv ehtiyojlari.

2. **Ijtimoiy ehtiyojlar** - - bu mehnat qilish, estetik va axloqiy-ma'naviy ehtiyojlar.

Motivlarning turlari. Turli kasb egalari faoliyati motivlarni o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi ahamiyatga ega. Shunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida muvaffaqiyatga erishish motivi bo'lib, bunday nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar –D. Maklelland, D. Atkinsonlar hisoblanadi. Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishni ta'minlovshi, asosan ikki turdag'i motiv bor: ***muvaffaqiyatga erishish motivi*** va ***muvaffaqiyatsizliklardan qochish motivi***, faqat muvaffaqiyat bilan ishlaydiganlar oldindan shunday ishonch bilan ish boshlaydilar, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishishlari uchun oliy maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma'qullashlarini biladilar. Bu yo'lida ular nafaqat o'z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlarini-tanish-bilishlar, mablag' kabi omillardan foydalanadilar.

Boshqacha xulq-atvorni muvaffaqiyatsizliklardan qoshish motiviga tayangan shaxslarda kuzatish mumkin. Masalan, ular birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. Shu tufayli ularda ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, ressimizmga o'xhash holat ko'zatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir-oqibat ular baribir muvaffaqiyatsizlikka uchrab, "O'zi sira omadim yurishmadi-da" degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffaqiyatli tugatgach, ko'tarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishadi, ikkinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffaqiyatsiz yakunlanishidan qat'iy nazar, ruhan tushkunlik va og'rinish hissi bilan ishga kirishadilar. Bu o'rinda talabchanlik degan sifatning roli katta. Motivlar tizimi kelib shaxsning mehnatga, odamlarga va o'z-o'ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi xarakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini biror mas'uliyatli ish oldidan o'zimizni tutishimiz va muvaffaqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo'ladi.

Masalan, mas'uliyatli imtihon topshirish jarayonini olaylik. Ba'zi talabalar imtihon oldidan qayg'uradilar, hatttoki qo'rqedilar ham. Ular uchun imtihon topshirish juda katta tashvishday. Boshqalar bu jarayonni bosiqlik bilan boshdan

kechirib, hayajonlanayotgan bo'lsalar ham buni boshqalarga bildirmaydilar. Yana uchinchi toifa kishilari umuman beg'am tarzda bo'lib sira koyinmaydilar. Tabiiy shunga muvofiq tarzda har bir toifa vakillari ishning muvaffaqiyati va faoliyatining samarasi turlicha bo'ladi. Bunga har bir shaxsdagi **da'vogarlik darajasi** ham ta'sir qiladi. Da'vogarlik darajasi yuqoriroq bo'lganlar bilgan va bilmaganini isbot qilishga urinsalar, ana shunday darajasi pastlar bor, bilganini ham yaxshi aytib berolmay, yana o'qituvchi bilan tortishmaydilar ham.

Shuning uchun ham har birimiz ijtimoiy faoliyat motivlaridan tashqari, shaxsiy xislatlarimizni ham bildirishimiz va yengil tarzda xulqimizni boshqara olishimiz kerak.

Shaxsning individual-tirologik xususiy klassifikatsiyasi. Har bir shaxs o'ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir-biriga aynan o'xshash bo'lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi dunyosi, ya'ni qiyofasi, bo`yi-basti bilan boshqa biror kimsaga o'xhashi mumkin, lekin fe'li, mijoz va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtayi nazaridan aynan bir xil insonlar bo'lmaydi. Hattoki, olimlar bitta tuxumdan rivojlangan egizaklarda ham juda ko'plab jihatdan aynan o'xshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyatsiyada esa ba'zi tafovutlar aniqlangan.

Shaxs - qaytarilmas, u o'z sifatlari va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosidan uning individual psixologik xususiyatlari majmuyi yotadi. Shu o'rinda biz yuqorida ta'rif bergan shaxs tuchunchasi bilan yonma-yon ishlataidigan yana ikki tushunchaga izoh berish o`rinli deb hisoblaymiz. Bu "*individ*" va "*individuallik*". *Individ* tushunchasi umuman "odam" degan tushunchani to`ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mayjudligini tasdiqlaydi va uni bir tomondan boshqa odamlardan farqlovshi belgi va xususiyatlarini o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, o'ziga va o'ziga o'xshashlarga xos bo'lgan umumiyligi va xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ-insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriadir. "*Individuallik*" - yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o'ziga xos xususiyatlar majmuyini

o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsning individualligiga, uning qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, irodaviy sifatlari, emotsiyalari, xulqiga xos motivatsiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shu qayd etib o'tilgan kategoriylar shaxsdagi individuallilikni ta'minlovchi kategoriyalardir. Uning ma'nosi shundaki, bo`yi, eni, yoshi, sochning rangi, ko'z qarashlari, barmoq harakatlari va shunga o'xshash sifatlari bir xil bo'lgan insonlarni topish mumkin, lekin xarakteri, qobiliyatlari, temperamenti va faoliyat motivatsiyasi, boshqalarga aloqador sifatlari majmuyi bir xil bo'lgan odamlarni topib bo'lmaydi. Ular individualdir.

Qobiliyatlar - shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko`rsatkichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

Temperament - insonning turli vaziyatlarda narsa, hodisa, holatlar va insonlarning xatti-harakatlariga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan sifatlarini o'z ichiga oladi.

Xarakter - shaxsning alohida insonlar va insonlar guruhi o'z-o'ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttirilgan sifatlarini o'z ichiga oladi.

Irodaviy sifatlar - har birimizning o'z oldimizga maqsad qo'yib, unga yetishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishimizni ta'minlovchi ma'lum sifatlarimiz majmuyini o'z ichiga oladi.

Emotsiya va motivatsiya esa atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalar, bizni o'rab turgan odamlar va ularning xatti-harakatlarini ruhan qanday qabul qilib, ularga bildiradigan hissiy munosabatlarimizni bildiruvchi sifatlarimiz bo'lib, ular ayni vaziyatlardagi real xotiralarimizdan va ularning ongimizdagi aks etishidan kelib chiqadi.

Demak, individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimiz yo`naltirilgan muhim predmet ekan. Chunki aynan ular bizning turli faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi individual uslubimizga bevosita aloqador. Kimdir juda chaqqon, tez ish qiladi,

lekin sifatsiz, kimdir juda yaxshi qoyilmaqom ish qiladi, lekin juda sekin, kimdir ishga yuzaki qarab, nomiga uni bajarsa, boshqa bir odam unga butun vujudini va e'tiqodini baxsh etadi, tinimsiz izlanadi va jamiyat uchun manfaat qidiradi. Shuning uchun ham individuallikning faoliyat va muloqotdagi samarasini inobatga olib, eng muhim individual -psixologik xususiyatlarni alohida o'rganamiz.

Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari. Shaxsning individual xususiyatlari haqida gap ketganda, ularni tug`ma, biologik xususiyatlariga alohida e`tibor berilali. Chunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan-biologik yaxlitlik, tug`ma sifatlarni o'z ichiga olgan subetrat individ hamdir. Temperament va layoqatlarlar individni dinamik o'zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta'minlovshi sifatlarini o'z ichiga oladi. Bu sifatlarning ahamiyati shundaki, ular shaxsga keyin ontogenetik taraqqiyot jaraonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo'ladi. Olam temperamentiga ajoyib sifatlarning o'ziga xosligi shundaki, ular odam bir faoliyat turida ikkinchisiga, boshqa bir malakalarni boshqasiga almashtirgan paytlarida reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta'minlaydi va shu nuqtayi nazardan qaraganda **TEMPERAMENT** - shaxs faoliyati va xulqining dinamik o'zgaruvchan va emotsional tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuyidir.

Temperament xususiyatlari shaxsning ichki tuzilmasi bilan bevosita bog'liq. bo'lib, ularning namoyon bo'lishi uning konkrret vaziyatlarga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o'zini qanday tutishini belgilab beradi. Masalan, inson turli vaziyatlarda o'zini turlicha tutadi. Oliy o'quv yurti talabalari safiga qabul qilinganligi- to'g'ri,sifatli axborotni oshirgan bolaning o'zini tutishi yoki hayotning og`ir sinovlari -yaqin kishining o`limi, ishdan haydalish, do`stning xoinligi u paytda odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning temperamentlaridan kelib shiqadi. Shuning uchun ham ikkala vaziyatni ham kimdir og`ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o'zini yo`qotgudek darajada his-xayajon bilan boshidan kechiradi. Shuning uchun ham temrерamentning shaxs shakllanishi va ijtimioy muhitda o'ziga xos mavqeyini egallashiga ahamiyati juda katta. O'zini

bosib olgan, hayot qiyinchiliklarini sabr-bardosh bilan ko'taradigan insonning odamlar orasidagi obro'si ham baland bo'ladi. Bu uning o'z-o'ziga nisbatan hurmatini ham orttiradi. Ishga, chidamlilikka, va narsalarga munosabatini takomillashtirib borishga imkon beradi. Temperamentning yana bir ahamiyatlari jihat shundaki, u har xil voqealar va vaziyatlarni, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarni "yaxshi-odam", "ahamiyatli-ahamiyatsiz" mezonlari asosida ajratishga imkon beradi. Ya'ni, temperament odamning ibtidoiy obyektlarga nisbatan "sezgirligi"ni ta'minlayli, professional mahorat va kasb malakasining oshib borishiga yordam beradi.

Akademik I.Pavlov temperament xususiyatlarini belgilab beruvchi oliy nerv tizimi xossalariini ajratgan edi:

K u ch - ya'ni nerv tizimining kuchli qo'zg'atuvshilar ta'siriga bardoshi, shunga ko'ra odamlardagi mehnatga yaroqlilik, chidam kabi sifatlarning namoyon bo'lishi.

Muvozanatlashganlik - ya'ni asabdagi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining o'zaro mutanosibligi, shunga ko'ra, o'zini tuta olish, bosiqlik, kabi sifatlar va ularga teskari sifatlarning bo'lishi.

Harakatchanlik - ya'ni qo'zgalish va tormozlanish jarayonlaridagi o'zaro almashinish jarayonining tezligi va harakatchanligi ma'nosida.

Barcha temperamentlarni kariotipda to'rt turga ajratish rasm bo'lgan: **I. Xolerik. 2.Melanxolik. 3.Sangvinik. 4. Flegmatik**

Xolerik temperamenti - hissiyotning tez va kuchli qo'zg'aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Xolerik temreramentli kishilarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko'rini turadi. Xoleriklar qo'zg'aluvchanlik va tajanglikka moyil bo'ladilar. Bunday temperamentli kishilar chaqqon, harakatchan va serg'ayrat bo'ladilar. Bunday kishilar ishga kirishsalar, oxiriga yetkazadigan bo'ladi. Faollik va yetakchilik ularagi asosiy xususiyatlardan sanaladi.

Melanxolik temperament - hissiyotning sekin, lekin kuchli qo'zg'aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Melanxoliklar barqaror,

davomli tashqi ifodasi juda zaif bo'ladi. Melanxolik temperamentli kishilar sustkash bo'ladilar. Ular birdaniga ishga kirishmaydilar, lekin kishi bir ishga kirishsa, oxirigacha yetkazmay qo'ymaydilar. Bunday hissiyotli kishilar mo'min-qobil, yuvosh bo'ladi. Birov bilan bo'ladigan muomalada uyatchan va tortinshoq ekanligini sezdirib qo'yadi, tez xafa bo'ladi, bu xafalik uzoq vaqt davom etadi. Bir ishga tez kirishib qolmaydi, lekin kirishganda sabot, chidam va matonatli ekanligini namoyish qiladi.

Sangvinik temperamentli kishilar - hissiyotning tez, kuchli, qo'zg'atuvchanligi, lekin barqaror bo'lganligi bilan farq qiladi. Bularning kayfiyati tez-tez o'zgarib turadi. Bu xil temperamentli kishilar ildam, chaqqon, serharakat, jo'shqin bo'ladilar. Tevarak-atrofdagi voqealardan tez ta'sirlanadilar va lekin muvaffaqiyatsizliklar va ko`ngilsizliklardan uncha qattiq xafa bo'lmaydilar. Ular tez va g`ayrat bilan ishga kirishadilar, lekin ishdan tez sovuydilar. Bir zayldagi ishlarni uzoq davomli suratda bajarishga moyil bo'lmaydilar. Sangviniklar chin ko`ngildan va'da berishlari mumkin, lekin ko'pincha va'dani unutib, uni bajarmasliklari ham mumkin. Ular tez xafa bo'ladilar va tez o'zgaradilar. O'z xafaliklarini kulgu bilan almashtrishlari mumkin.

Flegmatik temperamentli kishilar - hissiyotning o'ta sekin, kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi.

Bunday kishilar odamlarni xursand qilishi yoki xafa qilishi, g'azablantirishi juda qiyin. Bu tipdagи shaxslar nihoyatda og'ir-vazmin, yuvosh, harakatlari salmoqli bo'ladi. Biror faoliyatga kirishsalar, uni qat'iyat bilan davom ettiradilar. Ko'chilikka darrov qo'shilmaydi, janjal va to'palonlardan o'zini olib qochadi. O'yin-kulguga moyil emas, hech kimga tegmaydi, hech kimni ranjitmaydi.

Xarakter va shaxs. Uni doimo biz birovlarga baho bermoqchi bo'lsak ishlatamiz. Bu so'zning ma'nosini olimlar kundalik hayotimizda tilimizda "xarakter" so'zi eng ko'p ishlatiladigan "bosilgan tamg'a" deb izohlashadi.

Xarakter shaxsdagi shunday psixologik subyektiv munosabatlar majmuyiki, ular uning borliqqa, odamlarga, predmetli faoliyatga hamda o'z-o'ziga munosabatini ifodalaydi.

Mashhur rus olimi, psixologiya fanining metodologiyasini yaratgan S.L.Rubinshteyn shaxsan o'ziga xosligi va xarakterologik tizimda uchta asosiy tuzilmalarni ajratgan edi:

1. Munosabatlar va yo'naliish shaxsdagi asosiy ko'rinishlar sifatida bu shaxsning hayotdan nimani kutgan va nimani xohlagan.
2. Qobiliyatlar ana shu tilak istaklarni amalga oshirish imkoniyati sifatida - bu olamning nimaga qodir ekanligi.

3.Xarakter imkoniyatlardan foylalanish, ularni kengaytirishga qaratilgan turg'un, barqaror tendentsiyalar, ya'ni bu olamning ulkanligi umuman, konkret shaxs misolida olib qaraydigan bo'lsa, har bir alohida obyektlar, narsalar va hodisalarga mos tarzda xarakterning turi, qirralari namoyon bo'lishining guvohi bo'lamic. Masalan, uyda katta o'zbek oilasida katta yoshli ota-onalar oldida o'ta bosiq, ko'nikuvchan, har qanday buyurilgan ishni e'tirozsiz bajaradigan kishi o'z tengdoshlari orasida o'z nuqtayi nazariga ega bo'lgan, gapga chechan, kerak bo'lsa, kamgap, dadil bo'lishi, ko'cha-jamoatchilik joylarida beg'am, loqayd, birov bilan ishi yo'q kishiday tuyulishi, o'ziga nisbatan o'ta talabchan, lekin egaist, o'z-o'ziga bahosi yuqori bo'lishi demak, xarakterning psixologik tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, uning borliqdagi obyektlar va predmetli faoliyatga nisbatan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shunga ko'ra xarakterning quyidagi tizimlari mavjud:

1.Mehnat faoliyatida namoyon bo'ladigan xarakterologik xususiyatlar - mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, mas'uliyat, dangasalik va boshqalar.

2.Insonlarga nisbatan bo'ladigan munosabatlarda namoyon bo'ladigan xarakterologik sifatlar - odoblilik, mehribonlik, takt, jonsaraklik, dilgirlik, muloqotga kirishuvchanlik, g'amxo'rlik, rahm-shavqat va boshqalar.

3.O'z-o'ziga munosabatga aloqador xarakterning sifatlari - kamtarlik, mag'rurlik, o'ziga bino qo'yish, o'z-o'zini tanqidlash, ibo, sharm-hayo, manmansirash va boshqalar.

4. Narsalar va hodisalarga munosabatlarda namoyon bo'ladigan xususiyatlar - tartiblilik, saranjom-sarishtalilik, kuchli jo'shqinlilik, ziqlalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.

Sanab o'tilgan sifatlar aslida shaxsning hayotdagi yo'naliшharidan kelib chiqadi. Chunki yo'naliш - odamning borliqqa nisbatan talabchan munosabatlarning aks etishidir. Avvalo xarakter insonning xatti-harakati va amallarida namoyon bo'ladi - odamning ongli va maqsadga qaratilgan harakatlari uning **KIM** ekanligidan dalolat beradi.

Nutqning xususiyati baland tovush yoki sekin gapirishi, tez yoki bosiqligi, emotsiонаl boy yoki jonsizligidir. U ham xrakterning yo'naliшhini belgilaydi.

Tashqi qiyofa - yuzining ochiq yoki tund ekanligi, ko'zlarining samimiш yoki johilligi, qadam bosishlari - tez yoki bosiq, mayda qadam yoki salobatli, turishi -viqorli yoki kamtargina, bularning hammasi xarakterni tashqaridan kuzatib o'rGANISH belgilaridir.

Xarakter xususiyatlari o'zgaruvchan bo'lishiga qaramay, har bir alohida shaxs va yaxlit millat o'ziga xosligini ifodalovchi shunday barqaror sifatlar bo'ladiki, ular yillar, hatto asrlarga ham dosh beradi. Masalan, bu milliy xarakterga taalluqlidir. O'zbeklar xarakterida asrlar davomida saqlanib qolayotgan samimiшlik, mehnatsevarlik, mehmonnavozlik, ibo, sharm-hayo, takalluf, kamtarlik kabi sifatlarning avloddan-avlodga o'tib kelishi misol bo'la oladi. Bu sifatlar xalq ma'naviyatining qadriyatlariga aylanib kelgan va o'zbekning o'zligini namoyon etuvshi barqaror xususiyatlardir.

Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi. Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aql - zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati

uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatgani uchun ham psixologiyani ko'proq qobiliyat tushunchasi aql-zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rghaniladi. Har bir normal odam o'zining aqli bo'lishini xohlaydi. Men aqlliman demasada, qilgan barsha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. "Aqlsiz, nodon" degan sifat esa har qanday odamni, hattoki, yosh bolani ham xafa qiladi. Yana shu narsa xarakterlovchi, ayniqsa, bizning sharq xalqlarida biror kimsaga nisbatan "o'ta aqli" yoki o'ta "nodon" iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o`rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz. "Falonchining o`g`li anchagina aqli bo'libdi, narinining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota-onasini kuydirayotgan "mish" degan iboralar aslida "aqlilik" kategoriyasi insonning yuragiga yaqin chin nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi

Ilm fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar obyeklari bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko`rsatkichni o'lchashga uringanlar. Ko'pshilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko`rsatkichlarini aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar. Sh.Srirmen faktorial analiz metodi yordamida oqilona sanab o'tilgan ko`rsatkichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatdan ham murakkab tuzilmagan holda bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko`rsatdi. Boshqa bir olim Dj.Gilford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar: analiz, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potensialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Intellektual potensial esa bir tomondan hayotlari barcha jarayonlarga, boshqa tomondan - shaxsga bevosita aloqador tushuncha

sifatida qaralgan va uning ahamiyati shundayki, u borliqni va bo'ladigan hodisalarini oldindan bashorat qilishga imkon beradi. Shu o'rinda "intellekt" so'zining lug'aviy ma'nosini tushunib olaylik. Intellekt - lotincha so'z bo'lib,"tushunish, bilish va aql" so'zidan olingan bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lshab, o'zgartirib, rivojlantirib boradi. Bu - intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Darhaqiqat, qibiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Buni biz bugungi kunimiz misolida ham his qilib turibmiz. Yangi avlod vakillari kelajagimizni XXI asr bilan bog'lagan o'gil-qizlarimizning intellekt darjasini ularning ota-bobolarinikidan ancha yuqori. Hozirgi bolalar kompyuter texnikasidan tortib, texnikaning barcha turlarini juda tez o'zlashtirib olmoqdalar. Juhon tillaridan bir nechtasini bilish ko'pchilik uchun muammo bo'lmay qoldi. Minglab topshiriqlardan iborat testlarni ham yoshlar o'zlashtirishga qiyalmayaptilar. Qolaversa, oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hamma bilsa kerak. Agar bola oilada ilk yoshligidan ma'rifiy muhitda tarbiyalansa, uning dunyoqarashi keng, xohlagan soha predmetlaridan beriladigan materiallarni juda tez va qiyinchiliklarsiz o'zlashtira oladi, hattoki bunday bolaga oliy o'quv yurtida beriladigan ayrim predmetlar mazmuni ham tushunarli, ular yanada murakkabroq masalalarni yechishni xohlaydi.

Qobiliyatlardagi tug`ma va orttirilgan sifatlar. Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifatlar tug`ma ekanligiga ishora qilinadi. Talantli olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug`ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan. Psixologiyada tug`malik alomatlari bor individual sifatlar layoqatlar deb yuritiladi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdag'i tug`ma xususiyatlardan - oliy nerv tizim faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qulqlarning biologik va fiziologik sifatlari, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari - ko'z, qulq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi),

ijtimoiy layoqat - bola tug`ilishi bilan uni o`ragan muhit ,muloqot uslublari, so`zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart - sharoitlar (ular ota-onan tomonidan yaratiladi) dir. Layoqatlilik belgisi - bu o'sha individga aloqador bo'lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyorlash asosida qabul qiladi.

Qobiliyatsizlik va, intellektning rastligi sabablaridan ham biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o`rtasida tafovut bo`lishi mumkin, Masalan, genial rassom oilasida bola tug`ildi, deylik. Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo`lishini xohlamasligi, o`ziga o`xhash qo`schi bo`lishini xohlashi mumkin. Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yuk, ijtimoiy layoqat uchun esa tabiiy, tug`ma layoqat yuk bo`lganligi sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo`lmasligi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug`ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati ana shunda. Ilk yoshlikdan bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlari rivojlantirish shart-sharoitini yaratish ishini to'g'ri yo`lga qo'yish kerak. Orttirilgan sifati shuki, bola toki bilim, malaka va ko'nikmalarni o'stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli tug`ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmasligi mumkin. Eng talantli, mashxur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotgan. Shuni ham unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo`lmaydi. Agar shaxs adashib, o'zidagi haqiqiy idrokni va layoqatni bilmay kasb tanlagan bo`lsa, tabiiy u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz bo`lib ko'rindi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'z vaqtida aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi.

Shuning uchun ham har bir ongli inson o'zidagi qobiliyat va zehnni ilk yoshlikdan boshlab, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, "yuragi chopgan" ishi bilan (shug`ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini o'stirishga imkon torib, yetuklarga erishsa, biz uni *iqtidorli* deymiz. Iqtidorli insonning o'z xatti-harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, madaniyatlariga nisbatan subyektiv munosabatdir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo`lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi

fazilatlarga ega bo'lib, o'ziga shug`ullanayotgan ishni sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba'zi o`ta iste'dodli, lekin kamharakat kishilardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonlarda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor, zero *iste'dod* - har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo`lida barcha qiyinchiliklarni yengish va yordam, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo`lga kiritilali.

Qobiliyatlarning psixologik strukturasi. Qobiliyatlar avvalombor **umumiyl** va **maxsus** turlarga bo'linali. Har birining o'z psixologik tizimi va tuzilishi bo'ladi. Shaxsning umumiyl qobiliyatları undagi shunday individual sifatlar majmuyiki, ular odamga bir qancha faoliyat sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatish va natijalarga erishishga imkoniyat beradi. Masalan, texnika oliv o'quv yurtini talabasi ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o'zlashtira oladi. Bunda unga umumiyl bilimdonlik nutq qobiliyatları, tirishqoqlik, chidam, qiziquvchanlik kabi qator sifatlar yordam beradi.

Maxsus qobiliyatlar esa ma'lum bir sohada yetuklarga yuqori ko`rsatkichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, sropt sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo`yicha ishlayotgan ishchi kishida o'ziga xos maxsus qobiliyatlar bo'lmasa bo'lmaydi.

Har bir qobiliyat o'zining tizimiga ega. Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo'lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavhum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqliroq, ijodiy faoliyat va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko'rgazmali obrazlar, estetik hislar, tilni mukammal bilishga layoqat kiradi. Pedagogik qobiliyatlarga esa - pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarmi sevish, bilimlarni o'zgalarga berish ehtiyoji kabi qator individual xossalalar kiradi. Xuddi shunga o'xshash qolgan barcha qobiliyatlar ham zarur sifatlar tizim ila tahlilni olish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi. Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo`nalishini oshib berishdir. Shuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqildi va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqla.

Qobiliatlarni o'lhash muammosi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Srirmen, Vine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiyligi shundaki, ularda topshiriqlar batareyasidan tortib, qiyinlashtiruvchi testlardan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzenkning mashxur intellekt testi 40 ta torshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu yerda vaqt mezoni muhim hisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishlash qobiliyatsizlik belgisi emas, deb boshqacharoq usullarni o'ylab topganlar. Ko'pchilik olimlar qobiliyatni o'lshashning ishonchli mezoni bu shaxslarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayon etganlar.

AMALIY MASHGÜLOT UCHUN KO`RSATMALAR:

Asosiy muammo “*Shaxs faoliyati va uning individual-psixologik xususiyatlari: xarakter, temperament, qobiliyati*” mavzusi yechimini topishga qaratilgan faoliyatni tashkillashda baxs-munozara usulidan foydalilanadi.

1-topshiriq. Mavzuni yoritishda B / BH / B texnologiyasidan foydalilanadi.

B/BH/B jadvali

T.P	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1.	Faoliyat turlari			
2.	O'quv faoliyati			
3.	Mehnat faoliyati			
4.	O'yin faoliyati			

5.	Muloqot			
----	---------	--	--	--

2- topshiriq

Motivatsiya	Tavsiflar, toifalar, ajratib turadigan belgilar va shu kabilar		
	Motiv turlari	Tavsiflari	Xususiyatlari
Ichki motivlar			
Tashqi motivlar			

Talabani baholash jadvali


Talabalar	Javoblarning aniq va ravshanligi (1,0)	Axborot ning ishonchhliligi (0,5)	Talabaning faolligi (0,5)	Umumiy ballar	Bah o
1.					
2.					
3.					

3 - topshiriq


“Nima uchun?” sxemasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to’g’ri to’rtburchak shakllardan foydalanishni o’zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko’rinishini - mulohazalar zanjirini to’g’ri chiziqlimi, to’g’ri chiziqli emasligini o’zingiz tanlaysiz.
3. Yo’nalish ko’rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo’lgan yo’nalishingizni belgilaydi.

Topshiriq: Shaxslarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini shakllantirish muammosi.



Bajarilishi:



4-topshiriq. “Aqliy hujum”, ya’ni “breynshtorming” usulidan foydalaniб, doskadagi jadvalni to’ldiring :

Shaxs qobiliyati nima? Uning qanday tuzilmasi mayjud?	Shaxs xarakteri nima? xarakter nimalarda ifodalananadi?	Shaxs temperamenti nima? Uning qanday toifalarini bilasiz?

5-topshiriq. Shaxs rivojlanishida qobiliyat, xarakter va temperament ta’sirini aniqlash uchun vazifa. Ushbu jadvalni to’ldiring.

Shaxs rivojlanishiga qobilivatning ta’siri	Shaxs rivojlanishiga xarakterning ta’siri	Shaxs rivojlanishiga temperamentning ta’siri

6-topshiriq. “Qora yashik” metodi savollari:

1. Motiv va motivatsiya tushunchalari qanday ma'noga ega?
2. Shaxs ehtiyojlari nima?

- 3.Shaxsiy dispozitsiyalar nima?
- 4.Motiv va motivatsiyalarning qanday turlari mavjud?
- 5.Ijtimoiy ustanovka qanday ahamiyatga ega?
- 6.Ijtimoiy ustanovkaning qanday komponentlari bor?
- 7.His-tuyg'u nima?
- 8.His-tuyg'uning qanday shakllari mavjud?

6-topshiriq. Psixologik test:

T.Elersning muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi testi

Yo'riqnomा: Sizga 41 ta savol taqdim etilgan, bularning har qaysisiga “ha” yoki “yo’q” deb javob bering.

1. Ikkita variantdan bittasini tanlash kerak bo’lganda, noma'lum vaqtga qoldirmasdan, tezda bittasini tanlagan ma'qul.
2. Berilgan topshiriqnı 100% bajara olmasligimni bilgach, tezda asabiylasha boshlayman.
3. Menga ish jarayonida hammasini tavakkal qilayotganimdek bo’lib ko’rinadi.
4. Agar muammoli vaziyat paydo bo’lsa, men ko’p hollarda oxirgilardan bo’lib biror qarorga kelaman.
5. Ikki kun ketma-ket ish bo’lmay qolsa men nima qilishni bilmay qolaman.
6. Ba'zi kunlarda mening muvaffaqiyatlarim o’rtacha ko’rsatkichdan past bo’ladi.
7. Bosqalarga nisbatan ko’proq o’zimga talabchanman.
8. Men boshqalarga qaraganda ko’proq hayrixohman.
9. Qiyin vazifadan voz kechganidan keyin o’zimni qattiq koyiy boshlayman, chunki bu ishda men muvaffaqiyatga erishishim mumkinligini bilardim.
10. Ish jarayonida qisqa-qisqa dam olishga ehtiyoj sezaman.
11. Tirishqoqlik bu mening asosiy fazilatim emas.
12. Ishdagи muvaffaqiyatim har doim ham bir xilda emas.

13. Hozir shug'ullanayotgan ishimga nisbatan meni ko'proq boshqa ishlar jalb qiladi.
14. Menga maqtovga nisbatan tanbeh kuchli ta'sir qiladi.
15. Meni o'rtoqlarim uddaburon deb hisoblashlarini bilaman.
16. Har qanday to'siqlar qarorimni yanada qat'iy lashtiradi.
17. Menda shuhratparastlikka moyillik tez paydo bo'ladi.
18. Qiziqib ishlamasam bu yaqqol ko'rinish turadi.
19. Ish jarayonida boshqalar yordamiga ehtiyoj sezmayman.
20. Ba'zan hozir qilishim kerak bo'lган ishni paysalga solaman.
21. Faqat o'ziga ishonish kerak.
22. Hayotda puldan ham muhimroq narsalar kam.
23. Muhim vazifani bajarish lozim bo'lganda, boshqa narsalarni o'ylamayman.
24. Ko'pchilikka nisbatan menda shuhratparastlikka moyillik kam.
25. Ta'til oxirida odatda men ishga chiqishimni bilib suyunaman.
26. Ishga ixlos bilan kirishsam, uni boshqalarga nisbatan yuqori mahorat bilan yaxshiroq bajaraman.
27. Men astoydil jon kuydirib ishlaydigan odamlar bilan tez va oson til topishaman.
28. Qiladigan ishim bo'lmasa, o'zimni qo'yarga joy topa olmayman.
29. Men bosqa odamlarga nisbatan ko'proq mas'uliyatli ishlarni bajarishimga to'g'ri keladi.
30. Qaror chiqarish mas'uliyati menga yuklatilsa, uni yaxshiroq bajarishga intilaman.
31. Do'stlarim meni ba'zan dangasa deb hisoblashadi.
32. Mening muvaffaqiyatlarim ma'lum darajada hamkasblarimga bog'liqq.
33. Rahbarning ra'yini qaytarishdan foyda yo'q.
34. Ba'zan qanday ish bajarish kerakligini bilmaysan.
35. Agar ishim yurishmasa, betoqat bo'lib ketaman.
36. Men odatda erishgan yutuqlarimga kam e'tibor beraman.

37. Boshqalar bilan ishlayotganimda, boshqalarning ishiga qaraganda, mening ishim unumli bo'ladi.

38. Boshlagan ko'p ishlarni oxiriga etkaza olmayman.

39. Ish bilan band bo'lмаган odamlarga havasim keladi.

40. Men hokimiyatga intilgan, amalparastlarga havas qilmayman.

41. Agar to'g'ri yo'lда ekanligimga ishonch hosil qilsam, o'zimning haq ekanligimni isbotlash uchun hech narsadan qaytmayman.

K a l i t:

Siz quyidagi savollarga "ha" deb javob bergan bo'lsangiz, 1 balldan olasiz:

2, 3, 4, 5, 7, 8, 9, 10, 14, 15, 16, 17, 21, 22, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 32, 37, 41.

Yana 1 balldan quyidagi savollarga "Yo'q" deb javob bergan bo'lsangiz olasiz: 6, 13, 18, 20, 24, 31, 36, 38, 39.

To'plagan ballarni hisoblab chiqing.

Natija:

1balldan 10 ballgacha –muvaffaqiyatga juda past motivatsiya;

11 balldan 16 ballgacha – o'rta darajadagi motivatsiya;

17 balldan 20 ballgacha – anchagina yuqori motivatsiya;

21 balldan yuqori – muvaffaqiyatga nisbatan juda yuqori motivatsiya

8-MAVZU. SHAXSNING DIQQATI VA BILISH JARAYONLARI:

SEZGI, IDROK, XOTIRA, XAYOL, TAFAKKUR VA NUTQ.

SHAXSNING EMOTSIONAL IRODAVIY XUSUSIYATLARI.

TAYANCH IBORALAR :

Bilish jarayonlari, professional faoliyati, professional faoliyati,xotira, figura, fon, Rubin figurasi, sezgi, sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq, analogik holat, konstantlik, anglanganlik qonuni, kutilmagan

ma'lumot, o'zgarmas ma'lumotning idrok qilinmasligi qonuni, tafakkur, insayt, konvergent va divergent tafakkur, mantiq, erkin fikrlash, nostandard fikr, tafakkurning turlari, tafakkur shakllari, tafakkur oreratsiyalari, ko'rgazmali obrazli tafakkur, mantiqiy tafakkur, konvergent tafakkur, divergent tafakkur, reproduktiv tafakkur, produktiv (ijodiy) tafakkur

Professional faoliyat shaxsdan juda ko'p bilimlarni hamda malakalarini talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab etgan shaxs (motivlar muammosi), endi o'z faoliyati va qobiliyatini boshqara bilishi va o'z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. Professional bilimdonlik shu nuqtayi nazardan shaxs umumiyligi madaniyatning shunday yo'nalishiki, unga faqat kasbiga taalluqli bo'lgan bilimlardan tashqari shu bilimlarning hosil bo'lish yo'llari va malakalarning takomillashuvini ta'minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari va ularning mohiyatini va kechishini bilish demakdir.

Ma'lumki, odamlar bir-birlaridan ko'p jihatlari bilan farq qiladilar. Masalan, ayrimlar ko'rgan kechirganlarini juda yaxshi esda olib qolib, kerak vaqtida aniq esga tushiradilar. Ba'zilar ko'zi bilan ko'rgan har qanday obyektni mayda detallarigacha bayon etish qobiliyatiga ega. Yana birlari eshitgan narsalari xususida aniqroq fikrlaydi, kimdir sodda, ravon tilga o'z his-kechinmalarini aytalisa, boshqalar - har bir hikoyaga albatta, fantaziya elementlarini ko'chirishga moyil bo'ladilar. Demak odamlarning tashqi olamdan oladigan taassurotlari va ularni ongda tartiblashtirish qobiliyatları har xil bo'larkan. Ikkinchisi tomonidan, shunday kasbdorlar borki, u shaxsdagi u yoki bu sifatlarning mukammalashib borishiga imkon beradi. Masalan, yirik avtomatik boshqaruv tizimlarida ishlaydigan operator o'z diqqatini har qanday mayda o'zgarishlarga ham qaratishga o'rgansa, konstruktor mavhum matematik hisob kitoblarga usta bo'lib boradi. Iqtisodchi-moliyachi pulning har bir tiyinidan foyda olishga o'rgansa, shoir tabiat barcha hodisa va voqealarni badiiy bo'yoqlarda o'ziga xos idrok qilishga moyilligi oshadi. Demak odamning tashqi olam,xossa va xususiyatlarning ongida aks

ettirishi uning iqtidori o'sishi va professional malakalari rivojlanganligiga bog'liq tarzda kechadi. Shuning uchun har ongning muhim aks ettirish shakllari bo'lmissiz bilish jarayonlari - idrok, sezgilar, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlarning inson hayoti va professional o'sishidagi roliga to'xtab o'tamiz.

Bu jarayonlar insonga juda yaqin va tanish. Chunki har birimiz ongimiz borligini, atrofdagi narsalar va hodisalarning ayrim alohida hamda yaxlit xususiyatlarni bilamiz. Bu narsa va hodisalar bizda har bir alohida sharoitda o'ziga xos hissiy-kechinmalarni keltirib chiqarishini ham bilamiz. Masalan, qorningiz och qolganda, yemishga bo'lgan talabingizni haqiqatdan bor yoki yo'qligini birovlardan so'ramaysiz-ku? Yoki kitob mutolaa qilayotgan shaxs shu kitobni rost bilan o'zi o'qiyotganligini boshqalardan so'ramaydi. Bunday ishlar o'z-o'zidan tabiiy jarayonlarday kechaveradi. Faqat imtihon paytida kechasi bilan mutolaa qilib, o'rganib chiqqan materialni nega hozir domla oldida eslay olmayotganligimiz sizni ko'proq qiziqtiradi va siz "Xotiram ustida ishlashim kerak" degan xulosaga kelasiz.

Darhaqiqat, bilish jarayonlari ham ma'lum ma'noda boshqariladigan jarayonlar bo'lib, agar siz o'z imkoniyatlarinigizni kengaytirish yoki iqtidor darajangizni orttirmoqshi bo'lsangiz, bu jarayonlarga oid ma'lum qoidalar va xususiyatlarimizni bilib olishimiz kerak.

Bilish jarayonlari. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongli o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar. Bu jaryonlar - sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqliki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to'g'risida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgarigi idrok obrazlari, ham eslab qolish mahoratimiz, ham ichki nutqimiz, irodamiz va diqqat kerak bo'ladi. Hattoki, tasodifan qo`limizga kirib ketgan zirapchaga bergen reaksiyamiz ham

emotsiyalardan tashqari, o'sha narsaning bu yerda qanday paydo bo'lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarni keltirib chiqaradi.

Murakkab kompyuter texnikasi chiqqandan keyin odamning o'z psixik jarayonlariga qiziqishi yanada ortadi. Endi ma'lumotlarni qabul qilish (an'anaviy idrok deb ataluvchi jarayonga o'xhash), ularni qayta ishlash (tafakkurga o'xhash) va uni saqlash (xotira) haqida ko'p gapiradigan bo'lib qoldik. Lekin bu insondagi tabiiy jonli jarayonlar ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori ko'taradi.

Psixologiya sohasida eksperimental ishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishi aslida inson psixikasi kompyuterdan ko'ra murakkabligi va odam anglagan ma'lumotlaridan ko'proq narsalarni idrok qilib, qabul qilishni isbotladi. Masalan, maxsus asboblar yordamida aslida odam ko'rmayotgan his qilmayotgan juda kuchsiz signallar ham fiziologik reaksiyalarini keltirib chiqarayotganligi qayd etiladi. Masalan, shu narsa aniqlanganki, odam kino ko'rayotganda bir sekundda 24 kadrni idrok qiladi va biror tasvir ko'z o'ngida gavdalaniadi. Psixologlar shunday eksrermenit qilishdi: kunlarning birida o'ziga xos tasvir namoyon etiladi. 24 ta kadr o'rniga 25 kadr berib, o'sha 25-kadrda "Coca-cola iching" degan yozuv berildi. Tabiiy, oddiy idrok bu bitta kadrni ilg'amaydi. Lekin kinoteatr bufetida ushbu ichimlikni ichish kadrдан keyin 18 foizga oshgan. Demak, aslida ong bu ma'lumotlarni qabul qilgan, lekin real anglash, oydinlashuv ro'y bermagan ekan.

Anologik holat xotiramizda ham tez-tez ro'y beradi. Kimnidir uchratib qolamizda, o`ylanamiz: qayerda ko'rgan ekanman. Ho'sh eslolmaysiz, lekin yuzi, ko'zi va boshqa sifatlari tanishday. Buni ham shunday izohlash lozimki, odam ko'rgan-kechirganlari aslida miyada saqlanadi, biz ong sohasiga ayrimlarinigina chiqara olamiz. Faqat, kasal bo'lib yoki biror narsadan qattiq tashvishga tushganimizda kallamizga har xil o'y-fikrlar kelaveradi. O'shalar aslida bor narsalarning beixtiyor tiklanishi.

Ongdag'i ma'lumotlarni aslida miyamizdagilardan kamligining asosiy sababi -- odam har qanday ma'lumotlarni saralab tashlab, tanlab qabul qiladi, o'zi uchun "ahamiyatsiz" deb baholagan narsaga diqqat ham qilmaydi, esga tushmaydi ham. U o'z ongida barcha mavjud ma'lumotlarni o'ziga xos tarzda qayta ishlaydi,

o'zgartiradi. Shuning uchun ham har bir inson o'ziga xos va qaytarilmasdir-individualdir, deyiladi. Bilish jarayonlardagi induviduallik sabablarini tushinish uchun eng muhim bilish jarayonlari bilan tanishamiz.

Idrok va idrok qilish qonunlari. Psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok qilsa, uni figura va fonda idrok qiladi. ***Figura*** — shunday narsaki, uni aniq anglash,ajratish, ko'rish, eshitish va tuyish mumkin. ***Fon*** esa aksincha, noaniqroq, umumiyoq narsa bo'lib, aniq obyektni ajratishga yordam beradi. Masalan, gavjum bozorda ketayotgan taqdirda ham o'z ismingizni birov aytib chaqirsa, darrov o'sha tarafga qaraymiz. Ismi -figura bo'lsa, bozordagi shovqin -fon rolini o`ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, biz biror narsani idrok qilayotgan paytimizda uni albatta biror fondan ajratib olamiz. Masalan, gul bozorida aynan bir qizil atirgul sizga yoqib qolib, o'shani harid qilasiz, qolgan gullar fonday ongingiz aktiviga o'tmaydi.

Shunday qilib, idrok - bu bilishimizning shunday shakli, u borliqdagi ko'plab, xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan obyektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks etishimizni ta'minlaydi. Ya'ni idrokning asosida narsa va hodisaning yaxlitlangan obrazi yotadiki, bu obraz boshqalaridan farq qiladi. Idrok o'ziga nisbatan soddaroq bo'lgan sezgi jarayonlaridan tashkil topadi. Masalan, olmaning shaklini, hidini, mazasini, rangini sezamiz, ya'ni alohida-alohida xossalari ongimizda aks etadi. Bu - ***sezgilarimizdir.*** Sezgilar yaxlit tarzda idrok jarayonini ta'minlaydi. Lekin olimlar idrokni sezgilarning oddiygina, mexanik tarzdagi birlashuvi, degan fikrga mutloq qarshilar. Chunki idrok ongli, maqsadga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, unda shaxsning u yoki bu obyektiga shaxsiy munosabati va idrokdagi faolligi aks etadi. Masalan, buning isboti uchun ko'pincha ***Rubin figurasi*** tavsiya etiladi. Unda ikkita ko'za profil oq fonda berilgan. Bir qarashda ayrimlar bu rasmlarga qarab, «Bu - vaza» deb atasa, boshqalar uni bir-biriga qarab turgan ikki kishi yuzining yon tomonidan ko'rinishi, deb ta'riflashi mumkin. Shunisi xarakterlik, birinchi marta shu rasmni ko'rgan odam uni yaxlit idrok qilib, nima ekanligini tushunishga harakat qiladi, lekin biror figurani ko'rgach, ma'lum vaqtgacha boshqasini ko'rmay turadi. Agar shu idrok darajasi qolsa, ya'ni yana nimanidir ko'rishni xoxlamasa, u

ikkinchi figurani ham ko'rmasligi ham mumkin. Bu bizdagi idrok jarayonlarining faolligimizga, obyektga munosabatimizga bevosita bog'liqligini ko'rib turibdi. Ikkinchidan, idrok bizning kayfiyatimizga ham bog'liq. Tashvish bilan yo'lakchadan o'tib ketayotib, oyog`ingiz tagidagi narsa tugul, ro`paradagi odamni ham ko'rmay qolishingiz mumkin yoki san'at muzeyida tomosha qilib yurgan ikki kishi bir rasmda tomoman har xil narsalarni, elementlarni ko'rishi mumkin. Yaxshi kayfiyatda do'stlar davrasida iste'mol qilgan taom sizga juda mazaliday tuyuladi. Agar talaba biror fan predmetidan qarzdor bo'lib qolsa, och qoringa yegan shirin taomi ham "ta'timaydi", hatto nima yeganini ham unutib qo'yadi. Yomon kayfiyat ko'proq qora, nursiz ranglarini idrok qilishga moyil bo'lsa, yaxshi ko'tarinki kayfiyat, aksincha, hamma narsani eng yoqimli ranglarda «ko'radi». Bu yana bir bor idrokning oddiygina aks ettirish yoki bilish jarayoni emas, balki shaxsdagi faol ustanovkalarga bog'liq bo'lган, mantiqan asoslangan ongli jarayon ekanligini isbotlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaxs idrok qilishi jarayonlariga xos bo'lган bir neshta qonuniyatlarini belgilaymiz:

A. Figura va fonning ilgarigi harakatiga bog'liqligi qonuni. Bu qonunning ma'nosi: odam ilgarigi tajribasida bo'lган, bevosita to`qnash kelgan narsalarni idrok qilishga moyil bo'ladi. Agar biror predmetni u ilgari figura sifatida idrok qilgan bo'lsa, demak, keyingi safar ham uni aynan figuraday idrok qiladi, agar fon bo'lsa, tabiiy, fondaq qabul qiladi. Bu qonunning hayotdagagi o'rni chet davlatlarda borgan turistlar tajribasiga tayanib tushuntirilishi mumkin. O'zbekistonliklar yer kurrasining qaysi burchagida bo'lmasin, o'zbek do`ppisi yoki atlas ko'ylakni juda tez ilg`ab oladilar va suyunib ketadilar ham. Yonidagi sheriklari o'zbek bo'lsa ham, aynan do`ppilik o'zbekni ko'rib, ko'zlari yashnab ketadi. Boshqa millat vakillari, masalan, nigeriyalik ham milliy ko'ylagida ham yurishi mumkin, lekin o'zbek turist uchun bu kiyim fon edi, fonligicha qoladi ham.

B. Idrokning konstantliliqi qonuni. Bu qonun ma'lum ma'noda oldingisiga bog'liq. Ya'ni bunda ham ilgarigi tajriba katta rol o'ynaydi. Ma'nosi: odam o'ziga tanish bo'lган narsalarni o'sha xossa va xususiyatlar bilan o'zgarishsiz idrok

qilishga moyildir. Masalan, samolyot ichida o`tirib yerga qaraganimiz Avtomobil yo`llari, ularga harakat qilayotgan mashinalar kishkina ko`rinadi, lekin biz ularni hozir kichrayib qolgan, deb idrok qilmaymiz-ku. Aslida ko`z qorachig`imizdagи aks kichkina bo`lsada, ularni o`zimiz “to`g`rilab” alohida predmetlar sifatida idrok qilaveramiz.

Bu o`rinda bir etnografning Afrikadagi kuzatish xarakterli. U kunlarning birida rigmeylar deb ataluvchi qabila vakili bilan quyuq o`rmondan chiqqan(bu qabilaning umri qalin o`rmonda o`tadi). Ro`parada yaylovda sonsiz mollar podasi o`tblab yurgan bo`lgan. Etnograf ularni oddiy mollar podasi sifatida idrok qilgan, rigmey esa ularni chumolilarga o`xshatib, ularning ko`pligi va kichikligidan hayratlangan. Olimda idrokning konstantligi namoyon bo`lgan bo`lsa, uning sherigidan uning buzilganligi kuzatilgan.

Demak, idrokning konstantligi, ya'ni ilgarigi tajriba asosida narsalarning xossa va xususiyatlarini o`zgartirmay, turg`un holda yaxlit tarzda idrok qilish xususiyati bizga tashqi muhitda to`g`ri moslashuvisiz, narsalar dunyosida adashmasligimizni ta'minlaydi. Konstantlik – “konstanta” so`zidan olingan bo`lib, o`zgarmas, doimiy degan ma'noni bildiradi.

V. Kutishlar va taxminlarning idrokka ta'siri. Ko`pincha bizning idrokimiz ayni paytda nimalarni ko`rayotganimizga bog`liq bo`lib qoladi. Biz o`zimiz kutgandan ham ko`p paytda o`zimiz ko`rgimiz kelgan narsalarni ko`ramiz, eshitgimiz kelgan narsani eshitamiz. Masalan, sonlar qatorida raydo bo`lgan V harfi uzoqdan albatta 13 soniday idrok qilinadi, yoki aksincha harflar orasidagi 13 “V” ga juda o`xshaydi. Kechasi yolg`iz qolib kimnidir kutayotgan bo`lsangiz, har qanday juda sekin sharpa ham oyoq tovushiga o`xshayveradi. Sog`ingan do`stingizga biror jihat bilan o`xshash bo`lgan odamni ko`rsangiz-shi?

Shunday qilib, inson idroki shaxsiy ma'no va ahamiyat kasb etgan ma'lumot vositasida ongdagi bo`shliqni kutayotgan bo`lsangiz, negadir albatta, bosh harfi to`g`ri kelgan ismni aytса ham tezginada o`sha tomonga o`girilib qaraysiz. Aynan shunday hodisalar ba'zan idrokdagи xatoliklar kelib chiqishiga olib keladi. Amerikalik Dj.Begbi degan olim stereoskor orqali amerikalik va meksikalik

bolalarga shakli unchalik aniq bo'lмаган slaydlarni birin-ketin ko`rsatgan. Amerikalik bolalar ularni beysbol o`yini, oq sochli qiz ifodalangan desalar, meksikalik bolalar ularni buqalar jangi, qora sochli qiz, deb ta'riflaganlar. Ko`pchilik bolalar esa ko`rsatilgan ikkita rasmdan faqat bittasini ko'rganini e'tirof etganlar. Demak, bizning idrokimiz, uning mazmuni madaniy va ma'naviy muhitga ham bog'liq bo'lib, bu kutishlar tizimidan kelib chiqarkan.

G. O'zarmas ma'lumotning idrok qilinmasligi qonuni. Bu qonunning mohiyati shundaki, muntazam ta'sir etuvchi ma'lumot ongda uzoq ishlab turilmaydi. Masalan, o`tirganingizda soatning chiqillashini eshitganmisiz? Xa, tovush eshitiladi, lekin ma'lum vaqt o'tgandan so`ng go'yoki u yo'q bo'lib qolgandek - eshitilmaydi. Yoki eksperiment sharoitida yolgiz bitta nuqtadagi yorug`lik manbayi ko'zga ta'sir etib, ko'z ham shu nuqta bilan bir vaqtida harakatga keltirib turilganda , 1-3 sekunddan so`ng odam yorug`lik manbayini ko'rmay qo'ygandek. Shunga o'xhash eksperimentlar barcha idrok turlarida ham sinalgan. Past ohangda kuy ham ma'lum vaqtdan keyin eshitmaganday hisni keltirib chiqarishini sinab ko'rishingiz mumkin.

Nutq vositasida hadeb bir xil so'zlarni qaytaraverish psixoterarevtik praktikada gipnotik holatni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ishlatiladi. Chunki bir xil so'zlar hadeb qaytarilaversa, ular o'zining ma'no-mohiyatini ham yo`qotadi. Masalan, ko`chalarda yuradigan "folbinlar"ni ko'rganmisiz? Ular avtomatik tarzda aytadigan so'zları aslida ularning o'zları uchun umuman ma'nosini yo`qotgan ("baxtingizdan ochaymi, taxtingizdan ochaymi" va hakozo shunga o'xhash so'zlar). Har qanday harakat xadeb qaytarilaversa, "psixologik to`yinish" hodisasi ro'y beradi va harakatlar avtomatlashib, uning ayrim detallari umuman ong nazoratidan shiqadi. Masalan, maxoratli raqqosa har qanday raqsga ham chiroyli, jozibali harakatlar bilan o`yin tushib ketaveradi.

D. Anglanganlik qonuni. Idrok qilayotgan shaxs uchun figuraning anglanganligi, uning zarurati va ma'nosи katta ahamiyatga ega bo'ladi. Agar biz kuzatayotgan predmet, eshitayotgan nutq yoki his qilayotgan narsamiz ma'nosiz, tushunarsiz, noaniq bo'lsa, biz juda tez charchaymiz va toliqamiz. Masalan, xitoy

tilini bilmaydigan odam shu tilda so'zlashuvchilar orasiga tushib qolsa, psixologik jihatdan juda qiynaladi. Ya'ni, bizga barcha narsalardan biror ma'no va mazmun kerak. Odam odatda tushunadigan narsasinigina idrok qiladi, hattoki, ma'ruzaning bugun tushuntirayotgan ma'ruzasidagi fikrlar sizning tushunchalarining va bilim doirangizdan uzoq bo'lsa professorga qarab o'tirgan bo'lsangiz ham uning gaplarini qulog`ingizga kirmaydi. Shunday paytlarda "Nima deyapti o'zi?" deb qo'shnimizdan so'rab qo'yamiz ham, zero ma'ruzasi o'sha biz uchun qadrdon bo'lган o'zbek tilida gapi rayotgan bo'lsa ham. Sinab ko'rish uchun o'rtog`ingizga bir nechta so'zlardan iborat qatorni bering. Ular orasida mazmunan bir-biriga bog'liq bo'limgan so'zlar, hattoki ma'nosiz (teskariga yozilgan so'zlar) bo'lsin. Oraga 2-4 tanish o'zbek tilidagi so'zlardan aralashtiring. Bir daqiqa mobaynida qarab, eslab qolganini qaytarishni so'rasangiz, o'sha 2-4 ta so'zlardan boshqalarini deyarli "ko'rmaganining" guvohi bo'lasiz.

E. Taxminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish. Biz idrok jarayonida ilgarigi tajribaga tayanganimiz bilan ko'pincha adashamiz, ba'zan esa o'zimiz uchun yangiliklar ochib tajribani yanada boyitamiz. Ilgarigi tajriba va kelajakni bashorat qilish insonga xos xususiyat bo'lib, o'zimizning sezgi organlarimiz orqali keladigan ma'lumotlarning ko`lami va imkoniyatlarini yanada oshiradi shu nuqtayi nazardan olib qaralganda idrok-tashqi muhit to'g'risidgi taxminlarimizni isbot qilishga qaratilgan faol jarayondir. Biz bevosita idrokimiz "tagiga yetolmayotgan", "tushunmayotgan" narsalarni bevosita his qilgimiz keladi. Ya'ni, idrok qilinayotgan narsada noaniq sir paydo bo'lsa, biz "Bu nima bo'ladi?" degan savol asosida taxmin qilishni boshlaymiz va uni tekshirish uchun harakat qilamiz. Aynan harakatlar, amaliy ishlar idrokimiz imkoniyatlari va chegaralarini kengaytiradi va anglashga yordam beradi. Shuning uchun ham har bir ishni boshlashdan avval nimaga egamiz, nima kerak va nima qilsak, tezroq yaxshi natijaga ega bo'lamic, degan savol bilan o'zimizdagи tajribada bo'lган bilimlarimiz bilan unchalik aniq bo'limgan ma'lumotlarni taroziga solish va imkon boricha nutqimiz, harakatlarimiz bilan real tajribani kengaytirishga intilishimiz kerak. Shunday qilib, bir qarashda oddiyroq tuyulgan idrok ham inson bilimlari, tushunuvchanligi va

faolligi bilan bog'liq psixologik jarayon bo'lib, u aslida shaxsiy tajribamizning birlamchi asosi va bazasidir. Anglangan va shaxsning tajribasiga aylangan ma'lumotlar yana bir muhim psixik jarayon-xotirada o'z aksini toradi.

Xotira va shaxs tajribasining boyligi. Odam ko'rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi. Ma'lum bo'lishicha, bir vaqtning o'zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo'lgan ma'lumotlarning qolishi qiyin ekan. Bu yettita so'z, son, belgi, narsaning shakli bo'lishi mumkin, agar telefon raqamlari ko'p belgili bo'lganda, uni yodda saqlash ancha qiyin bo'larkan. Demak, ongning tanlovchanligi va ma'lumolarni saralab, terib ishlarini yana bir psixik jarayonni-xotirani bilishimiz lozimligini bildiradi. Xotira -bu tajribamizga aloqador har qanday ma'lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog'liq murakkab jaryondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma'lumotlarning ongimizdagi aksidir.

Odatda biz biror bir materialni o'qiydigan bo'lsak, uni hech bir o'zgarishsiz eslab qolishga harakat qilamiz. Lekin ajablanarlisi shundaki, borgan sari material ma'lum o'zgarishlarga yuz tutib, xotirada dastlabki paytdagisidan boshqacharoq bo'lib saqlanadi. Ba'zi bir material yoki ma'lumot xohlasak ham xotiradan o'chmaydi, boshqasi esa juda qattiq xohlasak ham kerak paytda yodimizga tushira olmaymiz. Bu kabi savollar, inson bilish jarayonlaridagi eng muhim savollar bo'lib, ba'zan o'z taraqqiyotimiz va kamolotimizni ham shunday omillarga bog'lagimiz keladi.

Ma'lum bo'lishicha, inson miyasi har qanday ma'lumotlarni saqlab qoladi. Agar shu ma'lumot biror sabab bilan odamga kerak bo'lmasa yoki o'zgarmasa, u ongdan tabiiy tarzda yo'qoladi. Lekin har doim ham bizning professional faoliyatimiz manfaatlariga mos ma'lumotlarni esda saqlash juda zarur va shuning uchun ham ko'pchilik ataylab xotira tarbiyasi bilan shug`ullanadi.

Inson xotirasining yaxshi bilishi, ya'ni his-kechinmalarimiz, ko'rgan-kechirganlarimizning mazmuni to`laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga bog'liq:

- Esda saqlab qolish bilan bog'liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga;

- Shaxsning o'zi shug`ullanayotgan ishga nechog`lik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga;
- Shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga;
- Shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga;
- Irodaviy kuchi va intilishlariga;

Xotira jarayonlari shaxsning faoliyatdagi yutuqlari bog'liq bo'lgani uchun ham, uning tabiati, qanday kechishiga ko'plab olimlar ahamiyat bergenlar. Masalan, nima uchun odam u yoki bu ma'lumotlarini xotirada saqlaydi, degan savolga turli olimlar turlicha javob beradilar. Masalan, fiziologlar uning sababini miyada hosil bo'ladigan nerv bog'lanishlari - assotsiatsiyalar bilan bog'lashsa, bioximiklar-ribonuklein kislota (RNK) va boshqa bioximik o'zgarishlar oqibatidadir, deb tushuntiradilar.

Psixologlar esa xotirani doimo inson faoliyati, uning shaxs uchun ahamiyati va motivlar xarakteri bilan bog'laydilar. Chunki shaxsning yo`nalganligi, uning hayotdagi mavqeyi va qobilyatlarining rivojlanganlik darjasasi aynan xotirasinnig mazmuniga bog'liq. Shuning uchun hattoki, shunday gap ham bor: «Nimani eslappingni menga ayt, men sening kimligingni aytaman».

Amaliy nuqtayi nazardan xotiraning samaradorligi va uni o'quv va mehnat faoliyati jarayonida oshirish katta ahamiyatga ega. Chunki ko'pincha odamlar orasida ishchanrog`i, talaba yoki talabalar orasida bilimlirog`i ham bir qarashda xotirasining kuchi bilan boshqalardan ajralib turadi. Buyuk bobokalonimiz Amir Temurni xotirasi haqida afsonalar yuradi. Masalan, u o'z qo`li ostida beklarni nafaqat ismini, balki onasining isimlarini ham yoddan bilarkan, ushrashuvlarda bevosita nomini aytib murojaat qilar ekan. Bu fazilat ham uni qo`l ostidagilar orasida obro`sini balandligiga ta'sir ko`rsatgan. Amerikani mashxur prezidentlaridan Avraam Linkoln ham ana shunday fenomenal xotirani o'z yaqinlari va ish yuzasidan u bilan bog'liq bo'lgan xodimlarga nisbatan namoyon

etib, lol qoldirgan ekan. Demak, xotira tarbiyasi, uni kerakli yo'sinda rivojlantirish - kerak bo'lsa, shaxsiy obro` hamda ishdagi samara masalasi bilan bevosita bog'liq ekan.

Umuman, xotiraning samaradorligi eslab qolishning ko'lami va tezligi, esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan bog'lanadi. Demak, odamlar ham aynan shu sifatlarga ko'ra farqlanadilar:

- Materialni tezda eslab qoladiganlar;
- Materialni uzoq vaqt esda saqlaydiganlar;
- Istagan paytda osonlik bilan esga tushiradiganlar;

Ba'zi odamlarning xotirasiga xos jihatlarni tug`ma deb atashadi. To'g'ri oliy nerv tizimi, uning o'ziga xos ishlash xususiyatlarini xotiraning o'ziga xos individuallik uslubini belgilashi mumkin, lekin hayotda ko'pincha shaxsning bilish jarayonlari va sezgi organlarining ishlash qobiliyatlariga bog'liq tarzda ajralib turadigan turlari haqida gapirishadi. Masalan, ayrim odamlar ko'rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladi, demak, ularning xotirasi ko'rgazmali - obrazli bo'lib, ko'zi bilan ko'rмагuncha, narsaning mohiyatini tushunmaydi ham. Boshqalar esa o'zicha fikrlab, nomini aytib, mavhum tarzda tasavvur qilmaguncha, eslab qolishi qiyin bo'ladi. Bundaylar so'z-mantiqiy xotira turi vakillaridir. Yana bir turli odamlar bevosita his qilgan, «yuragidan» o'tkazgan, unda biror yorqin emotsiyonal obraz qoldirolgan narsalarni yaxshi eslab qoladilar, bu - emotsiyonal xotiradir. Lekin yana bir xotira egalari borki, ularni fenomenal xotira sohiblari deb atashadi. Psixologiyaga oid kitoblarda ana shunday xotiraga ega bo'lgan kishilar to'g'risida ko'p yozilgan. Bu shunday kishilarki, ular bir vaqtning o'zida nisbatan juda katta hajmdagi ma'lumotlarni esda saqlay oladi va esga tushiradi. Masalan, tarixiy shaxslar orasida Yuliy Sezar, Napoleon, Motsart, Gauss, shaxmat ustasi Alexin kabi insonlar xotirasi ana shunday noyob bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Taniqli, rus psixolog va neyropsixologi A.R.Luriya ham ana shunday xotira sohiblaridan biri-asli kasbi jurnalist bo'lgan Shereshevskiy degan shaxs xotirasini ataylab uzoq vaqt mobaynida o'rgangan. Uning xotirasi shunday ediki, Dantening «Ilohiy komediyasi»dan olingan uzundan-uzoq parchani bir marta qarab olgandan

so`ng, 15 daqiqadan so`ng so`zma-so`z aytib berolgan. Shunisi xarakterli ediki, komediya unga notanish bo`lgan italyan tilda yozilgan edi. Ko`pchilikni qanday qilib yaxshi, mustahkam esda saqlab qolish muammosi qiziqtirsa, Shereshevskiy uchun qanday qilib unutish masalasi murakkab edi. Uni xotira obrazlari doimo qaynab, ko`rgan narsalarni ko`z oldida gavdalanaverar edi. Qanday qilib eslab qolasiz? degan savolga u shunday javob bergan: men «materialni» o`zimga tanish va sevimli bo`lgan Moskva ko`chalariga joylashtiraman. Bir marta bir materialni bir bo`lagi o`sha “ko`chaning” salqin tushgan yerga tushib qolib, esga tushirishi ancha qiyin bo`lgan ekan.

Shunga o`xshash har bir fenomenal xotira egalarining o`ziga xos eslab qolish usullari bo`lar ekan.

Shodlandiyalik matematik A.Etkin 1933-yili 25 ta bir-biri bilan bog`lanmagan so`zlardan iborat ikki qatorni eslab qolib, hech bir xatosiz uni 27 yildan keyin esga tushira olgan. “Qilich va qalqon” kinofilmidagi rus razvedchigi I.Vaysning natsistlar tomonidan rivojlantirilgan birinchi navbatda batamom yo`q qilinishi lozim bo`lgan obyektlar - shifrlari bilan ko`rsatilgan ro`yxatni bir karra ko`rib chiqib, bir necha daqiqadan so`ng esga tushirganini eslang. U ham go`yoki, ko`rib turganday o`sha ro`yxatlarni qaytadan o`qiganday takrorlaydi. Tarixda bunday kishilar bor va ular bizning oramizda ham yo`q emas. Muhimi shundaki, ana shu fenomenal xotirani shaxs va jamiyat manfaatiga mos tarzda unumli ishlata bilishdir.

Esda saqlangan ma'lumotlarni xotiradan chiqarib olib, qayta tiklash ham muhim muammo. Chunki ko`pincha biz xotiramizda kechagina o`qigan yoki yaqindagina o`qituvchimiz aytib bergan ma'lumotlarning borligini bilamiz-u, lekin kerak vaqtida uni esga tushira olmaymiz. Ma'lumotlarni xotiradan chiqarib olish omillariga quyidagilar kiradi:

Ma'lumotlarning anglanganligi. Biz o`zimiz to`la anglagan, tushungan narsalarni osonroq esga tushiramiz. Masalan, alfavitni juda oson tushiramiz, yoki 1, 2, 3, 4, va hokazo tartibli sonlarni bir ko`rgandan so`ng u milliongacha bo`lsa ham esga tushirishimiz sirayam qiyin emas. Lekin shu sonlardan bor yo`g`i 7-8

tasini teskari yoki aralash tartibda yozilgan bo'lsa, ularni esga tushirish ansha mushkul bo'ladi. "Psixologiya" yozuvini esga tushirish juda oson, lekin "pioxoyaslg" harflari to`plami aynan o'sha harflardan iborat bo'lsa ham sira esga tushira olmaydi. Demak, materialni yaxshilab esda saqlash va esga tushirish uchun uni tushunish va anglash kerak. Mazmunini va mohiyatini tushungan holda iloji bo'lsa, o'zimizdagi qiziqishlarga bog'lay olishimiz kerak.

Kutilmagan ma'lumot. Kutilmaganda paydo bo'lган yangi va yaxshi ma'lumot ham yaxshi esga tushadi. Masalan, sonlar qatorida berilgan bitta harf, yoki aksincha, harflar orasidagi bitta son, uzun jumlalar orasida paydo bo'lган qisqa jumla esga tezroq va aniqroq tushadi. Buning oddiy sababi-biz kutilmaganda paydo bo'lган ma'lumot yoki narsaga xayratlanamiz, jonli emotsiyalar bilan javob beramiz, bu esga yaxshi eslab qolishga va kerak bo'lganda, yorqin tiklashga asosdir.

Ma'lumotlarning mazmun yoki shakl jihatidan bir-biriga yaqinligi. Masalan, agar ko'plab bir-biriga bog'liq bo'lмаган so'zlar orasida "erkak" va "ayol" so'zları paydo bo'lган bo'lsa, bittasining esga tushirilishi ikkinchisining ham esda tiklanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'quv rejasiga kiritilgan barcha fanlar shunday birin ketinlikda beriladiki, birini o'zlashtirish ikkinchisini ham o'zlashtirilishi, bir-birini to`ldirishga xizmat qilsin.

Esda saqlash vaqt bilan esga tushirish vaqt o'rta sidagi farq. Odamda berilgan ma'lumotni idrok qilish va shu orqali esda saqlash vaqt qanchalik ko'p bo'lsa, esga tushirish ham osonroq bo'ladi. Shuning uchun ham uzoq muddatli xotirada saqlanadigan informatsiya uzoq vaqt mobaynida, ko'pincha bir necha marta qaytarib beriladi, qisqa muddatlida esa bir marta qisqa fursatda beriladi va shu narsa esga tushirish kerak bo'lganda, tiklanmaydi. Masalan, biror teksti kompyuterga kiritish uchun o`rtogingizga berib, keyin nimalarni kiritganini so`rang. Javob aniq: "Esimda yo`q". Ya'ni ma'lumotlarning umumiyligi mazmuni yodda qolsa ham, asosiy tushunchalar va mohiyat esda qolmaydi.

Shunday qilib, xotira faol jarayon bo'lib, u shaxsning u yoki bu turli ma'lumotlar bilan ishslash malakasiga, unga munosabatiga, materialning qimmatini

tasavvur qilishga bevosita bog'liq bo'ladi. Eng xarakterli narsa shuki, inson faqat eshitgan ma'lumotlarining 10 foizini, eshitgan va ko'rgan narsasining 50 foizgachasini, o'zi faol bajargan ishlarining deyarli 90 foizini yodda saqlaydi. Shaxsning o'zi o'ylab topib, o'zi bevosita bajargan ishlari juda oson esga tushadi. Bu hodisa psixologiyada generatsiya effekti deb ataladi. Agar talaba yoki talaba ham o'zi biror teoremani mustaqil ravishda isbot qilgan bo'lsa yoki biror xulosaga mustaqil ravishda kelolgan bo'lsa, o'qituvchi tushintirgan hodisaga yaqin narsa to'g'risida o'rtoqlariga so'zlab bergan bo'lsa, albatta uni xohlagan paytlarda o`yin metodlari, munozara metodlaridan o'quv jarayonida ham keng foydalanmoqda. Hattoki, kattalarni qisqa fursatda o'qitish va malakalarini oshirishda ham turli xil amaliy o`yinlardan, ijtimoiy psixologik treninglardan foydalanishining ma'nosi ham shuncha yaxshi va tez eslab qolish hamda samarali esga tushirish. Iqtisodiy o'quvlarda turli xil "keys stadi"larni tahlil qilish va o'z nuqtayi nazaricha ma'quil harakat shakllari qarorlar qabul qilish ham mutaxasislar malakasini oshirishga samarali ta'sir ko`rsatadi.

Shu o'rinda xotiraning sakkiz qonuni eslab qo'yishni taklif etamiz:

1. Anglanganlik qonuni. Oddiy, lekin murakkab qonun, ya'ni berilgan materialni qanchalik chuqur anglasak, shunchalik uni mustahkam xotirada muxrlagan bo'lamiz.

2. Qiziqish qonuni. Anatol Frans: "Bilimlarni yaxshi hazm qilish uchun uni ishtaxa bilan yutish kerak" deganda, albatta, materialga jonli qiziqish bilan munosabatda bo'lishimiz, va uni yaxshi ko'rishimiz kerakligini nazarda tutgan.

3. Ilgarigi bilimlar qonuni. Ma'lum mavzu yuzasidan bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, yangisini esda saqlab qolish shunchalik oson bo'ladi. Masalan, ilgari o'qigan biror kitobni qaytadan o'qib, uni yangidan o'qiyotganday his qilsangiz, demak, siz ilgarigi tajribangiz yetishmaganligidan uni yaxshi o'zlashtira olmaganligingizni his qilishingiz mumkin. Demak, eski bilimlar ham tajribaga aylangandagina, yangilarga zamin bo'la oladi.

4. Eslab qolishga tayyorlik qonuni. Biror materialni eslab qolishda avval bo'lg'usi aqliy ishga qanday hozirlik ko'rgan bo'lsangiz, shunga mos tarzda eslab

qolasiz. Masalan, fizika o'qituvchisining barcha darslari sizga doimo ma'qul bo'lган bo'lsa, siz: "Bugun ham yangi narsa o'rganib chiqaman", deb o'zingizni ishontirasiz va oqibatda natija ham yaxshi bo'ladi. Yoki vaqtga nisbatan tayyorlik ham shunday. "Bir amallab imtihon torshirmsam, keyin qutulaman", deb darsga tayyorlangan bo'lsangiz, imtihon tugagash, go'yoki miyangizni birov "yuvib qo'ygandek" tasavvur hosil bo'ladi. Agar materialni mutaxassis bo'lishim uchun juda kerak, deb umringiz oxirigacha muhimligini anglasangiz, u narsa xotirada muqim saqlanadi.

5. Assatsiatsiyalar qonuni. Bu qonun haqida eramizdan avval Arastu ham yozgan edi. Qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtda shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo'ladi. Masalan, ayni konkret xona o'sha yerda ro`y bergen hodisalarni ham eslatadi.

6. Birin-ketinlik qonuni. Harflarni alfavitdagi tartibida yoddan aytish oson, uni teskariga aytish qiyin bo'lganidek, xotirada ma'lumotlarni ma'lum tartibda joylashtirishga va kerak bo'lganda, tartib bilan birin-ketin tiklash maqsadga muvofiqdir.

7. Kuchli taassurotlar qonuni. Eslab qolinadigan narsa to'g'risida birinchi taassurot qanchalik kuchli bo'lsa, unga aloqador obraz ham shunchalik yorqin bo'ladi. Bundan tashqari, siz uchun ahamiyatli va jozibali ma'lumotlar oqimida eslanayotgan material ham yaxshi esga tushiriladi.

8. Tormozlanish qonuni. Har qanday muayyan ma'lumot o'zidan oldingi ma'lumotlarni tormozlaydi. Shuning uchun uning ushib ketmasligi uchun yangini esda saqlashdan avval mustahkamlash choralarini ko'rishingiz kerak.

Demak, yaxshi kuchli bilimlarga ega bo'lish uchun har bir predmet yoki fanning mavzularini o'ziga xos tarzda yoqtira olish va xotirada saqlash usullarini ishlab chiqishingiz kerak ekan. Lekin albatta, matematika fanidan keyin fizikani, tarixdan keyin adabiyot fanini, she'r yodlashni uyqu oldidan amalga oshirmaslikni maslahat beramiz. Idrok va xotira jarayonlarning samaradorligi yana bir muhim psixik jarayonga bog'liqki, u ongni u yoki bu idrok qilinadigan va eslab qolinadigan obyekt yoxud predmetga yo`naltirib turadi. Bu psixik jarayonni

psixologiyada diqqat deb atashadi. Diqqat shunday psixik jarayonki, u shaxs ongingin narsa va hodisalarga yo`nalganligini aks ettiradi. Diqqat ham ta'lim-tarbiya tizimida boshqariladigan jarayondir. Talabalar o'z faoliyatlarida uning salbiy jihatlarini ham bilishlari kerak. Bu birinchi navbatda parishonxotirlik bilan bog'liqidir. Bu sifat ish va o`qish faoliyatida samaradorlikni pasaytiradi, diqqatni uzoq vaqt davomida jadal bir narsaga qaratishda layoqatsizlikda, tez-tez va oson bo'linib turishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, diqqatning haddan tashqari harakatchanligi (ko`chuvchanligi) va aksincha, harakatsizligi (barqarorligi) kabi xususiyatlari ham kuzatiladi. Yuqorida biz alohida ta'kidlagan psixik jarayonlar - idrok, sezgilar, diqqat va xotira obyektiv olamning odam tomonidan aks ettirilishini ta'minlaydi, ushbu mazmunning tahliliy o'zlashtirilishi esa tafakkur jarayoni vositasida amalga oshadi.

Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati. Inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyatga ega bo'ladi. Aks holda u eslab qolmaydi ham, keyingi safar analogik obyekt bilan to'qnash kelganda, unga diqqatini qaratmaydi ham, figura fonga aylanib qolaveradi. Ya'ni, biz ko'rghan, eshitgan, his qilgan narsalarimizning barchasi ma'noli kerak bo'lsa, ma'noli bo'lishini hoxlaymiz. Shunisi xarakterlik, ana shunday narsa va hodisalarga biz tomonidan beriladigan ma'no har bir alohida shaxs tomonidan turlicha idrok qilinadi. Masalan, olim uchun har qanday kitob - hayotining ma'nosи bo'lsa, dehqon uchun yer va undan olinadigan hosil - ahamiyatli hisoblanadi hattoki, bitta narsaning o'zi turli odamlar uchun turli xil ma'no va mazmun kasb etadi. O'sha kitob misolini oladigan bo'lsak, kitob industriyasi bilan shug'ullanuvchi muxandis uchun - ishlab shiqarish mahsuloti, kitob do'koni sotuvchisi uchun - tovar - mahsulot, talaba uchun - ilm manbai, muallif olim uchun - ijodining mevasi, eng qimmatli narsadir. Har bir alohida narsaga bo'lган munosabatimiz uning biz uchun qadr-qimmatiga bevosita ta'sir etadi, u goh ijobiy, goh salbiy bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan ham biz narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lamic. Tilshunoslikni kasb etib tanlagan talaba uchun kibernetik modellashtirishga bag'ishlangan ma'ruza

qanchalik zerikarliday tuyulsa, iqtisodchilik kasbini egallamoqchi bo'lganlar uchun pul, foyda va daromad olish yo'llari haqidagi ma'lumotlar shunchalik ahamiyatli, oddiy so'zning morfologik tahlili - shunchalik befarqlik holatini keltirib chiqaradi. Demak, bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarining biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izhor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada tafakkur, fikrlash deb ataladi.

Tafakkur - inson ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtaida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir. Tafakkur muammolari uzoq vaqtgacha o'zining murakkabligi bilan psixologlar nazaridan chetda bo'lgan, u asosan faylasuflar va mantiqshunoslar fikr yuritadigan masala hisoblangan. Psixologiya ilmining otaxoni hisoblanmish nemis olimi Vilgelm Vundt ham psixologiyani ikkiga bo'lib - fiziologik psixologiya (eksperimental yo'l bilan bilish jarayonlarini o'rganuvchi fan) va xalqlar psixologiyasi qismlariga bo'lib, oxirgi psixologiyaning tarkibiga nutq va tafakkur psixologiyasini ham kiritgan va uni eksperimental tarzda o'rganib bo'lmaydi, ularni tushuntirish mumkin xolos deb hisoblagan. Bu xulosalar aslida tafakkur va fikrlash jarayonlarining naqadar murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunday bo'lsa ham shuni ta'qildash joizki, birinchidan, tafakkur va fikrlash jarayonlari - bu bilish jarayonlari;

ikkinchidan, ular ham shaxs tomonidan borliqni aks ettirish shakli, umumlashtirib, bilvosita aks ettirish shakli;

uchinchidan, bu jarayonlar ham eksperimental psixologiya tomonidan o'rganiladi;

to'rtinchidan, tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shaklidir.

Tafakkurning oliyligi va murakkabligi shundaki, u idrokdan farqli, bevosa aks ettirish bo'lmay, narsalar va ularning xossalari ular yo'q paytda ham aks

ettirishga imkon beradi. Masalan, Afrikaning subtrorik hududlari to'g'risida gap ketganda, umrida biror marta Afrikaga bormagan odam ham subtroriklik xossasini b i l g a n i uchun ham ushbu axborotni tushunib, uni qabul qila oladi. Sinov paytida talaba kecha o'qigan, laboratoriya sharoitida sinab ko'rgan qonuniyatlar xususida xuddi ro'parasida namoyon bo'layotganday, obrazli qilib gapirib berishi, ro'y bergen hodisalarni yana formulalar va statistik hisob-kitoblar vositasida isbot qilib berishi ham mumkin. Bu operatsiyalarning asosida tafakkur jarayonlari yotadi.

Tafakkur qilishimizni ta'minlovchi organ - bu bizning miyamiz. Barcha hisob-kitob ishlari - eng elementar harakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab mavhum teoremalarni isbot qilishga qaratilgan operatsiyalar miyada sodir bo'ladi. Shuning uchun ham juda charchab turgan paytda odamdan biror qiyinroq masala xususida fikr bildirishini so'rasangiz, «hozir boshim og'rib turibdi, juda charchaganman, biroz o'zimga kelay, keyin fikrlashamiz», deb javob beradi. Demak, miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati o'zaro uzviy bog'liq ekan. Miyamizning fikrlash qobiliyati va imkoniyatlari shunchalik salmoqliki, ayrim olimlarning fikricha, uning ishlash qonunlari hozir biz ishlatayotgan kompyuterlar emas, yana 100-200 yillardan keyin paydo bo'ladigan murakkab, o'ta «aqlli» kompyuterlar faoliyatiga yaqin ekan.

Kallamizga kelgan barcha o'y - hayollar - bu fikrlardir. Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, har on, har daqiqada odam miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo'ladi. Ularni tartibga solish, keragiga diqqatni qaratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni yechish - fikrlash jarayonidir.

Fikrlash jarayoni aslida ma'lum bir masala, muammo, jumboqni hal qilish kerak bo'lganda paydo bo'ladi. Fikrlash doimo bir narsa xususida kamida bitta yechimni berishi shart, aks holda u boshqa jarayonga - hayol, fantaziyaga aylanib ketishi mumkin. Fikr, g'oya, aniq yechimi bo'limganda, inson miyasining borliqdagi narsa va hodisalar mohiyatini aks ettirishi layoqad deb ataladi. Shuning uchun ham do'stlar davrasida ba'zan muammo xususida tortishuv bo'lib qolganda,

aniq, bilimi yoki g'oyasi yo'qligi tufayli kallasiga kelgan narsani aytgan bolaga qarab "Juda olib qo'sishga ustasan-da, hayolparast" deyishadi.

Shunday qilib, muammo yoki jumboqlar bizni fikrlashga majbur etadi. Masalan, shunday masalani olib ko'raylik. Sizga mixlar solingan bir karton quticha va ikkita sham, bolg'acha berilgan. Vazifa: eshikka shamni o'rnatib, yoqib qo'yish kerak. Kim qanday yechadi? Albatta, birdaniga to'g'ri yechimga kelish qiyin. Agar qutichani bo'shatish mumkinligi va uni shamdon sifatida eshikka qoqish mumkinligi to'g'risida fikr kallaga kelmaguncha, yechimni topish qiyin. Ayni shu masala ikki xil shart bilan berilgan: bittasida quticha mixlar bilan to'la deyilgan, ikkinchisida qutisha bo'sh deb berilgan. Ikkinci holatda bolalar uning yechimiga tezroq kelishgan.

Psixologlarning fikricha, har qanday masalani yechish mobaynida odam uning shartlarini bir necha variantlarda tasavvur qilsagina yechimga kelarkan. Agar idrok bilan bog'laydigan bo'lsak, figura fonga, fon esa figuraga aylanadi, ularning o'rirlari almashadi va hakozo. Bundagi individual farq shundaki, ba'zi bolalar yechimga to'g'ridan-to'g'ri figura asosida keladi, boshqalar esa bir nesha yechimning variantlarini ko'z oldiga keltirib, so'ng bir qarorga keladi. Kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir juda sekin. Shuning uchun ham test yechish jarayonida yonma-yon o'tirgan ikki bola bir xil yechimni belgilaydi, lekin o'sha yechimga kelish yo'llari har birida o'ziga xos bo'ladi. Aynan shu jarayonning qanday kechishini tafakkur psixologiyasi o'rganadi. Muammoning yechimi ba'zan birdan, yorqin yulduzday yarq etib paydo bo'ladi. Bunday psixologik holat psixologiyada insayt- oydinlashuv deb ataladi. Odam qachon ana shunday fikrlarda tiniqlik, insayt raydo bo'lganini o'zi doim bilmaydi. Eng iqtidorli, zukko olimlar ham o'z fikr yuritish qonuniyatlariga e'tibor berib, yangi g'oya qachon, qanday yo'l bilan paydo bo'lganiga javob topolmaganlar. Hattoki, ba'zan shunday ham bo'ladiki, yangilik kashf etgan olim o'zining fikri naqadar noyob ekanligini ham anglash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, qolaversa, kashfiyot go'yoki uniki emasday, qayerdan kelib qolganini ham tushunmaydi. Shuning uchun ham ko'plab genial kashfiyotlarning haqiqiy qadr - qimmati muallif o'tib ketgandan keyin tarix

tomonidan faxrlanadi. Xuddi shunday qadrga ega bo'lgan kashfiyotlar yurtimizda yashab o'tgan yuzlab allomalar ijodiga taalluqli. Masalan, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobi, Al-Farg`oniy, Xorazmiy, Zamashhariy kabi allomalar o'zlari ijod qilgan paytlarida yaratgan g'oyalari va kashfiyotlarining qanchalik ahamiyatli va o'lmas ekanligini keyingi avlod, butun bir insoniyat tarixi isbot qilib, tan oldi. R. Dekartning kallasiga analitik geometriya g'oyasi kelganda, o'zida yo'q xursand bo'lgan va cho'kkalab, yig'lab shu fikrni unga ato etgan Xudoga sajda qilgan ekan. Darhaqiqat, miyadagi tiniqlik, oydinlashuv avvalo Olloxning inoyati, qolaversa, o'sha fikr egasining mashaqqatli mehnati, tinimsiz ilmlar dunyosida to'kkan zaxmatli terlari evaziga ro'y beradi. Umuman yangiliklar ochish, ijod qilishga aloqador tafakkur turi uning eng ahamiyatli va shu bilan birga eng qiyin turidir. Chunki ijodkor, yoki kashfiyotchi nimanidir kashf qilishni xohlaydi, tinimsiz izlanadi, lekin qachon, qanday sharoitda, qanday yo'l bilan uni ochishi mumkinligini o'zi ham bilmaydi. Shu o'rinda akademik Kedrovning Mendeleyev davriy jadvalini kashf qilganligi xususidagi esdaliklari juda o'rinli- olim uzoq vaqt mobaynida barcha kimyoviy elementlarni ma'lum qonuniyat asosida jadvalga tushirishni o'ylab yurgan. "Kallamga kelyapti-yu, uni ko'rolmayapman", deb tashvishlanardi olim. Kunlardan bir kun u juda toliqib, yozuv stoli ustida uxbol qolganda, tushida davriy jadvalni "ko'rgan". Xursand bo'lib ketib, uyg'ongan zahoti moddalarni jadvalga joylashtira boshlagan. Tushdagi ishi bilan o'ngidagi ishining farqi shu bo'lganki, tushida yengil moddalar pastda joylashgan bo'lgan, Mendeleyev ularni o'ngida "to'g'rilab" chiqqan. Bu ham o'sha insaytga bir misol.

Tafakkurning turlari. Insonning fikrlash jarayoni tahlil qilinganda, uning qanday shakllarda kechishi ahamiyatli bo'lib, bu uning turlari va shunga ko'ra fikrlashdagi individuallik masalasidir. Quyidagi jadvalda tafakkurning turli mezonlar asosidagi klassifikatsiyasi keltirilgan.

Hayot mobaynida o'qiganlarimiz, ma'lum shart-sharoitlarda konkret dalillar va nazariy bilimlar asosida mushohada qilgan bilim va g'oyalalarimiz asosida yuritgan fikrlash jarayoni nazariy tafakkurdir. Undan farqli amalda tafakkur

bevosita hayotda va harakatlarimiz mobaynida hosil bo'lgan fikrlarimizga asoslanadigan tafakkurimizdir.

Tafakkur turlari

Shakliga ko'ra	Ko'rgazmali harakat ko'rgazmali, obrazli, mantiqiy
Ko'rildigan masalaning xarakteriga ko'ra	Nazariy Amaliy
Ijodiylik elementiga ko'ra	Konvergent Divergent
Yangiligi va noyobligiga ko'ra	Reproduktiv Produktiv (ijodiy)

Ko'rgazmali - harakat tafakkuring xususiyati shundaki, u ham odamning real predmetlar bilan ish qilayotgan paytdagi fikrlash jarayonini nazarda tutadi. Ko'rgazmali - obrazli tafakkur esa ko'rgan-kechirgan narsalar va hodisalarining konkret obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirib, bilvosita aks ettirishimizdir. Mantiqiy tafakkur - bu mavhum tafakkur bo'lib, so'zlar, so'zda ifodalangan bilim, g'oya va tushunchalarga tayangan holda bevosita idrokimiz doirasida bo'limgan narsalar yuzasidan chiqargan hukmlarimiz, mulohazalarimiz bu tafakkurga misol bo'la oladi. Masalan, olam, uning noyob va murakkab hodisalarini falsafiy o'rganish faqat mavhum, abstrakt tafakkur yordamida mumkin bo'ladi.

Fikrlashimizning yana bir turi reproduktiv bo'lib, uning mohiyati -ko'rgan-bilgan narsamizni aynan qanday bo'lsa, shundayligicha, o'zgarishsiz qaytarish va shu asosda fikrlashga asoslanadi. Undan farqli produkta yoki ijodiy tafakkur - fikrlash elementlariga yangilik, noyoblik, qaytarilmaslik qo'shilgandagi tafakkurni nazarda tutadi. Shunga bog'liq bo'lgan konvergent fikrlash masalaning yechimi faqat bitta bo'lgandagi fikrlashni nazarda tutsa, divergent tafakkur - fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi. Aynan ana shunday ijodiy tafakkur divergent shaklda bo'lsa, u ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga asos bo'ladi. Fikrning kashf etish, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati ba'zan uning

kreaktivlik sifati bilan bog'lab tushuntiriladi. Kreaktivlilik - shunday hislatki, u go'yoki yo'q joyda bor qiladi, ya'ni oddiygina, jo'ngina narsalarga boshqacha, birovlarnikiga o'xshamagan yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, uchta so'z berilgan – “qalam”, “ko'l”, “ayiq”. Uchlasini qo'shib, yangi jumlalar tuzish kerak. Har kim o'zidagi kreaktivlik darajasiga ko'ra turli xil jumlalar tuzsa bo'ladi, masalan, “Bola qalamni olib, ko'lda cho`milayotgan ayiq rasmini chizdi”. Yoki “Terak qalamchalari ekip chiqilgan ko'l yoqasida bir ayiq bolasini cho'miltirardi”. Shunga o'xhash ko'plab jumlalar tuzish mumkin.

Mashhur olim K. Yung insonlarni fikrlashlariga ko'ra asosan ikki toifaga bo'lган edi:

Intuitiv turlilar. Bu shunday toifali kishilarki, ularda ko'pincha hissiyotlar mantiqdan ustun keladi va miya faoliyati bo'yicha ham o'ng yarim sharlar faoliyati chap yarim sharnikidan ustunroq bo'ladi. Ko'rib, his qilib, yorqin emotsional munosabat shakllantirilmaguncha, bunday odamlar biror xususda fikrlarini bayon eta olmaydilar.

Fikrlovshi turlilar. Bunday kishilarda doimo mantiq, mulohaza hissiyotlardan ustun bo'ladi va miyasining chap yarim shar tomoni o'ngiga nisbatan dominanta(ustun) hisoblanadi. Bundaylar gapira boshlashsa, ko'pincha, “Faylasuf bo'lib ket-e”, deb ham qo'yishadi. Chunki ular o'zlarigacha bo'lган bilimlar, mantiqiy fikrlash borasidagi yutuqlarga tayanib, doimo to'g'ri gapirishga, doimo fikrlarini mantiqan asoslash - argumentatsiya qilishga harakat qiladilar. Aniq va texnika, tibbiyot fanlari bilan shug'ullanuvchilarda ana shu tafakkur turiga moyillik va psixologik hozirlik bo'lsa, ular o'z kasblari borasida juda yaxshi natijalarga erishadilar. Ulardan farqli birinchi toifa vakillaridan yaxshi yozuvchilar, shoirlar, tilshunoslar, psixologlar yetishib shiqadi.

Tafakkur shakllari. Tafakkur qilish shakllari yoki formasiga tushunchalar, hukmlar va xulosa chiqarish kiradi.

Tushunchalar - tafakkurning shunday shakli, unda narsa va hodisalarga xos

bo'lgan eng umumiy va xarakterli xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Ular umumiy va juz'iy, konkret yoki mavhum bo'lishi mumkin. Masalan, "ong" tushunchasini oladigan bo'lsak, uning eng muhim va boshqa tushunchalardan farq qiladigan jihatlarini ajratishimiz kerak: faqat insonga xoslik, oliy darajadagi aks ettirish, olamni bilish mexanizmi ekanligi va hakozo.

Hukmlar- atrofimizdagi narsalar va hodisalar o'rtasidagi bog'iqlikni aks ettiradi. Masalan, "Inson ongli mavjudot" degan hukm - fikr "odam, inson", "ong" va "mavjudot" tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalab turibdi. Ana shunday hukmlar bizning nutqimizda har kuni juda ko'p ishlatiladi va ular tabiatan turli bog'liqliklarni yo tasdiqdaydi yoki inkor qiladi, rost yoki yolg'on bo'ladi. Shaxsning insoniyligi aslida u ishlatadigan iboralarning qanchalik mantiqda, hayotiy haqiqatlarga to'g'ri kelishi, argumental ekanligi bilan baholanadi. Doimo to'g'ri, mantiqan fikr yuritgan odamni biz "bama'ni, gapida jon bor, haqiqatgo'y" deb ta'riflaymiz.

Xulosalar- mantiqiy tafakkurning yana bir shakli bo'lib, ular fikrlar, hukmlar va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishdan yangi bir fikrlarni keltirib chiqarishni nazarda tutadi.

Masalan:

1-hukm: O'zbekiston - mustaqil davlat.

2- hukm: Qirgiziston - mustaqil davlat.

3- hukm: Qozogiston - mustaqil davlat.

4- hukm: Turkmaniston - mustaqil davlat.

5- hukm: Tojikiston-mustaql davlat.

Demak, Barsha Markaziy Osiyo davlatlari - mustaqildir.

Shunga o'xshash biz ba'zan ayrim fikrlardan umumiy bir fikr keltirib chiqaramiz (bu - induktiv xulosa shiqarish), ba'zan esa aksincha, umumiyyidan juz'iy - alohida fikr chiqaramiz (fikrlashning bunday harakati deduksiya deb ataladi).

Tafakkur operatsiyalari

Bundan tashqari, psixologiya bizdagi fikrlash jarayonini ta'minlovchi alohida operatsiyalarni ham o'rganadi. Bular:

Analiz;

Sintez;

Mavhumlashtirish;

Taqqoslash;

Umumlashtirish.

Fikrlash oreratsiyalariga **analiz** (*fikran narsa va hodisalarga taalluqli sifat va xususiyatlarni alohida qilib ajratish, tahlil qilish*);

sintez (*analiz jarayonida ajratilgan qismlarni yana fikran birlashtirish, qo'shish*);

mavhumlashtirish (*alohida biror xususiyatni ajratib, boshqalaridan fikrni chalg'itish, ayrim xossani mavhumlashtirish*);

taqqoslash (*predmetlar va ularga xos bo'lgan xususiyatlarni fikran bir - biriga solishtirish, umumiylashtirish, umumiylashtirish*);

umumlashtirish (*umumiylashtirish, umumiylashtirish*) kabilar kiradi.

Mustaqil fikrlash – sog'lom ma'naviyatning mezoni sifatida. Tafakkurni rivojlanadirish

Biz yuqorida tafakkurni individual xususiyatlari va ushbu jarayonga xos bo'lgan umumiylashtirishlarni o'rgandik. Lekin aslida maqsad shundayki, har bir shaxs o'zidagi tafakkur va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos tomonini bilgan holda uni o'stirish yo'llarini bilishi kerak. Oxirgi yillarda psixologlarning o'tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari shuni ko'rsatdiki, fikrlash jarayonlarini guruh sharoitida, dars paytida ham o'stirish va bunga qisqa yo'llar bilan erishish mumkin ekan. Ularning fikricha, guruhdagi hamkorlikdagi faoliyat idrok va xotiraning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, fikrlash jarayonini tezlashtiradi va faoliyatni samaraliroq qiladi. Ayrim juda jiddiy va murakkab ijod daqiqalarini inobatga olmaganda, yaxshi tashkil etilgan dars jarayoni, undagi faoliyat shakli individual tafakkurning ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa isbot qilinganki, jamoada ishlash ko'plab nostandard fikrlarning tug'ilishi, ularning ichidan eng yaxshilarining saralanishi va yangidan yangi g'oyalarning paydo

bo'lishiga sabab bo'larkan.

Ana shunday samara beruvchi metodikalardan biri "breynstorming" deb atalib, uning lug'aviy ma'nosi "miyani zabit etish"dir ("mozgovaya ataka" ruscha – "brain storming" ingl.). Uni o'tkazish quyidagi tamoyillarga asoslangan.

Ba'zi intellektual masalalarni yechishda bitta yechim bilan cheklanib bo'lmaydi va shu maqsadda ijodiy fikrlovchilar guruhi tashkil etiladi va bu jarayonda "gruppaviy effekt" bo'lishi kutiladi. Guruh ishi tez va optimal qarorlar qabul qilishga qaratilgan bo'ladi va bunda alohida ayrim individual qarorlarga ta'sirlanishga yo'l qo'yilmaydi.

Guruhgaga shunday kimsalar kiritiladiki, ular bir-birlaridan fikrlash uslublarining noyobligi bilan farq qiladilar. Masalan, kimdadir mantiqiylik ustun, kimdir kreativ, kimdir tanqidchi va shunga o'xshash.

Guruhda shunday ijodiylik ruhi bo'lishi kerakki, har kim xohlagan fikrini bemalol aytaveradi, u yoki bu fikr tanqid qilinishi mumkin, lekin uning egasi tanqid qilinmaydi. Bunday sharoitda o'rtacha intellektual darajaga ega bo'lgan shaxs ham shunday fikrlar izhor qila boshlaydiki, ular alohida qolgan paytida sira ham miyaga kelmagan bo'lardi.

Bu jarayon oliy o'quv yurtlarida darslarda ham qo'llanilishi mumkin, faqat uning yuqoridaq tamoyillari inobatga olinishi va guruhda o'zaro hamjihatlik muhiti bo'lishi kerak.

AMALIY MASHGÜLOT UCHUN KO`RSATMALAR:

Asosiy muammo "*Shaxsning diqqati va bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq. Shaxsning emotsional irodaviy xususiyatlari*" mavzusi yechimini topishga qaratilgan faoliyatni tashkillashda baxs-munozara usulidan foydalaniladi.

1-topshiriq. Mavzu bo'yicha bilim darajasini aniqlash testlari:

1.Xilma-xil predmet va hodisalar orasida kerak bo'lgan obyektni xossa va xususiyatlari bilan aks etishni ta'minlaydigan psixik jarayon:

- a) diqqat; b) idrok; c) tafakkur; d) xotira.

2.Shaxs tajribasiga aloqador har qanday ma'lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog'liq psixik jarayon:

- a) sezgilar; b) idrok; s) tafakkur; d) xotira.

3.Shaxs ongingin narsa va xodisalarga yo'nalganligini aks ettiradigan psixik jarayon:

- a) diqqat; b) idrok; s) tafakkur; d) xotira.

4.Inson ongingin bilish obyektlari hisoblanmish narsa va xodisalar o'rtaida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi aks ettirish shakli:

- a) sezgilar; b) idrok; s) tafakkur; d) xotira.

2-topshiriq. “Asalari galasi” metodidan foydalanish

Ushbu metodning maqsadi to'g'ri va murakkab savol tuza olish uchun talabalarni mavzuni yaxshilab o'zlashtirishga, birgalikda muhokama qilishga, takrorlashga o'rgatishdan iborat.

Guruhi qatnashchilari 10 minut davomida mavzu bo'yicha yoki har bir guruh mavzu rejali asosida savollar tuzishi lozim. Keyin ixtiyoriy bir guruhga qolgan barcha guruhlar ketma-ketlikda savollar bilan asalari galasidek “yopiriladi”. Javoblar yozma yoki og'zaki tashkil qilinishi ham mumkin. Guruhning to'g'ri javoblari ball tariqasida qo'yib boriladi. Eng ko'p ball yig'gan guruh g'olib hisoblanadi va a'lo baholanadi.

“Asalari galasi” metodi savollari:

1. Diqqat va uning boshqa bilish jarayonlari bilan bog'liqligini tushuntiring.
2. Diqqatning qanday turlarini bilasiz?
3. Diqqat xususiyatlari haqidagi mulohazalariningizni bildiring.
4. Parishonxotirlik nima?
5. Sezgi qanday klassifikatsiyalanadi?
6. Sezgilar qanday sifatga ega?
7. Sezgi qanday hodisalarda aks etadi?

8. Sezgi turlarining psixologik tavsifini bering.
9. Idrok nima?
10. Appersepsiya tushunchasi va uning turlarini ta'riflang.
11. Idrok qanday turlarga bo'linadi?
12. Idrok fenomenlarini izohlang.
13. Idrok qanday xususiyatlarda ifodalanadi?

3- topshiriq

“B / BX / BO” jadvali

Topshiriq: Diqqat va sezgi mavzusi bo'yicha "Nimalarni bilasiz?", "Nimalarni bilishni xohlaysiz?", "Nimalarni bilib oldingiz?" savollariga B/BX/BO jadvali asosida javob bering.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Bajarilishi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Diqqat va sezgini ta'rifini, turlarini	Diqqatni rivojlantirish va sezuvchanlikni oshirish yo'llarini, ularning xususiyatlarini	Diqqatni rivojlantiruvchi mashqlarni, uni irodaga bog'liqligini, sensibilizatsiya, sinesteziya, adaptatsiya, sensomotorika hodisalari va ularning xususiyatlarini

4- topshiriq

Shaxs idrokining assotsiativ testi

Yo'riqnomma: Savollarga shoshilmasdan, tartib bilan javob bering. Imkon qadar chuqur mulohaza qilgan holda, jiddiy yondashing. Javoblarga oldindan qaramang, aks holda harakatlarining zoye ketadi.

1. Quyidagi hayvonlar sizga qanchalik yoqishini hisobga olib, o'zingizga ma'qul holda ularni ketma-ketlik bilan joylashtiring:

sigir, yo'lbars, qo'y, ot, ilon.

2. Quyidagilarga bitta so'zdan iborat sifat keltiring. Albatta so'zning o'z asl fazilatini keltirish shart emas. Ular sizda qoldirgan taassurotdan kelib chiqqan holda ta'riflab bering:

a) it, b) mushuk, v) kalamush, g) qahva, d) dengiz.

3. Yaqinlaringiz orasidan quyidagi ranglarga moslarini tanlang. Ushbu ranglar yaqinlaringizning tashqi ko'rinishiga emas, balki ular haqidagi tasavvuringizga mos tushishiga qarab e'tibor bering:

a) sariq, b) olov rang, v) qizil, g) o?, d) yashil.

Javoblar:

Birinchi savoldan siz uchun hayotda nimalar qanday o'rinn tutishini bilib olasiz:

Sigir – ish-faoliyatiningiz; yo'lbars – or-nomus; qo'y – muhabbat; ot – oila; ilon – boylik.

Ikkinci savol sizning ba'zi narsalar yoki kimsalarga munosabatingizni oydinlashtiradi:

It – o'zingiz; mushuk – sevgilingiz; kalamush – dushmaningiz; qahva – jinsiy munosabat; dengiz – hayotingiz.

Uchinchi savol yaqin kishilariningizga nisbatan haqiqiy munosabatingizni aniqlash imkonini beradi:

Sariq – siz hech qachon unutmaydigan kishi; olov rang – eng yaqin do'stim deb bilgan kishi; qizil – siz haqiqatdan sevadigan inson; oq – sizga ruhan yaqin kishi; yashil – bu odamni butun umr hurmat bilan eslaysiz.

5-topshiriq. Psixologik trening: Diqqat qanday rivojlanadi?

Deyarli hamma kasb u yoki bu shaxs diqqatining u yoki bu talabiga javob berishiga qarab belgilanadi. Shuning uchun bolalik davridan boshlab diqqatni rivojlantirib agazine kerak. Buni bajarish uchun umumiy maslahatlar:

1. O'zingizni har xil sharoitda, hatto shovqinli va ishlashga halaqit beruvchi sharoitda ham ishlashga o'rgating. Ishga halaqit beruvchiga e'tibor bermaslikka harakat qilish kerak.
2. Vaqtda bir necha xil obyektni kuzatishga tizimli mashq qiling. Uni shunday qilish kerakki har bir obyektni umumiy qabul qilinishi kerakli saqlanishi va u vaqtini o'zida diqqatni 2-darajadan ajratib, asosiy narsaga qaratish kerak.
3. Diqqatni o'zgartirishni mashq qiling. Bu mashq 3 yo'nalishda bo'ladi:
 - diqqat bir obyektdan boshqasiga tez o'zgartirish;
 - asosiy obyektni 2-darajasidan ajratib olish;
 - diqqatni o'zgartirish tartibi ko'nikmasini egallash; buni obrazli qilib aytganda "qabul yo'nalishi" deyiladi.
4. O'zingizda iroda kuchini rivojlantiring. Bu diqqat rivojlanishiga yordam beradi. Har agazine o'z harakatlarini eng mayda kamchiliklarga ham e'tibor berishga o'rgatish zarur. O'zingizni shu narsani xohlamagan taqdirda ham bajarishga majbur qiling. Doim "bajarish kerak" degan prinsipga amal qilib "xohlamayman" degan odatni tashlash kerak. Doim ishni eng og'ir va qiziq bo'limgan qismini bajarishga harakat qiling, uni orqaga tashlamang. Doim yengil va og'ir ishlarni qiziq va qiziq bo'limgan ishlarni navbat bilan bajarishga intiling, uzoq ish davomida tanaffus qiling.
5. Tez – tez, har – xil o'yinlarni o'ynab turing, (shaxmat, sport o'yinlari). Bu o'yinlar diqqatni rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun bu o'yinlar sizni maqsad sari yetaklaydi, harakatchan bo'lishni ta'minlaydi. Ba'zi o'yin diqqatni rivojlantirishga qaratilgan, ovchilik bilan shug'ullanadigan hind qabilalari uchun diqqatni rivojlantirish juda muhim bo'lib, ular orasida quyidagi o'yin keng tarqalgan: ikki yoki bir necha kishi o'zaro musobaqalashib, qisqa vaqt ichida biron bir narsaga tikilib turadi va eslab qolgan narsalarni va nomlarini sudyaga aytadi.

Siz esa shaharga aylangani chiqqanda agazine ko'rgazmalarida qo'yilgan narsalarga e'tibor bering, ularni qanday joylashganligini o'z tasavvuringizda belgilang.

6. Doim o'z qobiliyatingizni, diqqatingizni bir joyga to'plashga o'rgating. Odamning turli muskullari holati diqqat bilan bog'langan, shuning uchun boshlang'ich sinfdan bunga o'rgatish lozim, masalan, bola obyektga nisbatan to'g'ri o'tirib, barcha diqqat e'tiborini bir joyga to'plab, keyinchalik yana ushbu obyektni xuddi shu tarzda kuzatish kerak. Ba'zi bir hind qabilasida bolalarni tik o'tirib, hech narsaga qaramay, hech narsa tinglamay o'tirishga o'rgatadilar, lekin bu og'ir sinov bo'lib hisoblanadi. Siz ham shunday qilishga harakat qiling.

“Bir–biringizni biling” mashqi

Mashqni amalga oshirish uchun ishtirokchilar ikkita guruhga ajratiladi. Guruh a'zolarining vazifasi bir-birlari haqida ko'proq ma'lumot olish uchun savollar bilan murojaat qilishdan iboratdir.

Guruhsda qoidalar hosil qilish. Guruh a'zolari aylana bo'lib o'tiradilar va guruhiy ish tamoyillarini muhokama qiladilar. Trening davomida ishtirokchilar rivoja qilishi shart bo'lgan qoidalar hamda mashg'ulotlar qachon boshlanishi, davomiyligi va yakuni, guruh a'zolarining rituvallari (salomlashish va xayrlashuv usullari, chekhanishlar, kechikkanda va guruh qoidalari buzilganda jazolash) belgilab olinadi.

Guruh rituallari muhokama qilingandan so'ng belgilab olinadi. Guruh a'zolarining roziligidan so'nggina, bunga qat'iy amal qilinadi. Bu guruhda ishslashning muhim jihatni hisoblanadi.

Uchrashuv vaqtini trener belgilaydi.

Guruhsda ishslashning asosiy tamoyillari: guruhda ishslash tamoyillari she'riy shaklda taklif qilinadi. Uni trening ishtirokchilarining o'zлари ishlab chiqadilar. Bu ularning bir-birlarining idrok qilishlarini yengillashtiradi va qiziqishlarini orttiradi. She'r aytilgach, trener tamoyillarni yana bir bor izohlab beradi, masalan:

Jahl qilibsiz, treninga kelishga, sabr qiling, oxirigacha bo'ling biz bilan birga.

Guruhsda butun mashg'ulot mobaynida birga ishtirok etish maqsadga muvofiq. Bu tamoyil guruh a'zolarining o'zaro bir-birlarini idrok qilishlariga imkon beradi. Birorta qatnashchining ishtirok etmasligi guruh ichidagi munosabatlar buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Muomalada ochiqroq bo'ling,
Erinmasdan, dangalroq harakat qiling.
Muammoni hal etish istagingiz bo'lmasa,
Yolg'on ishlatmay, jim tura qoling.

Guruhsda erinish va yolg'on ishlatish kerak emas. Guruh-bu sizni ochiq – oydin fikr-mulohaza bildirishga imkon beruvchi joy-sharoit. Agar siz savollarga ochiq-oydin javob berishga tayyor bo'lmasangiz, yaxshisi jim turing.

Sizning guruhga "to'xta", deyishga huquqingiz bor.

Muammoni muhokama qilmang.

Har bir guruh a'zosi "to'xta" deyish huuqiga ega. Agar sizga aloqador savolni muhokama qilishga tayyor bo'lmasangiz yoki mashq sizga psixologik ta'sir qilsa (asoratga sabab bo'lsa), ushbu "to'xta" deyish huquqidan foydalaning .

Faolroq bo'ling o'yinda,
Shubhali muammolar hal bo'lar shunda.

Muhokama qilinayotgan muammoni guruhdan tashqariga chiqarmang. Hammasi o'zaro qolishi lozim. Treningda muammolarni guruhdan tashqarida muhokama qilish ma'qul emas. Bu ushbu ishning asosiy qoidalaridan biri.

Faqat o'zingiz haqingizda so'zlang, muhokamadan chetlanib qolmang. "Men his qilaman", "O'yashimcha".

Har bir ishtirokchi o'z nomidan o'zi uchun gapiradi. Muhokamadan chetga chiqib, "hamma shunday deydi" qabilida mulohaza yuritishga yo'l qo'yilmaydi. Siz o'z mulohazangizni "menimcha", "mening o'yashimcha" tarzida ifodalang.

1. Har bir kishi o'z fikriga ega. Hech kimni baholamang, tanqid qilmang. Hammaning fikri tinglanadi va qo'llab-quvvatlanadi. Guruhda bir-birini tushunish, his qilish lozimdir.

6 – topshiriq. Guruhlarda yechish uchun vaziyatli masalalar.

1-masala. 1) O'quvchilarning holatini qaysi fiziologik mexanizm bilan asoslash mumkin?

Matematika o'qituvchisi yangi teoremani tushuntirishda o'quvchilarning diqqatini shunday chuqur egalladiki, ulardan hech biri dars yakunlanishi bilan chalingan qo'ng'iroqni eshitmadni.

2) Tasvirlangan tajribada diqqatning qanday fiziologik mexanizmlari namoyon bo'ladi?

Sinaluvchi N., tajriba o'tkazuvchining ko'rsatmalariga (instruksiyasiga) ko'ra xira chiroqchalarga e'tibor bermasdan, yorqin chiroqchalarning yoqish ketma-ketligini eslab qolishi kerak edi. Tajribadan ma'lum bo'ldiki, miya po'stlog'inining chiroqchalarining yorqin yonishiga to'g'ri keladigan qismida qo'zg'aluvchanlik oshgan, xira yonishiga to'g'ri keladigan qismida esa pasaygan.

2-masala. O'quvchining darsda ixtiyoriy diqqatini jalb etishning qanday shartlari namoyon bo'lmoqda? Unda ixtiyoriy diqqatning mavjudligini qaysi belgilarga ko'ra aniqlash mumkin?

O'quvchi o'zining darsda qanchalik diqqatli bo'lishga harakat qilayotgani haqida so'zlab, dedi: "Men geometriyani o'rghanishni istayman, lekin bu menga qiyinchilik tug'diryapdi. O'qituvchini eshita turib, ba'zida xayolim boshqa tomonga chalg'ib ketayotganini sezaman. Shunda men o'zimga o'zim uyda teoremani o'rghanishim yanada qiyinroq bo'lishini ta'kidlayman. Men ichimda o'qituvchining har bir so'zini takrorlab, shu tarzda diqqatimni to'playman".

3-masala. Tadqiqotlardan birida sinalayotgan talabalarga elektron taxistoskop orqali 0,02 sekund ichida bir necha kishining yuzi aks ettirilgan fotosuratlarini ko'rsatganlar, ana shu kishilarga ta'rif yozish talab qilingan edi. Fotosuratlar birinchi marta ko'rsatilganida tadqiq etilayotgan kishilar o'sha suratdagi

shaxslarning faqat tashqi ko'rinishlari asosidagina idrok etilgan axborot bo'yicha "erkin" ta'rif-tavsif berdilar. Fotosuratlarni takroriy namoyish qilish vaqtida ularga izoh berib, bu "guruh yetakchisi (sardori)", uchinchi ko'rsatishda esa bu "yaxshi o'rtoq", to'rtinchi safar ko'rsatishda – bular "a'lochilar", va nihoyat beshinchi marta ko'rsatish vaqtida – bu "qoloq" – deb ta'riflab turganlar.

Shu narsa ma'lum bo'ldiki, barcha hollarda sinalayotgan kishilar bir odamning o'ziga, ya'ni idrok etilayotgan obyektga har xil ta'rif bergenlar, uni turli ehtiyoj va qobiliyatlarga ega bo'lgan, o'qishga, hayotga nisbatan bir xil munosabatda bo'limgan kishi sifatida ta'riflab bergenlar.

Obyekt sifatida tanlab olingan kishilarga ta'rif berishda sinalayotganlar shaxsiga xos qanday xususiyatlar hal qiluvchi rol o'ynaganligini ko'rsating?

Inson hayotida, uning voqelikni idrok etishida bu xususiyatlar qanday ijobiy ahamiyat kasb etadi?

4-masala. Bine-Shtern nazariyasiga binoan bolalarda kuzatishning rivojlanishi bir qancha bosqich yoki darajalardan o'tadi. Bu darajalar muayyan bir izchillikda bir-birining o'mini almashtirib turadi va doimiy ravishda shunday harakatda bo'ladi:

Turli aralash buyumlarni sanab, nomma-nom aytib bera olish bosqichi (3 yoshdan 7 yoshgacha)

Bayon eta olish bosqichi: bunda buyum (narsa)larga ta'rif beriladi, ular o'rtasidagi ba'zi bir aloqalar ko'rsatib o'tiladi.

Izohlash, tushuntirish bosqichlari: bunda manzara umuman to'liq idrok etiladi, narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqalar hamda munosabatlar ochib beriladi.

Ushbu nazariyani amalda tekshirib ko'rish vaqtida psixolog olimlar (S.L.Rubinshteyn, G.T.Ovsepyan) shunday xulosaga keladilarki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan bosqich va darajalarni bolalarning yoshiga nisbatan olmaslik kerak. Narsa va hodisalarni qay darajada idrok etishiga qarab, bir xil yoshdagagi bir qancha bolalar turli kuzatish bosqichlarida bo'lib qolishlari, xuddi shuningdek, turli yoshdagagi bolalar aynan shu xil bosqichda bo'lib qolishlari mumkin.

Insayt - oydinlashuv holati qanday yuzaga keladi?

1. Tafakkurning qanday turlari mavjud?
2. Intuitiv va fikrlovchi tirli kishilarning bir-biridan farqi nimada?
3. Tafakkur qilish shakllari qanday?
4. Tafakkur operatsiyalariga nimalar kiradi?
5. Tafakkurni qanday rivojlantirish mumkin?

9-MAVZU. JAMOA, GURUH, MULOQOT VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

TAYANCH IBORALAR :

Referent guruh, guruh o'lchamlari, psixologik o'zaro moslik, psixologik muhit, normativ guruhrar, qiyoslash guruhrari, negativ guruhrar.

Insoniy munosabatlar psixologiyasi. Shaxs - ijtimoiy munosabatlar mahsulii deyilishining eng asosiy sababi - uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo`lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita "yuzma-yuz" bo`lishi; u yoki bu texnik vosita(telefon, telegraf va shunga o`xshash)lar orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do`stona bo`lishi; sub`yekt-sub`yekt tipli (diologik, sheriklik) yoki subyekt-obyektlis (monologik) bo`lishi mumkin.

Insoniy munosabatlar shunday o`zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon bo`ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o`rtasida ro`y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo`lgani sari, ular orasidagi

munosabatlar tajribasi ortgani sari ular o`rtasida umumiylit, o`xshashlik va uyg`unlik kabi sifatlar paydo bo`ladiki, ular bir - birlarini bir qarashda tushunadigan yoki “yarimta jumladan” ham fikri ayon bo`ladigan bo`lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig`izligi teskari reaktsiyalarni - bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig`iz munosabatlar sirasiga kiradi. Faqat bunday tig`izlik oilaning barcha a`zolari o`rtasida emas, uning ayrim a`zolari o`rtasida bo`lishi mumkin (ona - bola, qaynona - kelin va h.k.).

O`zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlarning munosabatlardan ko`zlaydigan asosiy maqsadlari - o`zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo`lsa, “jozibasi”, betakrorligi shundaki, o`zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o`ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo`lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta`sir bo`lgan bo`lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko`rismay qolgan do`stingizni ko`rib qoldingiz. Siz undan hol-ahvol so`radingiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma`qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo`lgan va siz ikkinchi marta o`sha odam bilan iloji boricha rasman salom - alikni bajo keltirib o`tib ketaverган bo`lardingiz. Ya`ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo`ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o`ziga jalb etadi.

Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma`naviy jihatdan rag`batlantiriladilar.

XXI asrda yashar ekanmiz, odamning eng tabiiy bo`lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo`lish va o`zgalarga samarali ta`sir eta olishga bo`lgan intilishi yanada oshdi va buning qator sabablari mavjud.

Birinchidan, industrial jamiyatdan axborotlar jamiyatiga o`tib bormoqdamiz. Axborotlarning ko`pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma`lumotlarni saralash,

u bilan to`g`ri munosabatda bo`lishni taqozo etdi. Axborot XXI asrda eng nodir kapitalga aylandi, bu esa o`z navbatida insonlarga zarur axborotlar uzatilishi tezligi va tempini o`zgartiradi.

Ikkinchidan, turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko`payishi, ular o`rtasida munosabatlar va aloqaninng dolzarbligi axborotlar tig`iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Umuman, XXI asrning korporatsiyalar asri deb bashorat qilayotgan iqtisodchilar ham bu korporatsiya insonlarning o`zaro til topishlariga qaratilgan malakalarning rivojlangan, mukammal bo`lishi haqida gapirmoqdalar. Undan tashqari, bu kabi korporativ aloqa ko`p hollarda bevosita yuzma-yuz emas, balki zamonaviy texnik vositalar - uyali aloqa, fakslar, elektron pochta, internet kabilar yordamida aniq va lo`nda fikrlarni uzatishni nazarda tutadi. Bu ham o`ziga xos muloqot malakalarining ataylab shakllantirilishini taqozo etadi.

Uchinchidan, oxirgi paytlarda shunday kasb-hunarlar soni ortdiki, ular sotsionomik guruh kasblar deb atalib, ularda “odam-odam” dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Masalan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar (servis), marketing va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday sharoitlarda odamlarning ataylab muloqot bilimdonligining oshirilishi mehnat mahsulini belgilaydi.

Shuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o`rgatish (sotsial psixologik trening) masalalari bilan shug`ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o`rni va salohiyati keskin oshdi.

Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o`rni. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo`lish imkoniyatidan mahrum bo`lgan odam o`zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo`lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o`zaro *bir-birini tushunishlarini* ta`minlashdir. Bu o`zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O`zbek xalqining eng nodir va buyuk xislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta, ochiq yuz bilan kutib oladi, ko`rishadi, so`rashadi, hol-ahvol so`raydi. Shunisi xarakterlik, ta`ziyaga borgan chog`da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz. Bu kabi birlamchi kontakt usullari boshqa millat va xalqlarda ham bor, ya`ni bu jihat milliy o`ziga xoslikka ega.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o`ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o`g`irlanib ketilishi, so`ng ma`lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo`lishi faktlari shuni ko`rsatganki, “tog`da o`sgran bola”, “mauglilar” biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday holat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko`plab psixologik eksperimentlarda o`z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo`li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o`zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko`plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya`ni yolg`izlatib qo`yishning insonning ruhiyatiga ta`siri o`rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo`lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg`izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o`zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o`zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o`rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg`izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, xavotirlanish, o`ziga ishonchsizlik, qayg`u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqliki, yolg`izlikka mahkum bo`lganlar ma`lum vaqt o`tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko`rgan yoki his qilayotgan

narsasi xususidagi gaplar bo`lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo`lar ekan. Masalan, M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g`or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o`tgach, u turgan yerda bir o`rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. “Biz, deb yozadi u, shu hayotsiz g`or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o`rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg`ura boshladim...”

Shaxsning muloqotga bo`lgan ehtiyojining to`la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta`sir ko`rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o`zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko`pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o`tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonmaydon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o`z oldida turgan hamkasbiga qarab ko`proq, tezroq ishlashga kuch va qo`shimcha iroda topadi. To`g`ri, bu hamkorlikda o`sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o`rtasida o`zaro simpatiya hissi bo`lsa, unda odam ishga “bayramga kelganday” keladigan bo`lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta`sirini o`rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya`ni so`rovnama asosida bir-birini yoqtirgan va bir-birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o`zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo`lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi va samaradorlikning muhim omillaridandir.

Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir - birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko`zlagan maqsadlaridan biri - o`zaro bir-birlariga ta`sir ko`rsatish, ya`ni fikr-g`oyalariga ko`ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o`zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir.

Psixologik ta'sir - bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

1.Verbal ta'sir - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so`zlardir. Ma'lumki, nutq - bu so`zlashuv, o`zaro muomala jarayoni bo`lib, uning vositasi - so`zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o`zidagi barcha so`zlar zahirasidan foydalaniib, eng ta'sirchan so`zlarni topib, sheringiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

2.Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to`xtashlar, duduqlanish, yo`tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do`stimiz bizga biror narsani va`da berayotgan bo`lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib - pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan “Albatta bajaraman!”, desa ishonamiz, albatta.

3.Noverbal ta'sirning ma`nosi “nutqsiz” dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o`rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o`rtog`ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, “Ko`rganimdan biram xursandman”, desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir - birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo`lishganda, dastavval nima deyish, qanday so`zlar vositasida ta'sir etishni o`ylar ekan. Aslida esa, o`sha so`zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o`ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko`ra, birinchi marta ko`rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo`lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38% va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat

o`zgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to`g`ri: “Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi”.

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko`proq ta`sirga ega bo`lishi sheriklarning rollariga ham bog`liq. **Ta`sirning tashabbuskori** - bu shunday sherikki, unda ataylab ta`sir ko`rsatish maqsadi bo`ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta`kidlangan vositalardan foydalanadi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o`rnidan turib kutib oladi, iltifot ko`rsatadi, hol-ahvolni ham quyuqroq so`raydi va so`ngra gapning asosiy qismiga o`tadi.

Ta`sirning adresati - ta`sir yo`naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo`lmasa yoki adresat tajribaliroq sherik bo`lsa, u tashabbusni o`z qo`liga olishi va ta`sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo`ladi.

Muloqot va uni o`rganish muammolari. Oxirgi yillarda «professionalizm» tushunchasi tez-tez ishlataladigan bo`lib qoldi. Chunki jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish, mehnat unumdarligini «inson omili»ni takomillashtirish hisobiga oshirish davr talabi bo`lib qoldi. Ayniqsa, odamlarni boshqarish sohasidagi professionalizmga katta e`tibor qaratilmoqda. Juda ko`pchilik mutaxassislar barcha bajaradigan funksiyalari orasida odamlar bilan til topishish, ularga ta`sir ko`rsatish, ular faoliyatini to`g`ri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini e`tirof etmoqdalar. Odamlar bilan normal munosabatlarni o`rnata olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o`z nuqtai nazariga o`zgalarni professional tarzda ko`ndira olmaslik, «birov»ni, uning ichki kechinmalari va o`ziga bo`lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada *kommunikativ uquvsizlik*, yoki *diskommunikatsiya* holatini keltirib chiqaradi. Bunda odamlar oddiy til bilan aytganda, bir - birlarini tushunolmay qoladilar, shuning oqibatida pishib turgan loyiha yoki yaxshi reja amalga oshmasligi, bir necha oylarga cho`zilib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining tatbiqiy yo`nalishida, boshqaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni kommunikativ bilimdonlikka o`rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir korxona, xususiy firma yoki davlat muassasasini boshqaruvchi menejer, rahbar tayyorlash muammosi ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarini psixologik jihatdan odamlar bilan ishlashga o`rgatish muammosini chetlab o`tolmaydi. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis - vrach, muhandis, o`qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo`lmaquncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko`pchilik bilan til topishib, o`z professional mahoratini ko`rsata olmaydi. Har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san`atiga ega bo`lishi kerak.

Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o`rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo`ymoqda. To`g`ri, muloqotga kirishish - ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan, u tabiiy va hayotiy narsa. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofidagilar bilan faol muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o`tgan sari ongli, aqli odam har bir gapini o`ylab gapiradigan, har bir qadamini o`ylab bosadigan bo`lib qoladi, bu uning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi vositadir. Bu muloqotga kirishishga ruhan tayyorlanishning ahamiyatini ham odam anglashini taqozo etadi. Shunday qilib, ana shu eng tabiiy va bir qarashda oddiy inson faoliyati shu qadar murakkab va serqirraki, uning mexanizmlarini o`rganish, guruhlarda to`g`ri munosabatlarni tashkil etish va odamlarni samarali muloqotga o`rgatish muammosi bugungi ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.

Ma`lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o`zaro mosligi, bir-birini to`ldirishiga bog`liq ekan. Noto`g`ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o`rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so`zlardan foydalanib, ta`sirchan gapirishga o`rgatishadi. Uning

ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi “Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo`lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45% i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo`ladiganlar 35 - 40 % oylik maoshlarini odamlarni “tinglaganlari” uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko`proq foyda keltiradi.

Shuning uchun bo`lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer “Odamlarni o`zingiz to`g`ringizda yaxshi fikrga ega bo`lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang” deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo`lavversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O`qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko`rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko`pincha yaxshi gapiruvchi, so`zlovchi bo`la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo`la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy halaqit beruvchi narsa - bu bizning o`z fikr-o`ylarimiz va xohishlarimiz og`ushida bo`lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba`zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo`lamiz, lekin aslida xayolimiz boshqa yerda bo`ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o`xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko`p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo`llaymiz: *so`zma* - *so`z qaytarish* va *boshqacha talqin etish*. Birinchisi, suhbatdosh so`zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo`llab-quvvatlashni bildiradi. Ikkinci usul esa - sherigimiz so`zlarini tinglab, undagi asosiy g`oyani muxtasar, o`zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, hattoki, undagi g`oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bunday tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo`lib, “Yo`g`-e?”, “Nahotki?”, “Qaraya?”, “Yasha!” luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o`z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapiroyotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutloq hokimi, degan tasavvur unchalik to`g`ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug`diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o`zi. Tinglayotgan odam ma`nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o`zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan “teskari aloqani” olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o`rgatishning muhim yo`nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o`rinli foydalanishga o`rgatishdir.

Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

- ***aktiv holat.*** Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo`lsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so`ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;
- ***suhbatdoshga samimi qiziqish bildirish.*** Bu nafaqat suhbatdoshni o`ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o`zining har bir so`ziga uni ham ko`ndirishning samarali yo`lidir.
- ***o`ychan jumlik.*** Bu suhbatdosh gapiroyotgan paytda yuzda maz'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o`zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo`li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o`z-o`ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko`pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo`lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g`oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapishtirish va tinglashning faol o`zaro ta`sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo`lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o`rgatishga juda katta e'tibor beriladi. Bu boradagi fanning o`z uslubi bo`lib, uning nomi *ijtimoiy psixologik trening* (IPT) deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarini maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Amaliy muloqot treningi - IPTning bir ko`rinishi bo`lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo`ladigan kommunikativ malaka, ko`nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo`l-yo`riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so`zlashga o`rgatish, majlislar o`tkazish, janjalli, nizoli holatlarda o`zini to`g`ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bundagi asosiy narsa - trening qatnashchilari ongiga birovlarni tushunish, o`zini o`zga o`rniga qo`ya olish, boshqalar manfaatlari bilan o`zinikini uyg`unlashtira olish g`oyasini singdirishdir. Treninglar mobaynida *guruhiy munozaralar, rolli o`yinlarning* eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

Shaxs va guruh. Referent guruh. Shaxslararo munosabatlar asosan guruh sharoitida, shaxs ma'lum insonlar davrasida, guruhida, jamoada bo`lgan taqdirda ro`y beradi. Shuning uchun ham mutaxassislar jamoalarda ro`y beradigan shaxslararo ta`sirning qonuniyatlari va mexanizmlarini bilishlari va ularni guruhda odamlar mehnatini tashkil etishda albatta inobatga olishlari kerak.

Har bir shaxsning fe'l-atvorida, xatti-harakatlarida u mansub bo`lgan millat, xalq, hudud professional toifa, mehnat qiladigan jamoasi, yaqin atrofdagi muhim guruh o`z oilasining ta`sirida paydo bo`lgan sifatlari va xususiyatlari bo`ladi. Tarixiy shart-sharoitda, davr, davlat tizimi va o`sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy

va mafkuraviy ta'sirlar haqida yuqorida gapirgan edik. Bu ta'sir makro bosqichdagi ta'sirlar deb atalib, yaqin muhitning ta'siri - mikro bosqichdagi ta'sirlar deb yuritiladi. Ikkala bosqichdagi ta'sirlar ham ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan ahamiyatli va tarbiyaviy mohiyatga egadir. Chunki har bir sharoitda shaxs o`ziga xos ijtimoiy rollarni bajaradi va o`zining "qiyofasini" namoyon etadi. Mehnat jamoasida professional rollarni bajarish jarayonidagi xulq-atvori shaxsning ma'naviy va psixologik ko'rinishdagi asosiy omil bo`lib, katta yoshdagi odam psixologiyasini tubdan o`zgartirish uchun uning professional faoliyatili ham o`zgartirish kerak deyiladi.

Shunday qilib shaxsga bir vaqtning o`zida turli ijtimoiy guruhlarning ta'siri bo`lib turadi. To`g`ri, ma'lum davrda bir ijtimoiy guruhning shaxsga ta'siri sezilarliroq va ahamiyatliroq, ikkinchisiniki esa sal kamroq bo`ladi. Masalan, talabalik yillarida mакtabdagi o`qtuvchilar guruhining ta'siri mahalladagi o`rtoqlar davrasinikidan kuchliroq bo`lishi, yangi xonadonga kelin bo`lib tushgan qiz uchun yangi oila muhitning ta'siri talabalik guruhinikidan kuchliroq bo`lishi tabiiy. Lekin har bir aloqada, daqiqada biz doimo ma'lum guruhlar ta'sirida bo`lamiz. Xo'sh, guruhning o`zi nima? **Guruh**— ma'lum ijtimoiy faoliyat maqsadlari asosida to`plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasidir. Demak, guruh uchun ikkita asosiy mezon mavjud: biror faoliyatning bo`lishligi (mehnat, o`qish, o`yin, muloqot, maishiy manfaatlar) hamda u yerda odamlarning o`zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi.

Har bir shaxs uchun taraqqiyotning har bir alohida bosqichida shunday odamlar guruhi bo`ladiki, u ularning niyatlari, qiziqishlari, harakat normalari, g`oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo`ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga taqlid qiladi. Bunday guruh, psixologiyada referent guruh deb ataladi. Amerikalik sotsiologlar referent guruhlarning bir necha turlarini farqlaydilar.

Normativ guruhlar— bu shaxs uchun shunday insonlar guruhiki, ularning normalarini u ma'qullaydi, ularga amal qilishga hamisha tayyor bo`ladi. Bunday guruhlarga birinchi navbatda oilali, diniy yoki milliy uyushmalarni, professioinal guruhlarni kiritish mumkin. Masalan, o`zbek xalqi uchun dasturxon atrofiga

o`tirgan zahoti yuzga fotiha tortish, mezbonlarning mehmonlarga “Xush kelibsizlar” deyishlari norma hisoblanadi va har bir oilada shunday harakatlarga nisbatan ijobiy ustanovka shakllanadi. Bunda bola uchun referent rolini ota-onasi, kattalar, mahalladagi hurmatli insonlar o`ynaydi.

Qiyoslash guruhlari bu shunday guruhki, shaxs o`sha guruhga kirishni, uning maqullashiga muxtoj bo`lmaydi, lekin o`z harakatlarini yo`lga solishda unga asoslanadi va korreksiya qiladi. Masalan, talabalar guruhida shunday yoshlar bo`lishi mumkinki, shaxs ular bilan umuman muloqotda bo`lmaydi, ularning fikrlari yoki qarashlarini yoqlamaydi, lekin bu guruh aynan o`shalarga o`xshamaslik va o`z ustida ko`proq ishlashga o`zini safarbar qilish uchun kerak. Yoki talaba yoshlar sessiya yakunlariga ko`ra differensial stipendiya oladilar. O`rtacha o`zlashtiruvchi talaba uchun «hamma talabalar» oladigan stipendiya miqdorini nazarda tutib, o`zini tinchlantiradi, a'loshi esa, o`zinikini nafaqat oddiy, o`rtachalar bilan balki, davlat stirpndiyalari oladiganlar bilan ham solishtiradi. Ko`rsatgichlar qanchalik yuqori bo`lsa shunga mos da'vogarlik darajasi ham yuqori bo`ladi, shaxsning qiyoslash guruhlari ham ortiqroq bo`ladi.

Negativ guruhlar shundayki, shaxs ularning xatti-harakatlaridan ataylab voz kechadi, chunki ular shaxsiy qarashlardan mutloq farq qiladi. Masalan, ikki qo`shni bir-biri bilan murosalari kelishmasa, hattoki, devorlarini oqlashda ham biri tanlagan rangni ikkinchisi tanlamaydi. Biri “oq” desa, ikkinchisi - aksincha “qora” deb turaveradi.

Guruhlarning turlari. Kundalik hayotda shaxs muloqotda bo`ladigan, vaqtini bирgalikda o`tkazadilar kishilar guruhi ham turli xil bo`ladi. Masalan, agar odamlar ko`chada tasodifiy hodisani tomoshabini bo`lib turishgan bo`lsa, ularni psixologiya tilida guruh emas, agregatsiya (olomon) deb atashadi. Haqiqiy guruh uchun o`sha odamlarning barchasiga aloqador umumiyl faoliyat va hamkorlik qilish, bir-birlariga ta'sir ko`rsatish imkoniyati bo`lishi kerak. Amerikalik psixolog Sh. Kuli hamkorlikning darajasi mezoniga ko`ra guruhlarni birlamchi va ikkilamchi turlarga bo`lib o`rganishni taklif etgan edi. Birlamchi guruhda

shaxslararo o`zaro ta'sir “yuzma-yuz, bevosita” ro`y beradi. Masalan, oila davrasidagi sinfdagi hisobchilar xonasida o`tirganlar birlamchi guruhga misoldir.

Ikkilamchi guruhlarda har doim ham odamlarning bevosita muloqotda bo`lish imkoniyatlari bo`lmaydi. Ular o`rtasidagi munosabat va o`zaro ta'sir bilvosita bo`ladi. Masalan, yirik bir tashkilotdagi tizimlar orqali muloqot, kasaba uyushmasiga birlashgan odamlar, “Vatan” taraqqiyoti partiyasi a`zolarining bog`liqligi ikkilamchi guruhga misol. Ularda ham umumiylit bo`ladi, masalan, o`sha partiyani oladigan bo`lsak, ular Qashqadaryoda bo`ladimi, Farg`onadami, baribir umumiyl qoya atrofida birlashishadi, a`zolik badallarini vaqtida to`lab turishadi, saylov oldi kompaniyalarida bir-birlarini qo`llab-quvvatlab turadilar.

Ko`pincha guruhlarni rasmiy va norasmiy turlarga ham bo`lib o`rganishadi. Rasmiy guruhdagi munosabatlar rasmiy normalar va xuquq burchlar tizimi bilan belgilangan bo`ladi. Masalan, guruhda boshliq bilan xodimlar o`rtasidagi munosabatlarni ta'minlovchi guruh rasmiy bo`lsa, norasmiy ichki, bevosita psixologik munosabatlarni ta'minlovchi guruh hisoblanadi. Masalan, do`stlar guruhi yoki talabalar guruhidagi barcha qizlarning tanaffus paytidagi muloqoti guruhi.

Turli guruhlar inson hayotida bir necha funksiyalarni bajaradilar:

- a) ijtimoiylashtiruvchi funksiya;
- b) instrumental, ya'ni, aniq mehnat funksiyalarni amalga oshirishga imkon beruvchi muhit;
- v) ekspressiv - odamlarning o`zgalarning tan olishlari, hurmatga sazovor bo`lish, ishonch qozonishini ta'minlash;
- g) qo`llab-quvvatlash, ya'ni, qiyin paytlarda, muammolar paydo bo`lganda odamlarni birlashtirish funksiyasi.

Guruh o`lchamlari va uning tizimi. Guruhlar ulardagi odamlar soniga ko`ra katta va kichik guruhlarga bo`linadi. Psixologiyada ko`proq kichik guruhlar o`rganiladi. Uni necha kishi tashkil etishi, necha kishi hamkorlik qilish faoliyati ko`proq samara berishi masalasi amaliy ahamiyatga egadir. Ko`pshilik olimlar guruhning boshlang`ish nuqtasi sifatida miqdor jihatdan ikki kishini - - diadani tan

olishadi. Polyak olimi Yan Sharanskiy bunga qo`shilmasada (uning fikricha kamida uch kishi triadadan boshlanadi), har qalay diada o`ziga xos uyushma sifatida tan olingan. Masalan, yangi oila qurib, birga yashayotgan kishilar, sevishganlar, ikki do`st - o`ziga xos kishik guruh. Har qanday kishik guruhga xos sifat shuki, uning a'zolari bir-birlari bilan bevosita muloqotga kirishish, "yuzmayuz" bo`lish imkoniyatga ega bo`ladi. Har bir kishi uchun shu guruh juda ahamiyatli bo`lib, uning normalariga o`zi xohlab xohlamay bo`ysuna boshlaydi. Kichik guruhning chegarasi masalasi ham ko`p muhokama qilinadi.

G.M.Andreyeva bu chegarani 12 - 15 kishi deb hisoblasa, amerikalik Moreno o`z vaqtida bu chegarani 30-40 gacha so`rgan edi. Lekin bizningcha uning yuqori chegarasi necha kishi bo`lishidan qat'iy nazar, o`zaro bevosita muloqot imkoniyatini berishi va har bir a'zo bir-biriga ta'sir ko`rsata olishi kerak.

Har bir o`ziga xos psixologik tizimga ham ega. Uni tashkil etuvshi elementlar nisbatan barqaror bo`lib, ular guruh a'zolari xulq-atvorini muvofiqlashtirib turadi. Avvalo guruhning maqsadini ajratish kerak. Maqsadodamlarni jamoa mehnati atrofida uyushtirib, birlashtiruvchi psixologik elementdir. Masalan, barsha talabalarning maqsadi - o`qish, professional malaka orttirib, mutaxassis bo`lib yetishish.

Guruhning avtonomligi darajasi ham ma'lum ahmiyatga ega omil, chunki har bir a'zo umumiylar maqsad asosida birlashgan bo`lsa ham, ularning har birining o`z burch va vazifalari bor va shu nuqtayi nazardan har odam o`z imkoniyatlarini o`zicha ishga solib, o`zaro munosabatlarga sabab bo`ladi.

Guruhning psixologik tizimga ta'sir etuvchi omillarga yana ularning jihsiy, yosh jihatdan, ma'lumoti va malakasi nuqtayi nazardan farq qiluvchi va uyg`unlikni tashkil etuvchi omillar ham kiradi.

Guruhning uyushganligi ham dinamik ko`rsatgichlardan bo`lib, shu nuqtayi nazardan har bir guruh, bir-biridan farq qiladi. Masalan, odamlar hamkorlikda bajarayotgan ishning qiziqarli va hamma uchun manfaatli ekanligi guruh normalarining a'zolar tomonidan umuman olganda qabul qilinishi, qadriyatlar tizimini tasavvur qilishdagi fikrlar mosligi uyushqoqlikning mezonlaridir.

Guruhning tizimi yana uning katta-kichikligiga ham bog`liq. Masalan, 5-10 kishidan iborat guruhdagi munosabatlar yaxshiroq, uyg`unroq va faoliyat samaraliroq hisoblanadi. Chunki bunday guruhlarda norasmiy muloqot uchun ma`qul sharoit mavjud bo`ladi. Bunday guruhlarda “guruhbozlik” degan illat ham bo`lmaydi. Guruhning hajmi ortib borgan sari ularda rasmiyatchilik, rasmiy yuzaki munosabatlar ko`payadi va bu odamlar o`rtasidagi insoniy munosabatlarda o`z aksini topadi.

Jamoalarda psixologik o`zaro moslik. Guruh hayoti va undagi a`zolarning o`zlarini yaxshi his qilishlari ko`r jihatdan ularning hamkorlikda ishlay olishlari va bir-birlariga ijobiy munosabatda bo`la olishlariga bog`liq. Bu hodisani tushuntirish uchun psixologiyada psixologik moslik tushunchasi mavjud. Psixologik moslik deganda, guruh a`zolari sifatlari va qarashlarining aynanligi emas, balki ular ayrim sifatlarining mos kelishi, qolganlarining kerak bo`lsa, tafovut qilish nazarda tutiladi. Moslikning mezoni sifatida N.Obozov quyidagilarni ajratadi: a) faoliyat natijalari; b) a`zolarning sarflagan kuch-energiyalari; v) faoliyatdan qoniqish.

Ikki xil o`zaro moslik farqlanadi: psixofiziologik va ijtimoiy psixologik. Birinchi holatda faoliyat jarayonida odamlarning bir xil va mos tarzda harakat qila olishlari, reaksiyalar mosliga, ish ritmi va tempidagi uyg`unliklar nazarda tutilsa, ikkinchisida ijtemoiy xulqdagi moslik - ustakovkalar birligi, ehtiyoj va qiziqishlar, qarashlardagi monandlik, yo`nalishlar birligi nazarda tutiladi. Birinchi xil moslik ko`proq konveyer usulida ishlanadigan sanoat korxonalari xodimlarida samarali bo`lsa, bu oliygoh, o`qituvchilari, ijodiy kasb egalarida iloji yo`q va bo`lishi mumkin emas, ularda ko`proq ijtimoiy psixologik moslikning ahamiyati kattadir.

O`tkazilgan tadqiqotlar psixologik moslikning ko`plab qirralari bo`lishi mumkinligini isbot qildi. Asosan shuni unutmaslik kerakki, qaysi faoliyat va uning maqsadi odamlarni birlashtirgan bo`lsa, o`sha maqsadni idrok qilish va birgalikda anglash istagida uyg`unlikning bo`lishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`ladi.

Gruppaviy qarorlar qabul qilishda o`zaro ta`sir masalasi. Guruhda odamlarning bir-birlarini yoqtirishlari yoki aksincha, inkor qilishlari ko`pincha turli xil qarorlar qabul qilish jarayonida ro`y beradi. Gruppaviy qarorlar qabul

qilish individual qarorlar qabul qilish jarayonidan tubdan farq qilmaydi. Ikkalasida ham avval muammo aniqlanadi, ma'lumotlar to'planadi, bir nechta takliflar ilgari suriladi va nihoyat, eng ma'quli qabul qilinadi. Lekin guruhda bu jarayon biroz boshqacharoq kechadi va nizolar ko`pincha aynan shu jarayon bilan bog`liq bo`ladi.

Amerikalik psixolog T. Mitshellning fikricha, o`zaro ta'sir gruppa sharoitida quyidagi omillar vositasida ro`y beradi: 1) ayrim a'zolar boshqalariga nisbatan ko`proq gapishtiga moyil bo`ladilar; 2) yuqoriq mavqega ega bo`lgan shaxslar qarorlar chiqarish jarayonida ham boshqalarga tazyiq o`tkazishadi; 3) guruhda ko`p vaqt o`zaro fikrlardagi kelishmovchiliklarning oldini olishga ketib qoladi; 4) guruhda ayrim odamlar ta'sirida asosiy maqsaddan chetlash va maqsadga nomuvofiq qarorlar qabul qilish hollari kuzatiladi; 5) barcha a'zolar o`zlari sezmagan holda konformlilikka berilishlari va guruh ta'siriga tushib qoladilar. Shuning uchun ham ba'zan majlisni olib boruvchi rais kun tartibini e'lon qilgan bo`lsada, undan chalg`ib ketishi va o`rinsiz qarorlar qabul qilishi mumkin.

Lekin gruppaviy qarorlar qabul qilish jarayonining eng katta ijobiy tomoni shundaki, unda ko`plab fikrlar tug`iladi va o`rtaga tashlanadi. Bu fikrlar shunday sharoit yaratadiki, oxir-oqibat alohida individual fikrlardan biroz bo`lsa-da, farq qiladigan original yangi fikr raydo bo`ladi. Shuning uchun ham rahbarlik san'ati ko`pchilik fikriga tayangan holda oxirida eng ma'qul qarorga kela olishdir. Lekin salbiy tomoni shundaki, gruppaviy muzokara va qarorlar qabul qilish jarayoni ba'zi a'zolarda loqaydlik (“Menga nima, ular gapishtiyaptiku” kabi), tashabbussizlik (“Baribir meniki qabul qilinmaydi, gapirib nima qildim” kabi) illatlarini ham paydo qilishi mumkin. Bu o`sha muhitda ayrim odamlar fikri doimo qo'llab-quvvatlangan, ayrim odamlarga e'tibor, imtiyoz berilgan sharoitlarda rahbarning aybi bilan ro`y beradi.

Xoffman o`z eksperimentlarida gruppaviy qarorlar qabul qilishga guruhning tarkibi ta'sir qilish mumkinligini isbot qilgan. Uning fikricha, yaxshi, sifatli, ijobiy fikrlar va qarorlar guruh tarkibi har xil (geterogen tarkib) bo`lgan sharoitlarda uning tarkibi bir xil (gomogen) bo`lgandan ancha ko`p va sifatli bo`ladi. Gomogen

guruhlarda (masalan, taxminan bir xil o`zlashtiradigan talabalar guruhi) qarorlar qabul qilish mobaynida konfliktlarning kam bo`lishi va qarorlar tezda qabul qilinishi aniqlangan.

Har qanday qarorlar qabul qilish jarayoni psixologik jihatdan tavakkalchilikka asoslanishi ham isbotlangan. Lekin tavakkalchilik darajasi guruh sharoitida individual holatdagidan ansha past bo`lar ekan.

O`rtacha guruh a'zosining bu o`rindagi fikri: "Tavakkal shu gapni aytishi, noma'qul bo`lsa, guruh borku, ular ma'qullahganku". Demak, guruh sharoitida qabul qilingan har qanday qaror mohiyati ijtimoiy xarakterli bo`lib, uning to`g`ri va foydali, natijali bo`lishida rahbarning roli katta bo`ladi.

Guruhdagi psixologik muhit va uni o`rganish. Guruh va jamoalar to`grisida gap ketganda, ko`pincha uning "ma'naviy muhiti", "psixologik muhiti" degan iboralar ishlatiladi. Chunki bu narsa o`sha yerdagi ishning yaxshiligi, faoliyatning samarasi bilan bog`lanadi. Ijtimoiy psixologik muhit deganda, biz o`sha guruhning a`zolari fikrlari, hissiyotlari, dunyoqarashi, ustanovkalar va o`zaro munosabatlardan iborat bo`lgan emotSIONAL-intellektual holatni tushunamiz. Bu o`rindagi asosiy omil - bu a`zolarning o`zaro munosabatlaridir. Ma'lumki, o`zaro munosabatlar ish yuzasidan, faoliyat maqsadlari va mazmuni bilan hamda bevosita bir-birlarini yoqtirish-yoqtirmaslikka asoslangan insoniy emotSIONAL hissiyotlar ko`rinishida bo`lishi mumkin. Professional faoliyatni bajarish jarayonida tabiiy birinchi turli munosabatlar ustivor bo`lib, ikkinchilarining xarakteri birinchisidan kelib chiqadi. Do`stlar to`plangan davradagi muhit esa aksincha, bevosita simratiyalarga tayanadi.

Psixologiya kichik guruhlardan tashqari katta ijtimoiy guruhlarni ham o`rganadi. Katta guruhlar boshqa toifadagilardan miqdor ko`rsatkichi bo`yicha farq qiladi. Katta guruhlar uyushgan (sinflar, millatlar, xalqlar, katta jamoalar va b.k.) yoki uyushmagan (olomon, namoyishchilar guruhi kabi) bo`lishi mumkin. Katta guruhlar psixologiyada nisbatan kam o`rganilgan bo`lib, bu narsa metodologik muammolar bilan bog`liq. Lekin ularning orasida millatlar psixologiyasi yoki boshqacha qilib aytganda, etnopsixologiya ko`proq o`rganilgan.

Etnopsixologiyaning asosiy maqsadi, xalqlar va millatlar psixologiyasidagi o`ziga xoslikni o`rganish orqali har bir shaxsda bir tomondan, o`z millatiga nisbatan hurmat, uning madaniyatini e'zozlash hissini tarbiyalash bo`lsa, ikkinchi tomondan, o`zga millatlar psixologiyasini o`rganish orqali ular etnomadaniyatini ham bilish va hurmat qilishga o`rgatishdir. Bu narsa shaxsdagi etnotsetrismni oldini oladi va millatparvarlik psixologiyasini to`g`ri shakllanishiga imkon beradi. Etnotsentrizm - bu o`ziga xos xususiyatlarni faqat ijobiy, deb e'tirof etish orqali, o`zgalar milliy xususiyatlarini mensimaslikdir. Mustaqil O`zbekistonda amalga oshirilayotgan muhim mafkuraviy ishlardan biri o`zga millatlarga nisbatan tolerantlilik, ya'ni insoniy bag`rikenglik psixologiyasini shakllantirish bo`lib, bu millatlararo do`stlikni va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Demak, etnotsentrizm va millatrarvarlik bir qarashda bir-biriga yaqin tushunchaga o`xshaydi, lekin aslida millatparvarlik ijobiy sifat bo`lib, yurt va millat ravnaqiga xizmat qilsa, ikkinchisi -salbiy bo`lib, milliy adovatlarga asos bo`lishi mumkin. Demak, mafkuraviy tarbiyaning muhim yo`nalishlaridan biri yoshlarda baynalminalchilik va millatparvarlik hislatlarini tarbiyalash va etnotsentrizmning oldini olish bo`lmog`i lozim.

AMALIY MASHG`ÜLOT UCHUN KO`RSATMALAR

Asosiy muammo “**Jamoa, guruh, muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi**” mavzusi yechimini topishga qaratilgan faoliyatni tashkillashda bahs-munozara usulidan foydalaniladi.

1-topshiriq. Bilimni tekshirish uchun test savollari:

- 1. Muloqotning shaxslararo munosabatlarda xulq-atvorga ta'sir etuvchi tomoni:**
 - a) interaktiv; b) kommunikativ; c) perseptiv; d) refleksiv.

2. Muloqotning shaxslararo munosabatlarda axborot, ma'lumot, fikr almashinuvi tomoni:

- a) interaktiv; b) kommunikativ; c) perzeptiv; d) refleksiv.

3. Muloqotning shaxslararo munosabatlarda bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari:

- a) interaktiv; b) kommunikativ; v) perzeptiv; g) refleksiv.

4. Odam o'z his-kechinmalarini nutqsiz izhor qilmoqchi bo'lsa, qanday namoyon etadi:

- a) mimika, pantomimika; b) nutq; c) dialog; d) monolog.

5.O'zidagi bilim, tasavvurlar orqali boshqalarning his-kechinmalarini to'g'ri tushunish qobiliyati: a) interaksiya; b) identifikasiya; c) refleksiya;

d) stereotipizasiya.

6. Boshqalarning his-kechinmalarini tushunishga moyillik va tayyorlik xolati: a) egoizm; b) altruizm; c) empatiya; d) simpatiya.

7. Muloqot jarayonining ko'p qirrali ekanligini qaysi jihatlar ifodalaydi: a) shaxslarning o'zaro ta'siri; b) shaxslar o'rtaida axborot almashinuvi;

c) bir shaxsning boshqasiga munosabati; d) bir kishining boshqasiga ta'sir ko'rsatishi; e) barcha javoblar to'g'ri.

8. Birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlarning taassurotlari ijobjiy bo'lishi qaysi omilga bog'liq:

- a) verbal vositalar (nutqi, gapirgan gaplari);
- b) noverbal vositalar (mimika, qarash, pantomimika, nutqsiz);
- c) paralingvistik vositalar (yo'tal, tovush, artikulyasiya, to'xtash).
- d) dialogga (o'zaro suhbatga)

2 - topshiriq. “Blis-so'rov” savollariga javob bering, jadval so'rov vaqtida to'ldiriladi

Nº	Savollar	Javoblar
1.	Guruh ta’rifini ayting.	
2.	Guruhga qo’yiladigan talab nima?	
3.	Guruh turlari haqida nimalarni bilasiz ?	
4.	Olomon kim?	
5.	Referent guruh turlari qaysilar?	
6.	Guruhlarda psixologik o’zaro moslik deganda nima tushuniladi ?	

3-topshiriq. “T-jadval” texnologiyasi qo’llaniladi.


Bu texnologiyadan amaliy mashg’ulotlarning yakuniy qismida foydalanish qulay. Bunda bir muammoni turli qarama-qarshi nuqtayi nazarlardan qaraladi (ijobiy va salbiy, afzallik va kamchilik, foya va zarar, to‘g‘ri va noto‘g‘ri). Masalan, o‘qituvchi “Jamoa, guruh, muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi” mavzu bo‘yicha aralashtirib tuzilgan to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarni ekranga chiqarib, bir partada o‘tirgan talaba-o‘quvchilarga hamkorlikda ularni jadvalga ajratib yozishlarini, so‘ngra yozilgan varaqlarini yondosh partadagi talaba-o‘quvchilar bilan almashtirib qo‘sishmchalar qilishlarini taklif etadi. Ish yakunlangach to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar ajratib yozilgan jadval ekranga chiqariladi. Talaba-o‘quvchilar o‘zlarining javoblarini ekrandagi jadval bilan taqqoslab tegishli xulosalarga kelishadi.

To‘g‘ri javoblar	Noto‘g‘ri javoblar
1.	1.
2.	2.

4-topshiriq. “Venn” diagrammasidan foydalanib, guruh turlaridan ayrimlari

o'zaro taqqoslanadi, solishtiriladi, o'ziga xos belgilari aniqlanadi.

«Venn» diagrammasi - 2 yoki 3 obyektni, tushunchani, g'oyani, hodisani taqqoslash faoliyatini tashkil etish jarayonida ishlataladi. U talabalarda taqqoslash, tahlil qilish, guruhash malakalarini shakllantiradi.



5-topshiriq. “Pinbord” metodidan foydalaniladi.

Bu (inglizchadan: pin – mustahkamlash; board - doska) o'qitish uslubining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbati amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari – rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: talabalarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Mavzuni takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi.

Talabalar berilgan topshiriqnini birgalikda muhokama qiladilar, baholaydilar, eng optimal va samarali fikrlarni (qisqacha) qog'oz varag'iga yozishadi va doskaga mahkamlashadi. Boshqa guruh vakillari doskaga chiqib, xato yoki qaytarilgan, bahsli fikrlarni belgilaydilar hamda lozim bo'lsa qo'shimcha qiladilar.

“Pinbord” metodi savollari:

1.Guruhga qo'yiladigan talablar nimada?

- 2.Guruhlarning qanday turlari mavjud?
- 3.Psixologik moslik deganda nima tushuniladi?
- 4.Psixologik muhit deganda nima tushuniladi?
- 5.Ijtimoiy ta'sir (fasilitatsiya va ingibitsiya) hodisasi nima?
- 6.Oila mustahkamligi nimalarga bog'liq?

6-topshiriq. Mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi “FSMU” texnologiyasini qo'llash.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, babs-munozaralar o'tkazishda mashg'ulot yakunida (talabalarning fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biror bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatishga xizmat qiladi.

“FSMU”

Topshiriq: “Har bir oliy o'quv muassasalari qoshida ijtimoiy - psixologik tashxis markazini tashkil etish kerakmi?” degan savolni “FSMU” texnologiyasi asosida muhokama qiling.

Φ	Fikringizni bayon eting	
C	qarorning sababi	
M	Misol	
Y	Xulosa	

Bajarilishi:

F	Fikringizni bayon eting	Bugungi kunda har bir ta'lif muassasi qoshida ijtimoiy-psixologik yordam yoki psixologik tashxis markazini tashkil etish lozim.
S	Qarorning sababi	Sifat o'zgarishlar davrida ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiy qiyinchiliklar yoshlar ruxiyatida zo'riqish vujudga keltiradi. Zo'riqish holatidan chiqib ketishga

		albatta mutaxassis yordami samarali bo'ladi.
M	Misol	Juda ko'p talabalar doimo "Pedagogika va psixologiya" kafedrasiga psixologik yordam so'rab murojaat etadilar.
U	Xulosa	Psixologik tashxis markazi talabalarni psixologik zo'riqish holatidan chiqib ketishida va psixologik korreksiya tashkil etishda muhim o'rinni egallaganligi sababli uni tashkil etish zarur.

1-bosqich

Talabalarga «FSMU» texnologiyasining mohiyati va ishslash tartibi tushun-tiriladi hamda muhokama etiluvchi masala (ma'lumot) o'rta ga tashlanadi.

2-bosqich

Talabalar yakka yoki juftlikda o'rta ga tashlangan masalani muhokama qiladi-lar va «FSMU» jadvalini to'ldiradi

3-bosqich

Kichik guruhlarga birlashadilar va o'z fikrlarini bayon etadlar, qarorning sabablarini aniqlaydi va misollarga tayangan holda xulosa yasaydilar. Barcha guruh a'zolarining fikrlari inobatgaolinadi.

4-bosqich

Guruh ichida muhokama qilib yagona xulosaga keladilar. Katta qog'ozga «FSMU» jadvalini to'ldirib taqdimotga tayyorlaydilar.

FAN BO'YICHA IZOHLI LUG'AT (GLOSSARIY):

Adekvatlik - teng, o'xshash, muvofiq kelmoq.

"Axloq", "xulq" va "atvor" so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida xam o'z ma'nosida qo'llaniladi. Axloq kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmuyidir. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, hamma soxalarda kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyalarini bajaradi.

Analogiya - psixik hodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o'xhashligi.

Anketa - metodlardan biri bo'lib, respondent to'g'risida aniq ko'zlangan ma'lumotlarni yig'ish maqsadida qo'llaniladi.

Apatiya - kishining tevarak atrofdagi olamga nisbatan befarqlik xolati.

Assosiasiya - psixik xodislар orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi.

Astenik - shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

Attraksiya - bir kishini boshqa kishi ko'rib qolganda, idrok etishda yuz beradigan tafakkur turi.

Audivizual idrok - shaxsning bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rib idrok qilishi.

Autogen mashq - shaxsning o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

Affekt - kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emosional kechinmalar sifatida ro'y beradigan psixologik holat.

Bakalavriat- o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'naliшlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lмагan tayanch oliy ta'limidir.

Bilish, anglash-dunyo xaqidagi yangi bilimlar hisoblanadigan subyekt va obyektning o'zaro ta'sirini, voqyelikning ruhiyatda qayta ta'sir etilishi va aks ettirish jarayonidir.

Biografik metod - odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lган hujjatlar orqali o'rganish usuli.

Bixevierizm - psixologiyaning o'rganish predmeti sifatida odam xulq-atvorini olinishi nazariyasi.

Bosqichlar - muloqotda mavjud bo'lган shaxsning o'zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni.

Breynshorming - aqlga xujum - baxslarni tashkil etishda qo'llaniladigan interfaol usuldir.

Vegetativ nerv tizimi - nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi.

Verbal - og'zaki ifodalangan nutq.

Genotip - ota-onadan farzandga o'tadigan irsiy belgilar majmuyi.

Gerontopsixologiya - psixologiya tarmog'i, qarilik davri psixologiyasini o'rghanadi.

Gnostik - butun borliqni bilishga yo'naltirilgan faoliyat.

Guruh - odamlarning bирgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish harakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Dars- ma'lum maqsad asosida , belgilangan vaqtda aloxida, bir xil yoshdagi o'quvchilar, yoshlar bilan o'qituvchi raxbarligida olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Darslik- maxsus ravishda ukuvchilar uchun yozilgan kitob darslik deb ataladi.

Depressiya - tushkunlik kayfiyati.

Dialog - ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro og'zaki gaplashishi.

Dialogik nutq - nutq turlaridan bo'lib, bunda so'zlovchilar barobar teng, bирgalikda faollik ko'rsatadi.

Diqqatning barqarorligi - diqqatning ma'lum ob'yektga uzoq vaqtdavomida muttasil qaratilishi.

Diqqatning ko'lami - bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha obyektga qaratilishi imkoniyati.

Diqqatning ko'chishi - diqqatni ixtiyoriy ravishda bir obyektdan ikkinchisiga ko'chirish.

Diqqatning taqsimlanishi - diqqatning bir vaqtda bir necha obyektga taqsimlanish xususiyati.

Dominant shaxs - boshqalar bilan muomala va munosabat o'rnatishda o'z fikrini o'tkazish xislatining yorqin namoyon bo'lishi.

Dunyoqarash - odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelibchiquqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig'indisi.

Yosh davri nizolari - o'ziga xos, uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenez davrlari bo'lib, bu vaqtda keskin psixik o'zgarishlar yuz beradi.

Yosh psixologiyasi - turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va

rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Jamoa - maqsadlari jamiyat maqsadiga ms keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoa-insonparvlik va javobgarlik ma'suliyatlariga boglikligi bilan harakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyligi, jamoasidir.

Jamoaning negizi - umuiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishag taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a'zolari.

Idrok- mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta'sir etishi davomidagi bir butun xodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

Idrok- mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta'sir etishi davomidagi bir butun xodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

Idrokning butunliligi - sezgi a'zlariga bevosita ta'sir etib turgan obyektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo'shib idrok etish.

Idrokning konstantligi - idrok sharoiti o'zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo'lган narsa obrazlarning nisbatan o'zgarmasligi.

Idrokning predmetliligi - jamiki olamdan olingan ma'lumotlarni ichki olam ob'yektiga kiritish xususiyati.

Ijtimoiy psixologik eksperiment - asosiy metodlardan biri bo'lib, o'zgaruvchan mustaqil turli xolat va jarayonlarning boshqa nomustaqil xolat va jarayonlarga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlariga tayanadi.

Ijtimoiy psixologiya - psixologiya fanining o'ziga xos maxsus tarmog'i bo'lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o'rganiladi.

Ijtimoiy tasavvurlar - shaxsga jamiyat orqali ta'sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

Ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni.

Ilmiy taxmin - tekshirish va tadqiqot olib borish maqsadida ilgaridan kutilishi mumkin bo'lган xolatning bashorat qilinishi.

Individuallik - individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari

va psixikasining o'ziga xosligi, qaytarilmasligi.

Interaktiv - shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta'sir ko'rsatish jarayoni.

Introvert shaxs - shaxsning har qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi.

Iste'dod - shaxsning ma'lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

Yo'nalish - shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat'iy nazar ma'lum yo'lga yo'naltiruvchi barqaror motivlar yig'indisi.

Kasb - faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat subyektini tayyorlashga qo'yiladigan talablar majmui.

Qiziqish - shaxs harakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

Qiziqish - shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki xodisalarga munosabati.

Kichik guruhi - a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo'luvchi kishilar guruhi.

Qobiliyat - shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

Qobiliyatlar - shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

Kommunikativ - shaxslararo munosabatlarda ma'lumot, axborot, g'oyalar almashinushi jarayoni.

Kontent-analiz - tekshirilayotgan matnda so'z, ibora, abzaslarni ma'no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

Kuzatish - sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog'liq ravishda tekshirish, o'rGANISH, ma'lumotlar to'plash metodi.

Ko'nikma - odamening ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinaldigan qobiliyati. Ko'nikma mahoratning asosini tashkil etadi.

Longityud tadqiqot - sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish. **Maqsad**-bo'lg'usi natijalar haqida har doim aqlan o'ylab qurilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

Malaka - mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

Melanxolik - temperament turlaridan biri bo'lib, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotga berilishi bilan harakterlanadi.

Metod - bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Metodologiya - tadqiqot, tekshirish usuli bo'lib, bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir.

Mehnat - inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat.

Mehnat psixologiyasi - kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadigan fan.

Mehnat subyekti (egasi) - bu faol harakat qiluvchi, anglash va o'zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki ijtimoiy guruh.

Mehnat faoliyati psixologiyasi - bu psixologiyaning bir sohasi bo'lib, inson shaxsini mehnat subyekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo'llari va usullarini ilmiy jihatdan o'rganadi.

Mobil shaxs - shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

Monolog - ma'ruzachi tomonidan nutq so'zlanishi, ma'ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo'lgan jarayon.

Monologik nutq - bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.

Motiv - ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivasiya - odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

Muloqot - ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi.

Mutaxassislik - faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

Negativizm - individning har qanday sharoiitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqyeni namoyon qilishi.

Nizo bosqichlari - uch bosqichda, ya'ni nizo oldi, nizo va nizodan keyingi bosqichlar.

Nizo turlari - nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko'ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo'lism xususiyatiga ko'ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa; mavqye yoki darajaga ko'ra: vertikal va gorizontal; yo'naliishiga ko'ra: destruktiv va konstruktiv.

Nizo hal etish yo'llari - komromiss, ya'ni kelishuv; joyida hal etish; nizodan chekinish; orqaga surish; qochish.

Nizolar - o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozisiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi.

Noverbal - nutqsiz ifodalangan harakat, mimika, xolatlarning boshqa shaxsga yo'naltirilishi.

Norasmiy - odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko'zda tutilishi.

Oila - turmush qurish, qarindosh-urug'chilik asosidagi kichik guruh.

Operativ xotira - xotira turlaridan biri bo'lib, faoliyat bajarish jarayonida uzoq xotiradan vaqtincha foydalilanadi.

Pedagog nuktai nazari (pozisiyam) - pedagogning dunyoga, pedagogik voqyelikka va pedagogik jarayon bo'lgan intellektual va xissiy munosabati.

Pedagog nuqtai nazari (pozisiyasi) - pedagogning dunyoga, pedagogik voqyelikka va pedagogik jarayong'a bo'lgan intellektual va xissiy munosabati.

Pedagogik jarayon - ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini xal qi-lishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli

o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari - pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini oolib beradi.

Pedagogik ixtisoslashish - pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

Pedagogik ixtisoslik - ta'lif natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy gurux doirasidagi faoliyat turi.

Pedagogik malaka - muayyan toifadagi vazifalarni xal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik masala - pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimidir. U voqyelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'lik tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lif qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'lif va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.

Pedagogik maxorat - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik mulokot - ta'lif oluvchilarning maqsadlari xamda ularning birgalikdagi faoliyatları mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir- birini anglash va qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

Pedagogik takt - shaxslar faoliyatinish turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, talabalar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan xolda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

Pedagogik texnika - 1) har bir ta'lif oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishning samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lif oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jixatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

Pedagogik tizim - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'lifning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

Pedagogik uyn - bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan xamda ta'lif jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Pedagogik faoliyat - ta'lif maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

Pedagogik xaqqoniylig - o'qituvchining ob'yekтивлик mezoni, uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

Pedagogika fani - maxsus institatlarda (oila, ta'lif va tarbiya, madaniyat muassasalari) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit peda-gogik jarayon.

Pedagogikaning nazariy vazifikasi - ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rGANISH. **Pedagogikaning texnologik vazifikasi** - diagnostik satx - pedagogik xodisalar xolatini aniqlash; bashorat qilish satxi - pedagogik faoliyatni eksperimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqyelikni yaratish modellarini o'rnatish; loyixa satxi - pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiysi, uning mazmuni va harakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv ko'planmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik satxi - pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejulashtirish maqsadida ta'lif amaliyotiga tatbiq etish; reflektiv tuzatma (korrektirovka) satxi - ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lif va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baholash.

Perseptiv tomon - shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etishga qaratilgan jarayon.

Pilotaj tadqiqot - tadqiqotning muammoli izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o'tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli.

Polilog - guruh ichidagi munozara bo'lib, barcha ishtirokchilar faoolashuvi kuzatiladi.

Preskreptiv - me'yoriy.

Proyektiv malaka - malakaning maxsus turi bo'lib, kutilgan pedagogik natijalarini aniq ta'lif va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

Professiogramma - kasbning turli obyektiv harakteristikalarining tasnifi.

Professiografiya - mehnat subyektining faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metod.

Psixik jarayonlar - u yoki bu psixik maxsult va natijalarni (psixik obrazlar, xolatlar, tushunchalar, xissiyot va x.k.) xosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlanuvchi jarayon.

Psixik holatlar - psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyat, iroda jarayonlariga aytiladi. P.H. (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat'iylik, tirishoqlik v.b.) shaxslarda ma'lum darajada barqaror bo'lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi.

Psixika - yuksak darajada tashkil topgan materiya, miyaning funksiyasi bo'lib, uning mohiyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirishdan iborat.

Psixogramma - faoliyatning psixologik harakteristikalarining tasnifi.

Psixodiagnostika - shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli.

Psixokorreksiya - shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo'llash jarayoni.

Psixologik maslahat - shaxsning turli darajadagi o'z muammolarini yakka tartibda psixolog bilan tahlil etishiga qaratilgan psixologik xizmat turi.

Psixologik xizmat - psixologiyani amaliyotda qo'llash tizimi. U turli sohalarda diagnostika, konsultasiya, ekspertiza vazifalarini bajaradi.

Psixologiya - I) shaxsning obyektiv borlikni faol aks ettirish jarayonini o'rganuvchi fan; 2) ma'lum bir faoliyat turining o'zaro shartlangan psixik jarayonlar tuplami; 3) psixika, harakter xususiyati, ko'ngil xazinasi.

Psixologiya - odamning obyektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

Psixologiya metodlari - psixik hodisalarini va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o'rganishning asosiy yo'l-yo'riq va usullari.

Rasmiy - odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida

mavqe, martabaning inobatga olinishi

Rasionalizatsiya - metodlarni yoki biror ish - harakatni takomillashtirish.

Real - birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

Relaksatsiya - kuchli hayajon va jismoniy zo'riqishdan so'ng yengil yurish, tinchlanishning umumiy holati.

Retrospektiv - o'tmishga murojat etish.

Referent guruhi - shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi.

Rigid shaxs - shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining past darajada kuzatilishi.

Ruhiy pedagogik tayyorgarlik - pedagogikaning metodologik asoslari va kategoriyalarini, shaxsning ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, ta'lif va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologik g'oyalarini bilish.

Sangvinik - temperament turlaridan bo'lib, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez o'zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi.

Sanoat psixologiyasi - sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va holatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi.

Simpatiya - bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo'lishi.

Sotsiologiya - jamiyatda yuz beradigan turli voqealarni va o'zaro munosabatlarni o'rganishga qaratilgan fan.

Suhbat - kuzatuv juda yetarli darajada aniq bo'limgan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigan tadqiqot metodi.

So'rov - asosiy metodlardan biri bo'lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bilvosita ma'lumot olinadi.

Tadqiqot obyekti - ziddiyat va muammoli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahlilga muhtoj obyekt.

Tadqiqot predmeti - bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan obyektning mohiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati.

Tazyiq o'tkazish - uyatga qo'yish, aybdorlik hissi yoki ko'ngli cho'kkalarning fikri, hissiyoti, intilishi va moyiliggi ularning ongidan xalos qilish.

Takabbur - o'z manfaatlarini yuqori qo'yuvchi, manman shaxs.

Taqqoslash - narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operasiyasi.

Takt - misli ko'rilmagan tarzda o'zini tuta bilish.

Talabalarni kasbga yo'naltirish - talaba-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy- biologik va ishlab chiqarish texnik tadbirlarning asoslangan tizimi.

Tafakkur inson aqliy faoliyatning oliy shakli, insonlarni o'rab olgan duyodagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni xal qilish, ma'lum bo'limgan voqeа va hodisalarni qidirish, kelajakni ko'ra olish. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo'ladi.

Tahlil - tafakkur qilish usuli, bunda murakkab obyektlar qismlarga bo'linib o'rganiladi.

Ta'lim - 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, ijtimoiy etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shakllangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy kadr, malaka, ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim

Tarbiya- 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq tasir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Ta'lim maskanlari psixodiagnostikasi - shaxsni ta'lim tizimda qobiliyati, iqtidori, iste'dodini aniqlab olish maqsadida olib boriladigan psixologik xizmat turi.

Temperament - 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarini bildiradigan turg'un individual xususiyatlarining qonuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va holatlar ritmi.

Temperament - shaxsning individual-psixologik xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emotSIONAL tomonlari bilan xarakterlanadi.

Test - sinaluvchini tekshirish jarayonida maxus qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

Tobe shaxs - muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko'nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog'liqlik, fikriga bo'ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

Trening - mashq qilmoq, guruhlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo'lib, shaxsni muloqotga o'rgatish va obro'li bo'lishini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi.

Tushunish - biror narsaning ma'nosi va ahamiyatini anglash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi.

Tushuncha - narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

O'yin faoliyatni bir turi bo'lib, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bunyod etishga, o'z xatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

O'quv faoliyati - shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallah jarayoni.

O'quv-bilish faoliyati - insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallah bilan bogliq faoliyat.

Umumillashtirish - voqelikdagi narsa va hodislarni umumiyl va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

Ustanovka - yo'nalish, kishining tevarak-atrofdagi odamlarga va obyektlarga

nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni idrok qilish, ularga baho berish va ularga nisbatan harakatining tayyorlik holati.

Uyushganlik - guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

O'z-o'ziga baho berish - shaxsning o'z-o'ziga baho berishi.

O'z-o'zini baholash - shaxsning o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

O'z-o'zini tarbiyalash - 1) shaxsga xos bo'lган madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

O'yin - faoliyat turlaridan biri bo'lib, bolalarning kattalar faoliyatini, ish harakatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

O'yin - faoliyatning bir turi bo'lib, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bunyod etishga, o'z xatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

O'qitish - 1) ta'limning o'ziga xos usuli bo'lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'minlanadi; 2) talaba va o'qituvchi, talabaning boshqa talabalar bilan aloqasi natijasi o'laroq atrof-muhit, uning qonuniyatları, taraqqiyot tarixi va ularning o'rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

O'qitish - ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati.

O'qitish vazifasi - ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

O'qitish turlari - suhbat metodi, ta'lim berish, izohlash,namoyish etish asosida o'qitish, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta'lim, o'quv jarayonini algoritmlash, differensasiyalı hamda individual ta'lim va boshqalar.

O'qituvchining innovasion faoliyati - ijtimoiy pedagogik fenomen bo'lib, ijobjiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

O'qish - o'quvchining o'z qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan harakat.

O'qish - shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallahsga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

O'quv faoliyati- shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarini egallah jarayoni.

O'quv-bilish faoliyati - insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallah bilan bog'lik faoliyat.

Faoliyat - insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligi.

Faollik - tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Flegmatik - temperament turlaridan biri bo'lib, harakatlar sekinligi, barqarorligi, emotsional xolatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi.

Halollik - shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy me'yirlarni rostgo'ylik bilan saqlash.

Harakat - maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. Harakat ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Xarakter - kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi bo'lib, shaxsning mehnatga, narsa va xodisalarga, o'ziga va boshqa kishilarga munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Xasad - o'zgalarning muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslikdan kelib chiqadigan tuyg'u.

Xolerik - temperament turi bo'lib, hissiyot jo'shqinligi, kayfiyatning tezda o'zgarishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ajralib turishi xosdir.

Xulosa chiqarish - tafakkurning mantiqiy shakllaridan bo'lib, bir qancha hukmlar asosida ma'lum xulosa chiqariladi. Xulosa chiqarish induktiv, deduktiv va analogik turlarga ajratiladi.

Shakllanganlik - odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq psixologik jarayon.

Shakllar - bevosita va bilvosita tur bo'lib, yuzma-yuz yoki vosita orqali amalga oshishi ko'zda tutiladi.

Shartli - odamlarning turli belgi, faoliyat shakllariga ko'ra biror guruhga taalluqli deb qarash.

Shaxs - ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam.

Shaxs dinamikasi - kishining ontogenetik rivojlanishini o'z ichiga olgan xolda subyektning xususiyatlari va sifatining vaqtga nisbatan o'zgarish jarayoni.

Shaxs ijtimoiylashuvi - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallah va hayot faoliyati jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir.

Shaxsiy fazilat - shaxs tomonidan o'zining axloqiy, ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rmini anglay olish xususiyati.

Shaxslararo munosabat - muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sir etish natijasida ro'y beradigan ijtimoiy-psixologik hodisalar.

Evristik - ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik ko'rsatmalar.

Egosentrizm - men, markaz ma'nosida individualizm va egaizmning eng tuban turi.

Ekstrovert shaxs - shaxsning har qanday sharoit va holatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi.

Emotsiya - odam va hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki va tashqi qo'zg'oluvchilar ta'siriga javob reaksiysi.

Empatiya - boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati.

Empirik - tajribaga asoslangan.

Empirik bosqich- tadqiqot obyekti to'g'risida har tomonlama tasavvur xosil qilish, ta'lim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va hodisalar mohiyatiga erishishga bo'lган talab o'rtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

Estetik tarbiya - go'zallikni xis qilish, atrof-muhitdan go'zallikni payqay olish va tushunishga bo'lган qobiliyatni tarbiyalash.

Ehtiyoj - individning biror narsa-hodisaga muhtojligi va kishining ruhiy quvvati hamda faolligi manbai hisoblanadigan asosiy xususiyati.

Ehtimollik - tasodifiylik, pedagogik hayotdagi o'zgarishlarni aniq aytib berish mumkin bo'limgan, ehtimol kutilgan jarayon.

E'tiqod - shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va xodisalarning qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining xattiharakatlariga bo'lgan subyektiv munosabati.

Adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: O'zbekiston, 1997.
- 2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T-2008.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017-y, 104 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa

ijodiy uyi.

- 4.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y, 488 bet, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
- 5.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. 2016-y, 56 bet, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
- 6.Umarov B.M., Shoyimova Sh.S., Ro’ziyeva D.I. Pedagogika. Psixologiya. Darslik. Toshkent, 2018 y.
- 7.Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “LESSON PRESS” Toshkent, 2017 й.
- 8.Novgorodseva I.V. Pedagogika v meditsine. Izdatelstvo “FLINTA”, 2017 g.
- 9.Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya I pedagogika. Uchebnik dlya vuzov. -SPb.: Piter, 2002 g.
- 10.Abdullaeva Sh. A. Pedagogika.– Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2012.
- 11.Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
- 12.Umarov B.M. Psixologiya (2-nashr. Nopedagogik, nopsixologik oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun dasrlik). “Voris” nashriyoti,– Toshkent, 2012
- 13.Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiyl psixologiya. –T.: TDPU, 2010.
- 14.Shoyimova Sh.S. Muloqot psixologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma “ZAMON POLIGRAF”OK Toshkent, 2017

Internet saytlari:

- 1.www.edu.uz – OO‘MTV rasmiy sayti
- 2.www.ziyonet.uz – ta’limiy portal
- 3.www.pedagog.uz – TDPU rasmiy sayti
- 4.www.natlib.uz – Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.
- 5.www.istedod.uz – O‘zR Prezidenti huzuridagi “Iste’dod” jamg‘armasi portali.
- 6.www.thelearningweb.net – ta’lim tarmog‘i.

- 7.www.inetlibrary.com. – Internet kutubxona
- 8.www.glef.org. – Djordj Lukasning Ta’limning fondi.
- 9.www.newhorizontsofedu.org. – Ta’limning yangi ufqlari.
- 10.www.teacherswithoutborders.org. – Chegarasiz o‘qituvchilarning ta’limi

M U N D A R I J A

Kirish	4
1-mavzu. Pedagogika fan sifatida. Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda redagogik bilimlarning o'rni	5
2-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ta'lif tizimi.	25
3-mavzu. Tarbiya jarayonining mazmun va mohiyati. Tarbiyaviy ta'sir etish usullari, vositalari va uni amalda qo'llash shakllari.	42
4-mavzu. Didaktika – ta'lif nazariyasi sifatida. O'qitish tamoyillari, metodlari va uni tashkil etish shakllari.	70
5-mavzu. Psixologiya faniga kirish.Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda psixologik bilimlarning o'rni.	111
6-mavzu. Psixologiyada shaxs va jamiyat muammozi	131
7-mavzu. Shaxs faoliyati va uning individual-psixologik xususiyatlari: xarakter, temperament, qobiliyat	151
8-mavzu. Shaxsning diqqati va bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq.Shaxsning emosional irodaviy xususiyatlari.	175
9-mavzu. Jamoa, guruh, muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi	209
Glossariy	233
Adabiyotlar	247